

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**“IJTIMOIY SUG‘URTA”  
fanidan**

**O‘QUV USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT – 2018**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**“IJTIMOIY SUG‘URTA”  
fanidan**

**O‘QUV USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta‘lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta‘lim yo‘nalishi:	5231300	–	Pensiya ishi



**TOSHKENT – 2018**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

- Yuldasheva N.V. – TMI, “Pensiya ishi” kafedrasida katta o'qituvchisi;  
Boyev B.J. – TMI, “Pensiya ishi” kafedrasida o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

- Vaxabov A.V. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasida mudiri, i.f.d., prof. (*turdosh OTM*);  
Davronov Sh.Z. – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Boshqarma boshlig'i. (*kadrlar buyurtmachisi*);  
Xo'jamqulov D.Yu. – TMI, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi kafedrasining 2018 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ sonli yig'ilishida muhokama qilingan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**B. Mamatov**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi Byudjet hisobi va davlat jamg'armalari fakulteti Kengashida muhokama qilingan va institut Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2018 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ sonli qaror).

**Fakultet dekani**

**O. Komolov**

Kelishildi:

**O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i**

**T. Baymuratov**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut o'quv-uslubiy Kengashining 2018 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**I. Qo'ziyev**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018 yil \_\_\_ \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - sonli majlisi bayoni bilan ma'qullangan.

# MUNDARIJA

bet

## KIRISH

### I-bo'lim O'QUV MATERIALLAR

#### 1.1. MA'RUZALAR MATNLARI

- 1-mavzu Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va huquqiy asoslari
- 2-mavzu Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari
- 3-mavzu Ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida sug'urtaning roli
- 4-mavzu Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi
- 5-mavzu Tadbirkorlarning davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar ajratishi
- 6-mavzu Pensiya sug'urtasi
- 7-mavzu Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taaluqli huquqlari. Davlat pensiyalarning turlari
- 8-mavzu Ijtimoiy sug'urta soxasidagi chet el davlatlari tajribasi
- 9-mavzu Chet mamlakatlarga chiquvchi fuqarolarni ijtimoiy sug'urta qilish

#### 1.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI

- 1-mavzu Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va huquqiy asoslari
- 2-mavzu Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari
- 3-mavzu Ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida sug'urtaning roli
- 4-mavzu Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi
- 5-mavzu Tadbirkorlarning davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar ajratishi
- 6-mavzu Pensiya sug'urtasi
- 7-mavzu Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taaluqli huquqlari. Davlat pensiyalarning turlari
- 8-mavzu Ijtimoiy sug'urta soxasidagi chet el davlatlari tajribasi
- 9-mavzu Chet mamlakatlarga chiquvchi fuqarolarni ijtimoiy sug'urta qilish

## **II-bo'lim MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI**

“Ijtimoiy sug'urta” fanidan mustaqil ta'lim bo'yicha  
uslubiy qo'llanma

## **III-bo'lim GLOSSARIY**

## **IV-bo'lim ILOVALAR**

- 4.1.** “Ijtimoiy sug'urta” fanidan fan dasturi
- 4.2.** “Ijtimoiy sug'urta” fanidan ishchi-o'quv dasturi
- 4.3.** Tarqatma materiallar
- 4.4.** Testlar
- 4.5.** Yakuniy nazorat variantlari
- 4.6.** “Ijtimoiy sug'urta” fanidan talabalar bilimini baholash mezonlari
- 4.7.** O'quv-uslubiy majmuaning elektron varianti (diskda)

## KIRISH

“Ijtimoiy sug’urta” fanining O’quv-uslubiy majmuasi bakalavriatning “Pensiya ishi” ta’lim yo’nalishi davlat ta’lim standartlari va “Ijtimoiy sug’urta” fanining fan dasturida belgilangan talablarga muvofiq egallanishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirish, fanga oid jahondagi ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so’nggi yutuqlarini, ilg’or xorijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish, o’quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarga erishish, mustaqil bilim olish va o’rganish hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan o’quv-uslubiy vosita bo’lib, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o’qitish texnologiyasi, baholash metodlari va mezonlarini o’z ichiga oladi.

Ushbu O’quv-uslubiy majmuada “Ijtimoiy sug’urta” fanining o’quv dasturiga muvofiq ravishda ma’ruzalar matnlari, amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy tavsiyalar, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish bo’yicha uslubiy qo’llanma, fanning namunaviy va ishchi-o’quv dasturlari, fan yuzasidan testlar, yakuniy nazorat savollari va variantlari, talabalar bilimini baholash mezonlari, fan mavzulari bo’yicha tarqatma materiallar, fan mavzularini o’zlashtirish bo’yicha asosiy va qo’shimcha adabiyotlar hamda boshqa didaktik materiallar jamlangan.

## I-BO'LIM. O'QUV MATERIALLAR

### 1.1. MA'RUZALAR MATNLARI

#### 1-MAVZU: Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlatlarida ijtimoiy himoyaning o'rni va ahamiyati

##### REJA:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining mohiyati va zarurligi
2. Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida

**Tayanch so'z va iboralar:** *ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot ijtimoiy siyosat; ijtimoiy sug'urta.*

#### 1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya tizimining mohiyati va zarurligi


Inson hayoti davomida uning sog'ligiga ta'sir etuvchi va buning natijasida uning asosiy daromad manbai bo'lmish ish haqini yo'qotishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelish xavfi ostida turadi. Ushbu shart-sharoitlarga: kasallanish, qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish va boshqalar kiradi. Mustaqil ushbu sharoitlarga qarshi kurashish har doim ham mumkin emas. Ular shaxsning faol faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, alohida shaxslarning hoxish va irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda ular to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham davlat ushbu holatning yuzaga kelishidagi ma'lum bir javobgarlikni o'z zimmasiga olib, davlat pensiyalarini, ijtimoiy nafaqalarni va xizmatlarni tayinlash orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.

Inson hayot-faoliyati davomida ma'lum bir hodisalarni ijtimoiy xavf-xatar sifatida namoyon bo'lishining asosiy omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

iqtisodiy tizim va umumjamiyat mehnat faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari;  
mehnat faoliyati natijasida, shuningdek oila ichidagi uni ta'minoti uchun daromadning yo'qligi, oiladagi mehnatga qobiliyatsiz a'zolariga qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi;  
davlat va jamiyatning aytib o'tilgan shart sharoitlarning natijalarini bartaraf etishga yoki uni engillashtirishga bo'lgan qiziqishining mavjudligi

Inson mehnat qobiliyatiga va tabiatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin (1-rasm):

Iqtisodiy tisdagi (ishsizlik);  
Fiziologik tisdagi (vaqtinchalik yoki doimiy asosda mehnatga qobiliyatligini yo'qotish, homiladorlik yoki bola tug'ish, qarilik, o'lim);  
Faoliyat yuritish tisdagi (mehnatdagi shikastlanish, kasbiy kasalliklar);  
Demografik va ijtimoiy tisdagi (ko'p bolalilik, oilaning to'liq emasligi, etimlilik).



**1.1.-rasm. Ijtimoiy xavf-xatarlar1**

Iqtisodiy va demografik xavf-xatarlar shaxsning mehnatga qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. Lekin ish joyining uzoq vaqt davomida mavjud bo'lmasligi, ishsiz shaxsning va uning oilasining umumiy hayot davomiyligi ko'rsatkichini pasayishiga, shuningdek, uning kasbiy mahoratini yo'qotishiga olib keladi. Ko'p bolalilik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar o'z navbatida oilaning o'rtacha daromadini yashash savatchasi xajmidan past bo'lishiga, oziqlanish, dam olish va boshqa xayotiy sharoitlar sifatining

Ijtimoiy siyosat deganda jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun uning rivojlanishiga yordam beradigan va ijodiy imkoniyatlarining to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish va saqlab turishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi.<sup>2</sup>

Bugungi kunda respublikada ijtimoiy siyosatning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha ish olib borilmoqda:

1. *Ishlab chiqarish sohasida:*

- bandlikni yuqori darajada ushlab turish;
- xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish amalga oshirilayotganda mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish.

2. *Daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash sohasida:*

- ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiyalarning minimal miqdorini belgilash;
- inflyatsiyaning o'sishiga mutanosib ravishda aholi daromadlarini indeksatsiyalash;
- daromadlarni kam ta'minlangan fuqarolar hisobiga qayta taqsimlash.

<sup>1</sup> Edward D. Berkowitz and Larry DeWitt, *The Other Welfare: Supplemental Security Income and US Social Policy* (Cornell University Press, 2013.) p 15.

<sup>2</sup> Michael McLindon, John Chapman, Gary Powell, Thomas Tift, Mostafa Mazhar, Khalifa Abdel Hamid, Noha Bakr. *Enhancing Egypt's Social Insurance System*, 1999 September, p 10



3. *Iste'mol sohasida:*

- ichki iste'mol bozorini himoyalash;
- iste'mol mollari ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- tovarlarning erkin almashinuviga sharoit yaratish;
- asosiy iste'mol mollari darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik;
- o'ta muhim, yuqori kalloriyali oziq-ovqat iste'molining tarkibini takomillashtirish.

4. *Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish sohasida:*

- davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot xizmatlarining miqdorini belgilash va sifatini ta'minlash;
- bu xizmatlarni ko'rsatishning moddiy, mehnat va moliyaviy asosini mustahkamlash;
- bu sohalarda band bo'lgan xodimlar malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish mexanizmini mustahkamlash;

5. *Ijtimoiy himoya sohasida:*

- kam ta'minlangan oilalarga qaratilgan nafaqalarni belgilash;
- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillilikni ta'minlash;
- shu maqsadlarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali etkazilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni yaratish va takomillashtirib borish;
- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalb etish;
- davlat tomonidan yuqori tug'ilish sur'atlarini rag'batlantirishni qisqartirish.

**Ijtimoiy himoya** – keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan etarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarini ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tavofutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi birinchi marta 1935 yilda AQSh ning «Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun»da qo'llanilgan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konventsiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshlandi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi.

Amalga oshirilish usuliga ko'ra ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin. Passiv ijtimoiy siyosat narxlarni sun'iy ravishda tutib turish, shuning hisobiga aholi turmush darajasini ma'lum darajada tutib turish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga narxlarni sun'iy ravishda tutib turish natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida dotatsiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. Aktiv ijtimoiy siyosat esa tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berishda, aholi bandligini oshirishda, yangi ish o'rinlarni ochishda, aholining nozik qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishda, pensionerlar, qariyalar, nogironlar, bolalar, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofazalashda va qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi.<sup>3</sup>

Bugungi kunda mamlakatimiz aholi yoshining tarkibiy tuzilishi ham respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, bu sohadagi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ijtimoiy masalalarning, jumladan, ijtimoiy himoya, pensiya

---

<sup>3</sup> John Pitzer. *The Definition of a Social Insurance Scheme and its Classification as Defined Benefit or Defined Contribution...* June 30, 2009

ta'minoti, yoshlar masalasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalarini rivojlantirishning islohotlarimizning ustuvor yo'nalishlari ekanligini belgilab bermoqda.

Ijtimoiy siyosatda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

**Ijtimoiy himoya** - o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'i nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi.<sup>4</sup> Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamogda:

➤ o'z mablag'lari va Fondlari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;

- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

**Ijtimoiy ta'minot** - fuqarolarning qarilikda, kasallik ro'y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti yotadi.<sup>5</sup> Bizning respublikamizda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishning quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi;
- davlat byudjeti.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi fuqarolarning zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo'lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug'urta badallari hisobidan Pensiya fondi, Bandalik fondi va Kasaba uyushmalari mablag'larining shakllanishiga asos bo'ladi.<sup>6</sup>

Demak, davlat ijtimoiy taminoti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar;

➤ davlat pensiya ta'minoti;

➤ uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;

➤ nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;

➤ bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;

➤ nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy rehabilitatsiya qilish;

➤ aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish va imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;

- uylarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

<sup>4</sup> Definition adapted from the Merriam-Webster ([www.m-w.com-OnLine](http://www.m-w.com-OnLine) Dictionary)

<sup>5</sup> [www.m-w.com-OnLine](http://www.m-w.com-OnLine) Dictionary

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr.

## **2.Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining muhim bo'g'ini sifatida**

**Ijtimoiy ta'minot** - ma'lum bir kategoriyadagi fuqarolarni mamlakat rivojlanishining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning yuzaga kelishi natijasida boshqa jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy tengligini ta'minlash maqsadida davlat byudjeti va mahsus ijtimoiy fondlar hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosatining shakli hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minotga zaruriyat fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi bilan vujudga kelgan. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga qaramasdan, unda har doim tabiiy, o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablar doirasida hayotiy faoliyatni amalga oshirish uchun etarli miqdordagi mablag'ga ega bo'lmagan fuqarolar topiladi. Ular jumlasiga avvalo bolalar va qariyalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari mehnat qilishga qobiliyatsiz bo'lgan shaxslar jumlasiga sog'ligini yo'qotganligi sababli vaqtincha yoki doimiy asosda mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar ham kiradi.


Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy xavflardan aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashning avtomatik mexanizmini shakllantirmaydi, chunki ular ma'lum bir moddiy xarajatlarni talab etib, foyda keltirmaydi. Ushbu vazifalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bosqichiga etgan, jamiyatning rivojlanishida uning ahamiyatini tushunib etgan davlat amalga oshiradi. Ijtimoiy davlat bu shunday davlatki, u o'z hududidagi fuqarolariga, shuningdek chet el fuqarolariga hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qonuniy doirada maqbul yashash sharoiti va erkin rivojlanishni ta'minlab beradigan davlatdir. U davlat ijtimoiy ta'minot tizimini shakllantirib, pensiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda ishtirok etadi (1.2-rasm).

Ijtimoiy ta'minotning mohiyati uning asosiy funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ta'minotning asosiy funktsiyalari qatoriga, uning iqtisodiy, siyosiy, himoyaviy va rehabilitatsion, demografik funktsiyalarini kiritish mumkin.

Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy funktsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mehnatga qobiliyatsizlik, ishsizlik, boquvchisini yo'qotganlik bilan bog'liq yo'qotilgan ish haqi va boshqa mehnat haqlarini qisman qoplanishida;
- ishsizlarga, kam ta'minlangan oilalar va shaxslarga minimal pulli, natural va boshqa yordam turlarini ko'rsatishda;
- davlat kafolatlari doirasida tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni tekinga taqdim etishda (masalan dori-darmon ta'minotida) va boshqalarda.

Ijtimoiy ta'minot tizimni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib yagona ijtimoiy to'lov (YAIT), sug'urta badallari, turli darajadagi byudjetlar hisoblanadai. Ijtimoiy ta'minotning siyosiy funktsiyasi aholining turli qatlamlaridagi yashash darajasidagi me'yoriy farqlar natijasida jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni susaytirishga imkon beradi. Ijtimoiy ta'minotning himoyaviy funktsiyasi aholining turli qiynchiliklari davrida jamiyat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Ijtimoiy ta'minotning rehabilitatsion funktsiyasi turli hil ijtimoiy xavf-xatarlarning yuzaga kelganida, yashash darajasi shart-sharoitlarini ta'minlab berish maqsadida turli hil moddiy ta'minot berish, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish orqali fuqaroning ijtimoiy obru-e'tiborini saqlab qolishga qaratilgan. Ijtimoiy ta'minotning demografik funktsiyasi mamlakat aholisining o'sishiga, sog'lom avlodning shakllanishiga, fuqarolar hayot davomiyligi darajasini o'sishiga va boshqalarga imkon beradi.



1.2-rasm. Tegishlilik darajasi bo'yicha ijtimoiy ta'minot tizimi<sup>7</sup>

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'i nazar – o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollarini og'irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta'minot deyilganda quyidagilar anglanadi:

–fuqarolarga qarilikda mehnat faoliyati, mehnat qobiliyati va boquvchisini yo'qotganligi uchun ko'zda tutilgan moddiy ta'minotdan tashqari ularning normal turmush va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shakli;

<sup>7</sup> Social law dictionary chapter asosida ishlab chiqilgan

–fuqarolarni yoshi, kasallanishi, nogironligi, ishsizligi, boquvchisini yo'qotganligi, bolalarni tarbiya qilish uchun hamda qonunda belgilab qo'yilgan boshqa holatlar bo'yicha moddiy ta'minlash tizimi;

–bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan daromadlari yo'qotilishi yoki kamayishi vaziyatlari paydo bo'lganda fuqarolarga maxsus fondlar, byudjet mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish, pensiya, nafaqalar va moddiy ta'minlashning boshqa shakllari asosida tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Qonunchilik ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turini nazarda tutadi:

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- ijtimoiy ta'minot kompensatsiyasi;
- imtiyozlar;
- ijtimoiy va tibbiy xizmatlar;
- hayotiy zarur ashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning xar biri, odatda yana qator turlarga bo'linadi. Bunda ijtimoiy ta'minot turlari barqaror xususiyatga ega bo'lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Ushbu ijtimoiy himoya ko'rsatish shaklida avvaldan ma'lum to'lovlar bajarilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati (muhtojligi) e'tiborga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari – bu umumiy va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mablag'lardir.

Aholining ijtimoiy ta'minoti tizimidagi eng muhim unsur – ijtimoiy sug'urtadir. Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, byudjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab quvvatlash tizimidir.<sup>8</sup>

**Ijtimoiy sug'urta** – pul nafaqalari tizimi bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik nafaqasi;
- mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;
- homiladorlik va tug'ish nafaqasi;
- qarilik bo'yicha, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha pensiya.

Ijtimoiy sug'urtaning quyidagi turlari farqlanadi:

*1.Majburiy ijtimoiy sug'urta.* Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur tizimning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, xodimlarning sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash tizimlari bundan istisno, ular faqat xodimlarning badallari hisobidan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimlari doirasidagi pensiya va nafaqa pullari fuqaroning sug'urta huquqiga ko'ra, shuningdek uning va ish beruvchining ushbu tizimlarning moliyalashtirilishidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda beriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning muhim jihati – mahrum bo'lgan ish haqini o'rnini qoplash omilidir. Unga ko'ra, pensiya va va nafaqa miqdorlari avvalgi ish haqi va badallar miqdori bilan bog'liq bo'lib, ma'lum sug'urta davri mavjudligi har qanday muhtojlik tekshiruvlarsiz belgilanadi.

---

<sup>8</sup> Nancy J. Altman, *The Battle for Social Security: From FDR's Vision to Bush's Gamble* (Wiley,2005) p 35.

Majburiy sug'urta to'lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog'liq va ular xodim bilan ish beruvchi o'rtasida, davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadi.

2. *Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta.* Sug'urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta tizimi xususiy tushga ega bo'ladi, biroq ular maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunda sug'urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi. Jumladan, bir korxonada ishlashning eng kam muddati belgilanadi, ushbu muddat tugagach, xodimda qo'shimcha ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish huquqi paydo bo'ladi. Masalan, pensiya ta'minoti, sug'urtalanuvchi o'z ish joyini o'zgartirgan holda sug'urta bo'yicha qo'lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu instituti tashkiliy-huquqiy shakllari alohida korxonalarining pensiya tizimlari hisoblanadi. Buning uchun pensiya huquqlarini amalga oshirishni kafolatlash maqsadida zahira pensiya jamg'armasi tuziladi. Korxonada yoki mustaqil pensiya kassasi mablag' ajrata olmagan holda jamhurma to'lov majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Hozirgi davrda nodavlat pensiya jamg'armalari rivojlanib bormoqda. Ular o'zining huquqiy maqomiga ko'ra ijtimoiy ta'minotning notijirat tashkiloti bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urta tizimiga ixtiyoriy qo'shimcha shakl sifatida faoliyat olib boradi.

3. *Fuqarolarning xususiy sug'urtasi.* Sug'urtaning bu turi shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, uning doiralari, amal qilishi muddatlari, jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, tavakkalchilik turlari bilan cheklangan bo'ladi. Ushbu sug'urta shakli uchun fuqarolarning o'zlari mas'ulligi xosdir. Davlat ijtimoiy yordami – mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam pullari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati – bu aholining kam ta'minlangan guruhlariga (bolalikdan nogiron, boshqa nogiron bo'lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur sug'urta maqomiga ega bo'lmagan fuqarolarga) davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko'rsatishidir.

Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishi uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtirokiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu tizimning ijtimoiy yordam pullari muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga tirikchilik o'tkazishning eng kam darajasini ta'minlash maqsadida beriladi. Bunga shaxsda tirikchilik o'tkazishning eng kam darajasi hajmida mablag'ning mavjud emasligi asos bo'ladi.

Ijtimoiy himoya tizimida nafaqa va yordam puli miqdori oila a'zolarining daromadlarini hisobga olgan holda belgilanib, bu ularning umumiy daromad hajmi o'rnatilgan tirikchilik ko'rishning eng kam miqdoriga etishi uchun tayinlanadi. Ijtimoiy himoya ushbu institutining moliyaviy manbai hududiy va munitsipal byudjetlar hisoblanadi. Bu mablag'lar umumiy soliq tizimi va maxsus maqsadda yig'iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

Moliyaviy muammolar ijtimoiy yordam ko'rsatishning manzilligi (tanlanishi) printsipining keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Moliyaviy resurslar etarli bo'lmagan, ehtiyojlar ortadigan inqiroz davrlarida eng muhtoj fuqarolarga nafaqalarni aniq maqsadli taqdim etish zarurati paydo bo'ladi. Hozirgi davrda nafaqalarning manzilliligi printsipi ko'pgina mamlakatlarda joriy etilgan. Bunda ana shu nafaqalarning miqdori daromadlar yoki ta'minlanganlik umumiy darajasiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish, xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi ijtimoiy himoya tizimining to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Mehnatga layoqatli bo'lmaganligi, ish joyi, daromad manbalari mavjud emasligi sababli o'z-o'zini mustaqil ravishda moddiy jihatdan ta'minlashga qodir bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish.

2. Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti. Bu iqtisodiy faol aholining ish joyini yo'qotish yoki pensiya yoshiga etishi bilan daromaddan mahrum bo'lish havfidan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi.

3. Ihtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) sug'urtalash. Bu alohida tarmoqlar va korxonalar doirasida uzoq muddatli jamoa bitimlari asosida amalga oshiriladi.

4. Fuqarolarning ihtiyoriy ravishda o'z-o'zini shaxsiy sug'urtalashi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'ektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

–pensionerlar. Aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno) etgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar. Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisini qaramog'idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan ajragan bolalar (14 yoshgacha bo'lgan bolalar) parvarishi bilan mashg'ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi; ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oilalari a'zolari ham aholining pensiya ta'minoti huquqiga ega toifasiga kiradi. Shu bilan birga aholining bu toifasiga korxonalar, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga keksalik bo'yicha pensiya 50,0 % miqdorida to'lanadi;

–nogironlar. Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muxtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muxtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo'yicha aniqlanadi;

Organizm funktsiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogiron bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muxtoj 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

–kam ta'minlangan oilalar. Ular daromadlari tirikchilik eng kam miqdoridan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi.

–ishsizlar. Aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishlari talab qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand sub'ektlariga, shuningdek quyidagilar ham kiradi:

–homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;

–kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;

–o'quvchi yoshlar;

–mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish qabul qilingan:

–xodimlarni ish beruvchilar tomonidan muhofaza qilish;

–oilaviy himoya va o'zini o'zi himoya qilish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, boshqa institutlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yadi.



## 2-MAVZU: IJTIMOYIY SUG'URTA TUSHUNCHASI, UNING MAZMUN-MOHIIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

### REJA:

1. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zarurligi
2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urtaning davlat pensiya ta'minotining moddiy-moliyaviy asosini shakllantirishdagi ahamiyati

**Tayanch so'z va iboralar:** *sug'urta, sug'urta tizimi, sug'urtalanuvchi, , majburiy ijtimoiy sug'urta, ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta, fuqarolarning xususiy sug'urtasi,*

### 1. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va zarurligi

**Ijtimoiy sug'urta** aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash hisoblanada, ya'ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi.<sup>9</sup> Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus nobyudjet fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tengsizlik qoidasi asosida tuzilgan: sug'urta to'lovi mehnat ulushi hamda sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim xarakteri hamda ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o'z xos xususiyatini belgilab beradi. Bu fondlar o'zini o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Ijtimoiy sug'urta tizimini moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug'urta fondlari 3ta manba hisobidan yuzaga keladi: ishchilarning sug'urta badali, ish beruvchining badallari hamda davlat subsidiyalari.

Majburiy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, daromadidan qat'iy nazar ijtimoiy sug'urta kafolatlarini ma'lum miqdorini olinni ta'minlashga qaratilgan (pensiya, nafaqa va xizmat).

Majburiy ijtimoiy sug'urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari ish qobiliyatini yo'qotganda, onalik va bolalikni muhafaza qilishda moddiy ta'minlovchi davlat kafolat tizimi sifatida qaraladi.<sup>10</sup> Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'alri korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqqiri yakka tadbirkorlarning badallari hamda davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiradi.

Insoniyat va tabiatning ajralmas birlik ekanligi bilan bir qatorda, ular o'rtasida shunday qarama-qarshilik mavjudki, u inson bilan tabiat o'rtasidagi tinimsiz kurashlarda namoyon bo'ladi. Favquloddalik va xavf-xatar-insoniyat mavjudligining me'yori xisoblanadi. Har yili erda juda ko'p tabiat xodisalar kuzatiladi: 100 ming atrofida bo'ronli xodisalar, 10 mingta suv toshqini, minglab zilzila, o'pirilish va tropik tsiklonlar. Bu hodisalar bilan bog'liq avariya va xalokatlar anchagina moddiy zarar etkazadi.

Agar dastlabki sug'urta moddiy ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, XIX asrning oxiriga kelib ijtimoiy risklarni boshqarishda davlat tamoyilining tarkibi qismiga aylanadi. Ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalardan davlat majburiy sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning birinchi ommilashgan turiga aylanadi (Rossiyada 1907 yilda). Asta-sekin davlat ijtimoiy sug'urta tizimida pensiya va tibbiy sug'urta shuningdek, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatida ijtimoiy sug'urtalash paydo bo'la boshladi. Sug'urtaning bu turlariga davlat aralashuvi hamda davlat boshqaruvi turli mamlakatlarda turlicha bo'lishiga qaramasdan jamiyatning ijtimoiy risklarini

<sup>9</sup> Merriam-Webster OnLine Dictionary

<sup>10</sup> References to statistical manuals will identify the manual and state the chapter paragraph numbers, such as SNA 8.55. "An" will be used to refer to annexes. For GFSM, "An2" is the annex to chapter 2. For the SNA, "An4" will refer to Annex IV.

sug'urta yordamisiz boshqaruvchi iqtisodiy rivojlangan davlatni tasavvur qilish qiyin. Evropa davlatining so'nggi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatishga XX asr boshida ijtimoiy sug'urtaning davlat tizimi ustunlik qilgan bo'lsa zamonaviy iqtisodiy ijtimoiy risklarni sug'urtalashning xususiy tizimini rivojlantirishga mo'ljallanmoqda. Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Ispaniya va boshqa davlatlarda o'tkaziladigan davlat pensiya va tibbiy sug'urta islohatlari ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida xususiy sug'urtaning rolini kuchaytirishni taqazo qiladi.<sup>11</sup>


Rivojlangan davlatlarda xususiy sug'urta tarmog'i aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi, faqatgina AQShda sug'urtada band bo'lganlar soni sug'urta vositachilari bilan hisoblanganda 2,2 mln.dan ortiqroq kishini tashkil etadi, evropa davlatlarida esa ya'ni Frantsiyada-220 ming, Germaniyada 250 ming Buyuk Britaniyada 350 ming shundan iborat. Dunyo miqyosida jami sug'urtada band bo'lgan soni 3,5mln kishini tashkil etadi.

Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug'urtaning o'rni va roli sezilarli oshib boradi, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug'urtalaganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiya, nafaqalar xajmining hamda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining o'sishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtai-nazardan qaraganda, ijtimoiy sug'urta fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishga konstitutsion huquqi borligini ko'rsatadi. To'lanadigan mablag' miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarini yaratadi, shu bilan birga, ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning yordami bilan jamiyat quyidagi vazifalarni bajaradi (2.1.-rasm):



**2.1-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning vazifalari**

<sup>11</sup> Michael McLindon, John Chapman, Gary Powell, Thomas Tiftt, Mostafa Mazhar, Khalifa Abdel Hamid, Noha Bakr. Enhancing Egypt's Social Insurance System, 1999 September, r 45

Ijtimoiy sug'urta ikki yo'nalishdagi chora-tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratilgan:

*birinchisi* - ishchilarni sog'lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o'tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uning saqlanishini ta'minlash;

*ikkinchisi* - mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash.

Ijtimoiy sug'urta tizimining moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug'urta fondlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- ishchilarning sug'urta badallari;
- ish beruvchilarning badallari;
- davlat subsidiyalari.

Ishlovchilarning sug'urta badallari ularning daromadidan olib qolinadi. Mohiyati jihatidan bu to'lovlar aniq maqsadli soliq hisoblanadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va ko'p holda daromadning katta-kichikligiga bog'liq bo'lmaydi.

Davlat subsidiyalari ishlamaydigan fuqarolar, harbiy xizmatchilar va davlat xizmatchilari uchun majburiy ijtimoiy sug'urta fondlariga dotatsiyalarni, ijtimoiy fondlar taqchilligini qoblashga xizmat qiluvchi dotatsiyalarni hamda soliq imtiyozlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy sug'urtaning har xil turlarida sug'urta himoyasi ob'ekti – mehnat bilan band aholi uchun ish xaqini yo'qotish riski hamda davolanish bilan bog'liq qo'shimcha chiqimlar qilish riskidir.

Yollanma mehnat va o'zicha band aholi o'rtasida moddiy etishmovchiliklarning paydo bo'lishi sabablariga ko'ra bir-biriga o'xshash bo'lgan turlari, sub'ektiv tarkibi va ijtimoiy munosabatlar doirasi universal ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kategoriya bo'lgan "ijtimoiy risk" tushunchasida jamlanma ifodasini topadi. Uning sug'urtaga oid mohiyatini, bizningcha, quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy risk ob'ektiv bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarga ko'ra ish haqini yo'qotish natijasida vujudga keladigan moddiy ta'minlanmaganlikning boshlanishi, shuningdek davolanishga va ijtimoiy xizmatlar to'lovlariga qo'shimcha xarajatlar zaruriyatining yuzaga kelishi ehtimolidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning katta miqyoslari va mehnatga qobiliyatli aholining ommaviy jalb etilganini hisobga oladigan bo'lsak, ijtimoiy risklarni riskli vaziyatlarning yuzaga kelishi (kasallar, nogironlar, halok bo'lganlar, pensionerlar) ehtimollari jihatidan ham, ularning qiymat parametrlari (kasallik davomiyligi, nogironlikka uchrashning o'rtacha yoshi, qonun bilan belgilangan pensiyaga chiqish yoshi) jihatidan ham miqdoriy baholash va bashoratlash imkoniyatlari ham yo'q emas. Bu holda ijtimoiy sug'urtada hisobga olinadigan risklarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: a) daromadni yo'qotish riski; b) qo'shimcha chiqimlarning zarurligi riski; v) ijtimoiy maqomni yo'qotish riski.

Riskni o'rganishda uning miqdoriy va sifat tavsiflari muhimdir. Faqat shu holdagina sug'urta to'g'risida gap bo'lishi mumkin. Uning asosiy belgilariga esa quyidagilarni kiritish mumkin: a) sug'urta hodisasi yuz berishining tasodifiy, bexoslik xarakteri; b) etkazilgan zararining favquloddaligi; c) riskni oldindan aniqlash va hisobga olish zarurligi; d) individual risk uchun jamoaviy moddiy javobgarlik va hamjihat mas'uliyat.

Ijtimoiy sug'urtani ko'rib chiqishda barcha mualliflar ijtimoiy riskning borligi va uni bartaraf etish uchun muayyan chora-tadbirlarni ishlab chiqishning zarurligi masalasida bir fikrda. Ayni paytda ularning ayrimlari uni majburiy ijtimoiy sug'urtaning har xil turlari tarzida talqin ham qiladilar. Boshqa bir mualliflar esa ijtimoiy sug'urtaga majburiy va ixtiyoriy ijtimoiy sug'urtaning barcha turlari va shakllarini kiritadilar. Shunday qilib, ijtimoiy sug'urtaning hozirgi davrdagi zamonaviy shakllariga majburiy, ixtiyoriy va korporativ sug'urta kiradi.


Majburiy sug'urtaning ixtiyoriy sug'urtadan asosiy farqi shundaki, majburiy sug'urtada to'lovlar birgina badallarga bog'liq emas. Ixtiyoriy sug'urtada esa sug'urta kompaniyasining majburiyatlari sug'urtalanuvchining badallariga aniq mos keladi. Bundan tashqari, majburiy sug'urtada sug'urtalanuvchi sug'urtani to'xtatish huquqiga ega emas, ixtiyoriy sug'urtada esa badallarni to'lash to'xtashi bilan sug'urta ham to'xtaydi.

Sug'urtaning korporativ tizimlari xodimlarni ijtimoiy himoya qilish tizimlari bo'lib, ish beruvchi tomonidan o'z daromadlari hisobiga tashkil etiladi va xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoya shakli bo'lib, ijtimoiy risklar yuz bergan hollarda tirikchilik darajasi va sifatining zaruriy standartlarini, shuningdek xodimlar oilalarining ijtimoiy maqomini saqlash imkoniyatlarini yaratadi.

Shunday qilib, ijtimoiy risklar shikastlanish, mehnat qobiliyatini yo'qotish, ishsizlik natijasida kishilarning me'yoriy ijtimoiy mavqeining barqarorligini buzuvchi omillardir. Bu omillar ta'sirida ish xaqini yo'qotish, davolanish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar qilish, oilalar uchun esa boquvchisini yo'qotishi natijasida moddiy ta'minlanmaslik yuzaga keladi. Ijtimoiy risklarni ayrim ijtimoiy guruhlar va mehnatkashlar qatlamlari uchun xavflilik darajasiga ko'ra tasniflash mumkin. Agar xavflilik darajasi past bo'lsa, yuqorida ta'kidlanganidek, uning tashkiliy-huquqiy shakli ixtiyoriy asoslarga ega bo'ladi. Aksincha, yuqori bo'lsa, qoida tarzida, majburiy xarakter oladi. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta o'rtasida yana bir qator o'tkinchi shakllar ham mavjud bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy risklarning turlariga qarab, sug'urtani quyidagi turlarga ajratish mumkin (2.2. - rasm):



2.2 –rasm. Ijtimoiy sug'urtaning turlari<sup>12</sup>

Ijtimoiy risklarning aniq bir turidan himoya qilishni ijtimoiy sug'urtaning alohida turlari (sektorlari) doirasida samarali tashkil etish mumkin. Ular quyidagilarga bo'linadi:

- pensiya sug'urtasi (qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik sug'urtalari);
- tibbiy sug'urta (unga vaqtinchalik mehnatga yaroqsizlik uchun xaq to'lash ham kiradi);
- ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalardan sug'urtalash (ishlab chiqarishda shikastlanish, kasb kasalliklari, ishlab chiqarishda halok bo'lganlar qaramog'idagilarga nafaqalar);
- ishsizlik bilan bog'liq sug'urta (ishsizlik bo'yicha nafaqa, qayta o'qitish va ishga joylashtirishlarga doir sug'urtalar).

Ijtimoiy sug'urta turlarini bu tartibda guruhlashtirish sug'urtalanadigan ijtimoiy risklarning turlicha tabiatga egaligi, risk sodir bo'lganda oqibatlaridagi o'xshashliklar, shuningdek ularni huquqiy tartibga solishning xususiyatlari bilan izohlanadi.

Umumiy risklar majmuidan muhim ijtimoiy risklarni ajratib olishning ijtimoiy me'zonlari ob'ektiv xarakterga ega. Shu sababli ijtimoiy risklar doirasini ixtiyoriy kengaytirish yoki

<sup>12</sup> www.insurance.ru

toraytirish mumkin emas va bu risklardan himoya qilish ijtimoiy ustuvor vazifalar qatorida turadi. Bu ijtimoiy-huquqiy me'zonlarga ko'ra risklar sug'urta hodisasi qay tarzda ro'y berganiga qarab guruhlariga ajratiladi. Masalan, kasallik, nogironlik yoki o'lim ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida yuz berganmi yoki ular boshqa ijtimoiy (texnogen avariya), shaxsiy (uyda shikastlanish, shaxsiy ishi bilan yurganda transport avariya) qolish) xarakteridagi sabablar bilan bog'liqmi? Bunday xodisalarning har biri risk tabiati bilan va shunga muvofiq sug'urta sharoitlari va turlari bilan bog'liq.

## **2.O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urtaning davlat pensiya ta'minotining moddiy-moliyaviy asosini shakllantirishdagi ahamiyati**

Ijtimoiy sug'urta to'lovlari, badallari va ajratmalari pensiya ta'minotining moddiy asosini tashkil qiladi. Insoniyat tarixida keksalik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy himoyalashning turli vositalari qo'llanib kelingan. Masalan, Qadimgi Rimda, Yuliy Tsezar tomonidan harbiy pensiyalar joriy etilgan. Xususiy sektorda band bo'lganlarning yoshiga ko'ra davlat tomonidan tashkil etilgan birinchi pensiya tizimi 1889 yilda Germaniyada amalga kiritilgan. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy sug'urta majburiy bo'lib, badallar kiritishga asoslangan. Bu tizimda pensiya olish huquqi ilgari to'langan badallarga asoslanar edi. Daniyada 1891 yilda va Yangi Zelandiyada 1898 yilda kambag'allarga maqsadli yordam ko'rsatishi lozim bo'lgan pensiya tizimi joriy etilgan. U umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirilgan, muhtojlik darajasini baholashni nazarda tutar va to'lovlarning minimal darajasini kafolatlar edi.

Shimoliy Amerikada qarilik bo'yicha davlat pensiya tizimi nisbatan kech vujudga keldi. Amerika Qo'shma Shtatlarida muhtojlik mezoniga asoslangan pensiya tizimlari XX asrning 20-yillarida joriy etila boshlandi. 1935 yil AQShda pensiya sug'urtasi federal tizimi joriy etildi.

O'rta asrlardagi O'zbekiston tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy ta'minot faqat xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilganligi ayon bo'ladi. O'zbek xalqining mentaliteti, ahloq-odobi, urf-odatlar hamda qadimiy an'analari fuqarolarning imkoniyat darajasida, ijtimoiy himoyaga olinishini bildiradi.

Turkiston o'lkasi XIX asrning 60-yillaridan boshlab, Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgan va tegishli ravishda boshqarilgan. Mahalliy aholining ijtimoiy ta'minoti masalasi haqida hech qanday farmonlar qabul qilinmagan. Chor hokimiyati davrida 1882-1909 yillarda Sirdaryo viloyati bo'yicha 14 kishiga, Farg'ona viloyati bo'yicha 9 kishiga, Samarqand viloyati bo'yicha 2 kishiga pensiya tayinlangan bo'lib, bular ham xonning qarindoshlari, yuzboshi va imperatorning homiylari edi.

Sobiq Ittifoq davrida pensiya ta'minoti bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. 1918 yil 31 oktyabrda "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan. "Davlat pensiyalari to'g'risida"gi birinchi Qonun 1956 yilda qabul qilingan. Bu Qonunga asosan pensiyalarning barcha turlari yagona qonunga asoslanib tayinlangan. 1964 yilda "Kolxoz a'zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan kolxozchilarning markazlashtirilgan ijtimoiy sug'urta fondi tashkil qilingan va kolxoz a'zolari shu fond hisobidan pensiya bilan ta'minlana boshlangan. 1989 yil 1 avgustda "Aholining pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmatning kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va shu davrdan boshlab shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutga barham berilib, ishchi-xizmatchi va kolxozchilarga bir xilda pensiyalar tayinlana boshlandi.

Mamlakat iqtisodiyotiga bozor munosabatlarining joriy etilishi pensiya ta'minotini qayta ko'rib chiqishni va isloh qilishni taqozo qildi. Shuning uchun 1991 yildan fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risidagi Qonun kuchga kiritildi. Qonun asosida islohotlar boshlanib, davlat ijtimoiy sug'urtasi, ijtimoiy pensiyalar, daromadlar indeksatsiyasi kabi yangi mexanizmlar amal qila boshladi. Bu Qonun mustaqil respublikamizning tegishli Qonuni – "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, kuchga kirgunga qadar amalda bo'ldi.

Umuman olganda, fuqarolarning pensiya ta'minoti xususida ikki mustaqil yondoshuv mavjud. Birinchi yondoshuv har bir jamiyat a'zosining ishsizlik, qarilik, kasalmandlik, nogironlikni jamoaviy sug'urtalashga asoslanadi. Taqsimlanuvchi deb ham ataladigan bu pensiya tizimining muhim afzalligi shundaki, to'lanayotgan pensiya miqdori moliya bozorlarining holatiga va pensiya fondlari rahbarlarining faoliyatiga bog'liq emas. Shunday usulda moliyalashtiriladigan pensiyalar yuqori ish haqiga ega bo'lmagan shaxslar uchun ham ishonchli himoyani ta'minlaydi.

Bunday pensiya tizimida pensiya fondlari miqdori demografik omillarga va mehnat bozorining holati (bandlik, ishsizlik, ish haqi darajasi, pensiya badali to'lovchilar soni bilan pensiya oluvchilar soni o'rtasidagi nisbat)ga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Taqsimlanuvchi pensiya tizimida ma'lum yil davomida to'plangan ijtimoiy soliq ajratmalari joriy davrdagi pensionerlarga pensiyalar to'lash uchun sarflanadi. Shunday qilib, ishlab turgan odamlarning ijtimoiy soliq to'lovlari hisobidan keksalarning pensiya ta'minoti moliyalashtiriladi.

Pensiya ta'minoti xususidagi ikkinchi yondoshuvda har bir inson o'z hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bu esa, davlat pensiya tizimini fuqarolarning ish haqi va investitsion daromadlari hisobidan pensiya badallari to'lashga asoslangan nodavlat tuzilmalari bilan almashtirishni ko'zda tutadi. "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi" deb nomlanadigan ushbu pensiya tizimi har bir ishtirokchida alohida hisobraqam bo'lishini taqozo etadi va ushbu hisobraqamga har bir konkret odamdan pensiya ajratmasi kelib tushadi va ular hisobidan kelgusida pensiya to'lovlari amalga oshiriladi. Bunda turli avlod vakillari o'rtasida subsidiyalash mavjud bo'lmaydi, butun pensiya tizimi daromadlarning bir qismini to'plash va qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi. Bu tizimning quyidagi afzalliklarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- jamg'ariladigan asosga o'tgan pensiya tizimi yalpi milliy jamg'arish hajmini oshiradi va investitsiyalar miqdorining o'sishiga olib keladi;
- xususiy boshqaruv ostidagi pensiya tizimi raqobat va siyosiy aralashuvdan holi bo'lganligi tufayli davlat pensiya tizimiga nisbatan samaraliroq bo'ladi;
- jamg'ariladigan pensiya tizimi demografik muammolarga bog'liq bo'lmaydi;
- jamg'ariladigan pensiya tizimi pensiyalar miqdorini insonning ish haqiga va pensiya jamg'armalaridan foydalanish samradorligiga bog'liq ravishda tabaqalashtiradi.

Qayd etilgan ijobiy jihatlardan tashqari, jamg'ariladigan pensiya tizimi qator muammolarga ham ega. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

- aholi pensiya tizimlarining xususiyati, moliyaviy instrumentlari to'g'risida etarli bilimga ega bo'lishi talab etiladi;
- jamg'ariladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab va aniq tartibga solinishi lozim;
- jamg'ariladigan pensiya tizimida muvaffaqiyatsiz investitsion qarorlar qabul qilinishi yoki aktivlarni boshqarish xarajatlarining oshishi natijasida jamg'armalar miqdori kamayishi mumkin.

Jamg'ariladigan pensiya tizimida ko'p sonli moliyaviy xatarlar mavjud. Tizim ishtirokchilari uning muvaffaqiyatsizligi uchun to'liq javobgarlikni zimmalariga olishlarining mexanizmi bo'lishi lozim. Davlat faqatgina ularga minimal pensiya miqdorini ta'minlashlari mumkin.

Jamg'ariladigan pensiya tizimining samaradorligi ko'p jihatdan umumiy iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Iqtisodiy kon'yunkturaning yomonlashishi natijasida jamg'armalarning daromadliligi keskin pasayishi mumkin. Doimo jamg'armalarni yo'qotish va ular investitsion daromadliligining pasayish xavfini inkor etib bo'lmaydi.

Demak, taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarining har biri ham kamchiliklarga va afzalliklarga ega. Pensiya siyosati faqat bir pensiya tizimiga asoslanib qolmasligi kerak. Shu sababli ham O'zbekistondagi pensiya tizimidagi islohotlar sharoitida har ikkala tizimdan foydalanuvchi pensiya tizimi shakllantirib borilmoqda.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut - budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi iqtisodiyotning tayanch bo'g'inidir. Aholining kam ta'minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas'uliyatni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg'armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksakdir.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug'urta badallari;
- fuqarolarning majburiy sug'urta badallari;
- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'laydigan sug'urta badallari;
- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari va boshqa daromadlar.

Yuqorida nomi keltirilgan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarining miqdori to'lovchilarga soliq organlari tomonidan etkaziladi va Pensiya fondiga to'lanadigan majburiy to'lovlar soliqlar va yig'imlarga tenglashtiriladi. Ish haqi fondidan ajratmalar va sug'urta badallari bo'yicha hisobotlar har chorakda soliq inspeksiyasiga topshiriladi.

Quyida keltirilgan jadvalda keyingi yillarda ish beruvchilarning mehnat haqi fondiga nisbatan hisoblanadigan va to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning ijtimoiy jamg'armalar o'rtasida taqsimlanish foizlari ko'rsatilgan (2.1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslarning ish haqi fondidan Pensiya jamg'armasiga tushadigan mablag'lar uchun belgilangan stavka 2007-2008 yillarda 23,5 foizni tashkil etdi, 2009 yilda 23,6 foiz, 2010-2015 yillarda esa 24,8 foiz qilib belgilandi. 2015 yilda kichik biznes vakillari – mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ular uchun yagona ijtimoiy to'lovning miqdori ish haqi fondiga nisbatan 15 foiz qilib belgilandi<sup>13</sup>.

## 2.1-jadval

### 2006-2017 yillarda yuridik shaxslarning ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lov miqdori va uning taqsimlanishi<sup>14</sup>

(foizlarda)

	2006	2007	2008	2009	2010-2017	2015 (mikrofirmalar, kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari)
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	25,0	24,0	24,0	24,0	25,0	15,0
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	24,2	23,5	23,5	23,6	24,8	14,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	0,5	0,3	0,3	0,2	0,1	0,1
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	0,3	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1

Ushbu jadval ma'lumotlari mehnat haqi fondidan to'lanadigan ijtimoiy sug'urta badallari va to'lovlarining bir vaqtning o'zida bir necha fondlarning daromad manbai bo'lib xizmat qilayotganligini asoslab turibdi.

<sup>13</sup> O'zR Prezidentining 2014 yi 4 dekabrda PQ-2270-sonli qarorining 25 ilovasi asosida. Manba: [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

<sup>14</sup> 2006-2017 yillar uchun qabul qilingan "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va byudjet parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarorlari asosida umumlashtirildi. Manba: [www.mf.uz](http://www.mf.uz), [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

#### REJA:

1. Ijtimoiy riskning iqtisodiy mohiyati, tushunchasi va uning ko'rinishlari.
2. Ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyili sifatida.

**Tayanch so'z va iboralar:** *ijtimoiy risk, ijtimoiy sug'urta, mol-mulk sug'urtasi, tibbiy sug'urta.*

#### 1. Ijtimoiy riskning iqtisodiy mohiyati, tushunchasi va uning ko'rinishlari.

Insoniyat va tabiatning ajralmas birlik ekanligi bilan bir qatorda, ular o'rtasida shunday qarama-qarshilik majudki, u inson bilan tabiat o'rtasidagi tinimsiz kurashlarda namoyon bo'ladi. Favquloddalik va xavf-xatar-insoniyat mavjudligining me'yori xisoblanadi. Har yili erda juda ko'p tabiat xodisalari kuzatiladi: 100 ming atrofida bo'ronli xodisalar, 10 mingta suv toshqini, minglab zilzila, o'pirilish va tropik tsiklonlar. Bu hodisalar bilan bog'liq avariya va xalokatlar anchagina moddiy zarar etkazadi.

G'arb davlatlari iqtisodiy nazariyasida aytilishicha sug'urta ishtirokchisiz iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari zamonaviy taraqqiyot darajasiga etmagan bo'lash edi. Xususan, xususiy qurilishlar ko'pincha bank kreditlarini olishga majbur bo'ladi. Mol-mulk sug'urtasi hamda qarzdorlarning hayotini sug'urtalashsiz kredit olish imkoni bo'lmas edi. Bunday sug'urtalash bankka yuqorida ko'rsatilgan xavf-xatar kuzatilgan holatda ham kredit qaytarilishini kafolatlaydi. Masalan yong'indan sug'urtalashni olib qaraydigan bo'lsak bu, sug'urta to'lovsiz katta qiymatga ega bo'lgan ob'ektlarning to'xtovsiz ishlab chiqish jarayonini ta'minlash mumkin bo'lmas edi. Sug'urtaga bo'lgan talabni shakllantiruvchi mulkiy munosabatlar, albatta sug'urtaga, risklarniboshqarishning mug'im metodi sifatida qiziqish uyg'otadi. Ko'pincha sug'urta bozorining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun uning YaIM hajmidagi hissasidan foydalaniladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yaponiya, Shveysariya) taxminan 8-10% ni, Rossiyada esa -3% ni tashkil etadi. Chet el iqtisodchilarining fikriga ko'ra mamlakat iqtisodiyoti qanchalik rivojlangan bo'lsa shuncha ko'p mablag'lar sug'urtaga sarflanadi.

Ижтимоий риск дейилганда эҳтимоли бўлган, жамиятга ҳамда унинг алоҳида фуқароларига таъсир кўрсатадиган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар тушунилади. Ижтимоий рисклар доирасига қуйидагилар киритилади:

- вақтинчалик ёки доимий меҳнат қобилятини, иш ўрнини, боқувчисини йўқотганлиги сабабли даромадларни (ёлланма ходимлар учун иш ҳақини) йўқотиш рисклари;

- умумий ва касб касалликлари, маиший, транспорт, ишлаб чиқаришда шикастланиши оқибатида соғлиқни йўқотиш рисклари.

Ижтимоий рискларни айрим ижтимоий гуруҳлар ва меҳнаткашлар қатламлари учун хавфлилиги даражаси бўйича ҳам таснифлаш мумкин. Агар хавфсизлик даражаси паст бўлса, ижтимоий ҳимоянинг ташкилий-ҳуқуқий шакли ихтиёрий ёки шахсий характерга эга бўлади, мабодо бу хавфлилик юқори бўлса – мажбурий бўлади.

Ижтимоий рискларнинг ҳар бир тури ўз табиатига эга ва фуқароларнинг турли тоифаларига турлича таъсир кўрсатади. Шу сабабли ҳимоя шакли, демак ижтимоий суғуртани ташкил этиш унинг турлари бўйича фарқ қилади, ўз хусусиятларига, белгиларига эга бўлади. Ижтимоий рискларнинг ўзига хос хусусиятларига уларни кенг миқёсларда юзага келишини ва оқибатларининг ҳар бир шахс ва умуман жамият учун ниҳоятда муҳим аҳамият касб этишини киритиш мумкин. Масалан, ишсизлик, касалликлар, жиноятларнинг ўсишига, оилавий муносабатларнинг ёмонлашувига олиб



келади. Ҳар қандай суғурта турининг моҳияти моддий йўқотишлар рискин камайтириш ва унинг зарарини қоплашдан иборат. Бунинг учун рискнинг салбий оқибатларини вақт бўйича ва муайян рискка учраган субъектлар ўртасида таксимлаш йўли танланади.

Ижтимоий суғуртанинг ҳар хил турларида суғурта ҳимояси объекти – меҳнат билан банд аҳоли учун иш ҳақини йўқотиш рисқи ҳамда даволаниш билан боғлиқ қўшимча чиқимлар қилиш рискидир.

Ёлланма меҳнат ва ўзича банд аҳоли ўртасида моддий етишмовчиликларнинг пайдо бўлиши сабабларига кўра бир-бирига ўхшаш бўлган турлари, субъектив таркиби ва ижтимоий муносабатлар доираси универсал ижтимоий-иқтисодий ва ҳуқуқий категория бўлган “ижтимоий риск” тушунчасида жамланма ифодасини топади. Унинг суғуртага оид моҳиятини, бизнингча, қуйидагича таърифлаш мумкин: ижтимоий риск объектив бўлган ижтимоий аҳамиятга молик сабабларга кўра иш ҳақини йўқотиш натижасида вужудга келадиган моддий таъминланмаганликнинг бошланиши, шунингдек даволанишга ва ижтимоий хизматлар тўловларига қўшимча харажатлар заруриятининг юзага келиши эҳтимолидир.

Ижтимоий ишлаб чиқаришнинг катта миқёслари ва меҳнатга қобилиятли аҳолининг оммавий жалб этилганини ҳисобга оладиган бўлсак, ижтимоий рискларни рискли вазиятларнинг юзага келиши (касаллар, ногиронлар, ҳалок бўлганлар, пенсионерлар) эҳтимоллари жиҳатидан ҳам, уларнинг қиймат параметрлари (касаллик давомийлиги, ногиронликка учрашнинг ўртача ёши, қонун билан белгиланган пенсияга чиқиш ёши) жиҳатидан ҳам миқдорий баҳолаш ва башоратлаш имкониятлари ҳам йўқ эмас. Бу ҳолда ижтимоий суғуртада ҳисобга олинадиган рискларни учта катта гуруҳга бўлиш мумкин: а) даромадни йўқотиш рисқи; б) қўшимча чиқимларнинг зарурлиги рисқи; в) ижтимоий мақомни йўқотиш рисқи.

Рискни ўрганишда унинг миқдорий ва сифат тавсифлари муҳимдир. Фақат шу ҳолдагина суғурта тўғрисида гап бўлиши мумкин. Унинг асосий белгиларига эса қуйидагиларни киритиш мумкин: а) суғурта ҳодисаси юз беришининг тасодикий, бехослик характери; б) етказилган зарарнинг фавқулоддалиги; в) рискни олдиндан аниқлаш ва ҳисобга олиш зарурлиги; г) индивидуал риск учун жамоавий моддий жавобгарлик ва ҳамжиҳат масъулият.

Ижтимоий суғуртани кўриб чиқишда барча муаллифлар ижтимоий рискнинг борлиги ва уни бартараф этиш учун муайян чора-тадбирларни ишлаб чиқишнинг зарурлиги масаласида бир фикрда. Айни пайтда уларнинг айримлари уни мажбурий ижтимоий суғуртанинг ҳар хил турлари тарзида талқин ҳам қиладилар. Бошқа бир муаллифлар эса ижтимоий суғуртага мажбурий ва ихтиёрий ижтимоий суғуртанинг барча турлари ва шакллари киритадилар. Шундай қилиб, ижтимоий суғуртанинг ҳозирги даврдаги замонавий шакллари мажбурий, ихтиёрий ва корпоратив суғурта киради.

Мажбурий суғуртанинг ихтиёрий суғуртадан асосий фарқи шундаки, мажбурий суғуртада тўловлар биргина бадалларга боғлиқ эмас. Ихтиёрий суғуртада эса суғурта компаниясининг мажбуриятлари суғурталанувчининг бадалларига аниқ мос келади. Бундан ташқари, мажбурий суғуртада суғурталанувчи суғуртани тўхтатиш ҳуқуқига эга эмас, ихтиёрий суғуртада эса бадалларни тўлаш тўхташи билан суғурта ҳам тўхтади.

Суғуртанинг корпоратив тизимлари ходимларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимлари бўлиб, иш берувчи томонидан ўз даромадлари ҳисобига ташкил этилади ва ходимларнинг ижтимоий эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилади.

Ижтимоий нуқтаи назардан ижтимоий суғурта ижтимоий ҳимоя шакли бўлиб, ижтимоий рисклар юз берган ҳолларда тирикчилик даражаси ва сифатининг зарурий стандартларини, шунингдек ходимлар оилаларининг ижтимоий мақомини сақлаш имкониятларини яратади.

Шундай қилиб, ижтимоий рисклар шикастланиш, меҳнат қобилиятини йўқотиш, ишсизлик натижасида кишиларнинг меъёрий ижтимоий мавқеининг барқарорлигини бузувчи омиллардир. Бу омиллар таъсирида иш ҳақини йўқотиш, даволаниш билан боғлиқ

қўшимча харажатлар қилиш, оилалар учун эса боқувчисини йўқотиши натижасида моддий таъминланмаслик юзага келади. Ижтимоий рискларни айрим ижтимоий гуруҳлар ва меҳнаткашлар қатламлари учун хавфлилик даражасига кўра таснифлаш мумкин. Агар хавфлилик даражаси паст бўлса, юқорида таъкидланганидек, унинг ташкилий-ҳуқуқий шакли ихтиёрий асосларга эга бўлади. Аксинча, юқори бўлса, қоида тарзида, мажбурий характер олади. Ихтиёрий ва мажбурий суғурта ўртасида яна бир қатор ўткинчи шакллар ҳам мавжуд бўлиши мумкин.

Ижтимоий рискларнинг турларига қараб, суғуртани қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

- касалликдан суғурталаш;
- ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ходисалардан суғурталаш;
- ногиронликдан суғурталаш;
- касб касалликларидан суғурталаш;
- қариликда меҳнат қобилиятини йўқотишдан суғурталаш;
- ўлимдан суғурталаш.

Ижтимоий рискларнинг аниқ бир туридан ҳимоя қилишни ижтимоий суғуртанинг алоҳида турлари (секторлари) доирасида самарали ташкил этиш мумкин. Улар қуйидагиларга бўлинади:

- пенсия суғуртаси (қарилик, ногиронлик, боқувчисини йўқотганлик суғурталари);
- тиббий суғурта (унга вақтинчалик меҳнатга яроқсизлик учун ҳақ тўлаш ҳам қиради);
- ишлаб чиқаришда юз берадиган бахтсиз ходисалардан суғурталаш (ишлаб чиқаришда шикастланиш, касб касалликлари, ишлаб чиқаришда ҳалок бўлганлар қарамоғидагиларга нафақалар);
- ишсизлик билан боғлиқ суғурта (ишсизлик бўйича нафақа, қайта ўқитиш ва ишга жойлаштиришларга доир суғурталар).

Ижтимоий суғурта турларини бу тартибда гуруҳлаштириш суғурталанадиган ижтимоий рискларнинг турлича табиатга эгаллиги, риск содир бўлганда оқибатларидаги ўхшашликлар, шунингдек уларни ҳуқуқий тартибга солишнинг хусусиятлари билан изоҳланади.

Умумий рисклар мажмуидан муҳим ижтимоий рискларни ажратиб олишнинг ижтимоий меъзонлари объектив характерга эга. Шу сабабли ижтимоий рисклар доирасини ихтиёрий кенгайтириш ёки торайтириш мумкин эмас ва бу рисклардан ҳимоя қилиш ижтимоий устувор вазифалар қаторида туради. Бу ижтимоий-ҳуқуқий меъзонларга кўра рисклар суғурта ходисаси қай тарзда рўй берганига қараб гуруҳларга ажратилади. Масалан, касаллик, ногиронлик ёки ўлим ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ходиса оқибатида юз берганми ёки улар бошқа ижтимоий (техноген авариялар), шахсий (уйда шикастланиш, шахсий иши билан юрганда транспорт авариясида қолиш) характеридаги сабаблар билан боғлиқми? Бундай ходисаларнинг ҳар бири риск табиати билан ва шунга мувофиқ суғурта шароитлари ва турлари билан боғлиқ.

## **2. Ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyili sifatida.**

Агар дастлабки sug'urta moddiy ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, XIX asrning oxiriga kelib ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyilining tarkibi qismiga aylanadi. Ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalardan davlat majburiy sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning birinchi ommilashgan turiga aylanadi (Rossiyada 1907 yilda). Asta-sekin davlat ijtimoiy sug'urta tizimida pensiya va tibbiy sug'urta shuningdek, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatida ijtimoiy sug'urtalash paydo bo'la boshladi. Sug'urtaning bu turlariga davlat aralashuvi hamda davlat boshqaruvi turli mamlakatlarda turlicha bo'lishiga qaramasdan jamiyatning ijtimoiy risklarini sug'urta yordamisiz boshqaruvchi iqtisodiy rivojlangan davlatni tasavvur qilish qiyin. Evropa davlatining so'nggi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatishga XX asr boshida ijtimoiy sug'urtaning

davlat tizimi ustunlik qilgan bo'lsa zamonaviy iqtisodiy ijtimoiy risklarni sug'urtalashning xususiy tizimini rivojlantirishga mo'ljallanmaqda. Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Ispaniya va boshqa davlatlarda o'tkaziladigan davlat pensiya va tibbiy sug'urta islohatlari ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida xususiy sug'urtaning rolini kuchaytirishni taqazo qiladi.

Sug'urta iqtisodiyotining noyob tarmog'i sifatida ishlab chiqarish hamda inson faoliyatining xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar va xo'jaliklarda ko'ngilsiz hodisalarni keltirib chiqaruvchi xavf-xatarlarni kamaytirish va oldini olish chora-tadbirlariga qanchalik kam e'tibor qaratilsa sug'urtaning narxi shunchalik yuqori bo'ladi. Chora-tadbirlar ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlar hamda ishlab chiqarishning turli tarmoqlari va xizmatlar sohasining kasbiy faoliyatiga bog'liq. Yong'inga, toshqinga qarshi chora-tadbirlar aholini ommaviy ravishda yuqumli kasalliklaridan emlash va xakazo tadbirlar iqtisodiy yo'qatishlarning ehtimolligini jiddiy ravishda kamaytirishning bu kabi usullari va ularning nazorati sug'urta tufayli vujudga keladi.

Rivojlangan davlatlarda xususiy sug'urta tarmog'i aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi, faqatgina AQShda sug'urtada band bo'lganlar soni sug'urta vositachilari bilan hisoblanganda 2,2 mln.dan ortiqroq kishini tashkil etadi, evropa davlatlarida esa ya'ni Frantsiyada-220 ming, Germaniyada 250 ming Buyuk Britaniyada 350 ming shundan iborat. Dunyo miqyosida jami sug'urtada band bo'lgan soni 3,5mln kishini tashkil etadi.

Ammo sug'urtaning keng miqyosida rivojlanishiga qaramay jamiyat sug'urtalovchining riskni sug'urtaga qabul qilish imkoniyatlarini baholay olmaydi. Risklarni sug'urtaga qabul qilish imkoniyati sug'urta kompaniyalarining kapitallaitirilishi risklarning xususiyati va ular keltiradigan salbiy oqibatlar bilan aniqlanadi.

#### 4-MAVZU: Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi

##### REJA:

1. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi
2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar berish amaliyoti tahlili
3. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashining ijtimoiy sug'urta budjetini shakllantirish va ishlatish tartibi

**Tayanch so'z va iboralar:** *nafaqa, homiladorlik va tug'ish uchun, bola tug'ilgani uchun, qo'shimcha dam olish kuni uchun, dafn etish marosimi uchun.*

#### 1. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi

Ma'lumki, davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga ijtimoiy nafaqalar beriladi. Ularni tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2002 yil 1 apreldagi 21-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"<sup>15</sup> asosida amalga oshiriladi. Mazkur Nizomda ko'zda tutilgan tartibda ijtimoiy sug'urta bo'yicha quyidagi nafaqalar beriladi:

- homiladorlik va tug'ish uchun;
- bola tug'ilgani uchun;
- qo'shimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

2007 yil 1 yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlar:

budjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg'armasiga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig'ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

*Nafaqa* tegishli davlat mablag'lari hisobidan obyektiv sabablarga ko'ra ish haqining yo'qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta'minlash maqsadlarida tayinlanadi (4.1-jadval).

---

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 31-32-son, 326-modda; 2015 y., 15-son, 189-modda)

**Fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga beriladigan ijtimoiy nafaqalarning guruhlanishi, miqdori va moliyalash manbasi<sup>16</sup>**

Nafaqa turi	Nafaqa miqdori	Manba
Yoshga doir nafaqalar	“Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda (2014 yil 15 dekabrda - 142 100 so‘m)	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Nogironlik bo‘yicha nafaqalar	“Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda (2014 yil 15 dekabrda - 231 575 so‘m)	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi	oilaning mehnatga layoqatli bo‘lmagan a‘zolari soniga ko‘ra, belgilangan nafaqaning 100, 75, 50foizi miqdorida	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi	Ish stajiga ko‘ra ish haqining 80, 60 foizi miqdorida, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda ish haqining 100, 80, 60 foizi	Budget mablag‘lari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shaxsiy mablag‘lari
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa	mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha davr uchun - ish haqining 100 foizi	Budget mablag‘lari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shaxsiy mablag‘lari
Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining ikki baravari	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa	bir kunlik ish haqi miqdorida	
Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining to‘rt barabari	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Ishsizlik bo‘yicha nafaqa	oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o‘rtacha ish haqiga foiz nisbatida (yoki eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida)	Davlat bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasining mablag‘lari
Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan nafaqa	bir yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda	xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shaxsiy mablag‘lari

*Ish haqining yo‘qotilishi bilan bog‘liq nafaqalarga* vaqtinchalik ishga layoqatsizlik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq nafaqalar, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo‘yicha to‘lanadigan nafaqalar kiradi.

<sup>16</sup> “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida umumlashtirildi

Aholining ayrim guruhlarini *ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tayinlanadigan nafaqalarga* bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa, bola parvarishi bilan band bo‘lgan oilalarga nafaqalar, dafn marosimi uchun to‘lanadigan nafaqalar va boshqa to‘lovlar kiradi.

*Yoshga doir nafaqalar.* Yoshga doir nafaqa ish stajiga ega bo‘lmagan, shuningdek, “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan 7 yildan kam ish staji mavjud bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga etganlarida; ayollarga - 60 yoshga etganlarida tayinlanadi<sup>17</sup>.

Ish stajiga ega bo‘lmagan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta‘minlashga majbur bo‘lgan boshqa shaxslar bo‘lmagan taqdirda tayinlanadi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda o‘tkazilgan tekshirishda ish stajiga ega bo‘lmagan va yoshga doir nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxsni ta‘minlashga majbur bo‘lgan qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning moddiy nochorligi aniqlangan hollarda bu nafaqa uni so‘rab murojaat qilgan shaxsga moddiy yordam bera olmaydigan qarindoshlar yoki boshqa shaxslar bor bo‘lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Yoshga doir nafaqalarni to‘lash, etkazib berish va qayta yuborish bo‘yicha xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

*Nogironlik bo‘yicha nafaqalar.* Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, yoshidan qat‘i nazar, ish stajiga ega bo‘lmagan I va II guruh nogironlariga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi<sup>18</sup>. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo‘qotilganda) Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari yo‘llanmalari bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro mehnat faoliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish mumkin emasligi (yoki zid ekanligi) belgilangan taqdirda TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganligi to‘g‘risida tegishli xulosa chiqaradi. Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqat yo‘qotilishining butun davri uchun tayinlanadi. Bu nafaqalarni to‘lash, etkazib berish va qayta yuborish bo‘yicha xarajatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

*Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi.* “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqatli bo‘lmagan a‘zolariga boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlanadi<sup>19</sup>. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi vafot etganing oila a‘zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a‘zosiga - nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a‘zosiga - nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a‘zosiga - nafaqaning 50 foizi.

Bu nafaqalar bo‘yicha xarajatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

*Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi.* Ushbu nafaqa quyidagi hollarda beriladi:

---

<sup>17</sup> Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 5-band.

<sup>18</sup> Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 9-band.

<sup>19</sup> Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 14-band.

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a‘zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a‘zo (protez) qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Umumiy qabul qilingan hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa ishlovchi xodimlarga quyidagi miqdorlarda to‘lanadi:

- umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga hamda 21 yoshga etmagan chin (sag‘ir) etimlarga - ish haqining 80 foizi miqdorida;
- umumiy ish staji 8 yilgacha bo‘lgan xodimlarga - ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqaning ish haqining 100, 80, 60 foizi miqdorida to‘lanadigan boshqa holatlari ham mavjud bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 1 apreldagi 21-son Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom bilan belgilangan. Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim. Shuningdek, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar 2007 yil 1 yanvardan boshlab:

budjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

*Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa.* Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta‘tili sifatida ayollarga tuqquniga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta‘til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to‘lash uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi hamda ushbu nafaqa ko‘rsatilgan barcha davr uchun to‘lanadi. Xodim bolani parvarishlash uchun ta‘tilda bo‘lgan vaqtda unga yana keyingi homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta‘til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta‘til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi. Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi. Ushbu nafaqa ham, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa kabi, 2007 yil 1 yanvardan boshlab: budjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida; xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

*Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa.* Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan *eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida* beriladi. Ish haqiga koeffitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida, magistratura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishli ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi. Bolaning onasi ishlaydigan va o‘qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiydigan otasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga to‘lanadi. Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda nafaqa Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar)

bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Farzandlikka olingan bolalarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi. Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi.

*Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.* Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

*Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa.* Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

- turmush o'rtog'i;
- 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- ota-onasi;
- bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan *eng kam oylik ish haqining uch baravari* miqdorida berilar edi<sup>20</sup>. Bugungi kunda pensionerlar va boshqa fuqarolar ham vafot etgan taqdirda ularning oilasiga yoki dafn marosimini o'tkazgan shaxsga *eng kam oylik ish haqining to'rt barobari* miqdorida dafn etish nafaqasi to'lanadi<sup>21</sup>. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi. Dafn etish marosimi uchun nafaqa budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi.

*Ishsizlik bo'yicha nafaqa.* Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10,0 foizga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsientlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsientni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Birinchi marta ish qidirayotganlar shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;
2. Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75,0 foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik bo'yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to'lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda;

<sup>20</sup> Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyundagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 89-bandiga ko'ra.

<sup>21</sup> "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi"gi Qonunning 63-moddasiga ko'ra.



- boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo‘lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75,0 % miqdorida.

Ishsiz deb e‘tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo‘lmaganligi tufayli unga ma‘qul keladigan ish tanlash mumkin bo‘lmasa;
- ishsiz shaxsning kasb ko‘nikmalariga mos keladigan ish yo‘qligi sababli uning kasbini o‘zgartirish zarur bo‘lsa;
- ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo‘yicha ish bajarish qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa.

Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o‘quv yurtlarida mehnat organlarining yo‘llanmalari bo‘yicha Davlat bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

*Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan nafaqa.* Nafaqaning bu turi mulkchilik shaklidan va xo‘jalik yuritish usulidan qat‘iy nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to‘lanadigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, bir yo‘la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog‘lig‘iga zarar etganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinish tufayli salomatligi yomonlashganda, ish beruvchi unga bir yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga olti yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog‘lig‘iga zarar etgan yoki vafot etgan xodim qaramog‘ida bo‘lgan fuqarolarga nafaqa to‘lash shartlari va tartibi, nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilanadi.

## 2. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar berish amaliyoti tahlili

Мисол sifatida tanlangan Xorazm viloyati Bog‘ot tumani Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limi ma‘lumotlariga ko‘ra, tumanda BTPJdan nafaqa oluvchilar soni quyidagi ma‘lumotlar bilan xarakterlanadi (4.2-jadval):

### 4.2-jadval

#### Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Xorazm viloyati Bog‘ot tumani bo‘yicha nafaqa oluvchilar tarkibi va tuzilishi<sup>22</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	2017 yil 1 yanvar holatiga		2017 yil 1 may holatiga	
		soni	ulushi	soni	ulushi
1.	Jami ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni	1276	100	1307	100
2.	Nogironlik bo‘yicha nafaqa oluvchilar	1187	93,0	1217	93,1
	I-guruh bolalikdan nogironlar	87	6,8	86	6,6
	II-guruh bolalikdan nogironlar	596	46,7	601	46,0
	16 yoshgacha bolalikdan nogironlar	495	38,8	519	39,7
	I-guruh umumiy kasallik tufayli nogironlar	1	0,08	2	0,2
	II-guruh umumiy kasallik tufayli nogironlar	8	0,6	9	0,7

<sup>22</sup> Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Bog‘ot tuman bo‘limining 2016-2015- yillar bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi qoshidagi elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish markazi tomonidan berilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hisobot ma‘lumotlari asosida umumlashtirildi.

3.	65 yoshga etgan erkaklar va 60 yoshga etgan ayollar -nafaqa oluvchilar	1	0,08	1	0,07
4.	Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi oluvchilar	88	6,9	89	6,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, BTPJ Bog'ot tuman bo'limi bo'yicha barcha nafaqa oluvchilarning 93,1-93,3 foizini I-II-guruh bolalikdan nogironlar, 16 yoshgacha bolalikdan nogironlar, I-II-guruh umumiy kasallik tufayli nogironlar tashkil qilmoqda. Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha mos ravishda 88 va 89 nafar nafaqa oluvchilar bo'lib, ular jami nafaqa oluvchilarning 6,7-6,8 foizini tashkil qiladi. Yetarli ish stajiga ega bo'lmaganligi uchun 1 nafar qariya nafaqa oladi.

Bog'ot tuman Pensiya jamg'armasi tomonidan 2017 yil 1 yanvar qadar Jamg'arma mablag'larining maqsadli ishlatilishi va 2017 yil davomida iqtisod qilinishi yuzasidan Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari tomonidan o'tkazilayotgan qayta tibbiy ko'riklar orqali nogironlikning bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi natijasida 3 ta holatda 7030 ming so'mlik mablag'larning tejalishiga erishilgan, shundan bitta holatda nogironlik guruhi bekor qilinib 2800 ming so'm, 2 ta holatda nogironlik guruhining pasaytirilishi natijasida 4300 ming so'm budget mablag'i iqtisod qilingan.


Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sug'urta hisobidan to'lanadigan nafaqalarning to'g'ri tayinlanishi va to'lanishi, nafaqalarni, ayniqsa nogironlik bo'yicha nafaqalarni qayta ko'rib chiqish va hisoblash ishlari Jamg'armaning tuman bo'limi mutaxassisleri va Tibbiy-mehnat ekspertizasi xodimlari bilan birga olib boriladi va monitoringi o'tkaziladi, Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Jamg'arma budgetidan ajratiladigan mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishi va manzilliligining oshirilishi bo'lib, bu borada tuman mutaxassislarining bilim va tajribalarini muntazam ravishda oshirib borish talab etiladi.

### **3. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashining ijtimoiy sug'urta budjetini shakllantirish va ishlatish tartibi**

Hammaga ma'lumki davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lov budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi o'rtasida belgilangan me'yorlar (foizlar)ga muvofiq taqsimlanishini ta'kidlagan edik. Mazkur paragraf O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi (KUF) Kengashining ana shu ajratmalar, badallar va to'lovlar evaziga shakllanadigan ijtimoiy sug'urta budjetini shakllantirish va ishlatish tartibini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda bu munosabatlar Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bank Boshqaruvining 2007 yil 15 maydagi 56, M-23, 2007-14, 287-V-son qarori bilan tasdiqlangan "Kasaba uyushmalari organlarining xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larni sarflash tartibi to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston KUF Kengashining ijtimoiy sug'urta budjeti quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi (4.1-rasm):

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston KUF Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;
- belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga.



**4.1-rasm. Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta budjetining shakllanish manbalari<sup>23</sup>**

Kasaba uyushmalari organlarining ijtimoiy sug'urta mablag'lari O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit va tranzit hisobvaraqlarida saqlanadi.

Bank muassasalarida depozit va tranzit hisobvaraqlarini ochish O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi Yo'riqnomaga<sup>24</sup> muvofiq amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmalari organlari Qoraqalpog'iston respublika, viloyatlar, Toshkent shahar birlashmalariga (hududiy birlashmalar) buxgalteriya hisob schyotlari rejasiga muvofiq bank muassasalarida quyidagi hisobvaraqlari ochiladi:

2012 “Nodavlat notijorat tashkilotlarining talab qilib olingungacha depozitlari” balans hisobvarag'ida ijtimoiy sug'urta bo'yicha, ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobiga olingan yo'llanmalarni sotib olishdan tushgan mablag'larni ham o'z ichiga olgan ijtimoiy sug'urta mablag'larini, ular belgilangan tartibda taqsimlanguniga qadar — 30 foizi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga, 70 foizi hududiy birlashmalarga yo'naltiriladi, hisobga olish tranzit hisobvaraqlari ochiladi;

xuddi shu 2012 balans hisobvarag'ida tasdiqlangan budjetga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun hududiy birlashmalar ixtiyoriga 70 foiz miqdordagi ijtimoiy sug'urta mablag'larini taqsimlashdan tranzit hisobvaraqlaridan kelib tushgan mablag'larni hisobga olish uchun joriy hisobvaraqlari ochiladi;

20205 (780-HShR) “Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olingungacha depozitlari” balans hisobvarag'ida yagona ijtimoiy to'lov mablag'larini belgilangan tartibda taqsimlanguniga qadar hisobga olish uchun tranzit hisob raqamlari ochiladi;

xuddi shu 20205 (780-HShR) balans hisobvarag'ida tranzit hisob raqamidan yagona ijtimoiy to'lovi mablag'larining hududiy birlashmalar ixtiyoriga kelib tushgan 70 foizi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi ixtiyoriga kelib tushgan 30 foizini hisobga olish uchun joriy hisobvaraqlar ochiladi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag'lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan tasdiqlanadigan budjet va smetalarida belgilangan

<sup>23</sup> “Kasaba uyushmalari organlarining xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larni sarflash tartibi to'g'risidagi Nizom” asosida tuzildi.

<sup>24</sup> Ro'yxat raqami 1948, 2009 yil 27 aprel O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 18-son, 229-modda.

maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun sarflanadi.

Ular:

- sanatoriy-kurortlarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalar olishga;

- korxonalar va o'quv muassasalaridagi sanatoriy-profilaktoriylarda, sanatoriy-profilaktoriylarning ijtimoiy sug'urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog'lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

- bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta'minotida, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, hissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

- kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) xodimlarining mehnatiga haq to'lash va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o'quv-sport tadbirlarini o'tkazish uchun qisman mablag' ajratishga;

- o'z sport bazalari bo'lmagan taqdirda, hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO'SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;

- ijtimoiy sug'urta bo'yicha tashkiliy-ma'muriy xarajatlarni moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o'qitish, sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta'minotiga;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi, qurilish va rekonstruksiya qilinadigan obyektlarning manzilli ro'yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog'lomlashtirish muassasalari va BO'SM sport inshootlarini rekonstruksiya qilinishiga;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rayosati tomonidan tasdiqlangan ijtimoiy sug'urta budjeti yoki smetasi doirasidagi ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga sarflanadi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlarni to'lash kredit taqsimlovchilari tomonidan imzolangan to'lov hujjatlari bilan mablag'larni o'tkazish yo'li bilan, quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

a) ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobiga olingan sanatoriylar, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalarining to'lovlari yo'llanmalar olingan tegishli tashkilotlarning tuzilgan shartnomalari va yuk xatlari, hisob-fakturalariga asosan amalga oshiriladi. Shartnoma tuzilmasdan yo'llanmalarni olish uchun mablag'larni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi;

b) xodimlarni, talabalarni sanatoriy-profilaktoriylarda sog'lomlashtirishga mo'ljallangan mablag'lar mazkur sanatoriy-profilaktoriylarining joriy hisobvaraqlariga tasdiqlangan smetalarga muvofiq o'tkaziladi;

v) bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarni ta'minotida hissali ishtirok etishga yo'naltiriladigan mablag'lar sog'lomlashtirish oromgohlarining joriy hisobvaraqlariga yoki ixtiyorida bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari bo'lgan birlashgan kasaba uyushmalari qo'mitalarining qarorlariga muvofiq mazkur kasaba uyushmalari qo'mitalarining joriy hisobvaraqlariga o'tkazilishi mumkin;

g) bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarni ta'minlashni tasdiqlangan smetaga muvofiq moliyalashtirish xarajatlari ijtimoiy sug'urta mablag'lari, kasaba uyushmasi budjeti mablag'lari, sog'lomlashtirilayotgan bolalarning ota-onalarining oromgohga yo'llanmalar uchun to'laydigan mablag'lari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan xarajatlarning miqdorlari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining qarorlari bilan belgilanadi;

d) tasdiqlangan smetaga muvofiq ijtimoiy sug'urta mablag'laridan BO'SMlarni ta'minlash uchun dotatsiyalar, BO'SMlarni moliyalashtirish uchun ochilgan ijtimoiy sug'urta bo'yicha joriy hisobvaraqlariga o'tkaziladi;

e) ijtimoiy sug'urta apparati xodimlarini ta'minlash, kadrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan mablag'lar tasdiqlangan smetaga muvofiq hududiy birlashmalarning tegishli joriy kasaba uyushmalari budjetlari hisobvaraqlariga o'tkaziladi va zarur hujjatlarni ilova qilgan holda tasdiqlangan kasaba uyushmasi budjetiga muvofiq sarflanadi.

7. Kasaba uyushmalari organlariga ijtimoiy sug'urta mablag'laridan kasaba uyushmasi ehtiyojlari yoki ijtimoiy sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish yoki ularni o'zlashtirish qat'iy taqiqlanadi.

O'zlarining bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlariga ega bo'lmagan budjet tizimidagi tarmoq qo'mitalari xodimlarining farzandlariga yo'llanmalarni olishda kasaba uyushmalarining tuman, shahar, viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashlari budjetda "Bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarini ta'minlash" moddasi bo'yicha tasdiqlangan summa doirasida ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan oromgohlarni ta'minlash xarajatlarining bir qismini O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan o'rnatilgan miqdordagi olingan yo'llanmalar soniga mutanosib ravishda qoplashi mumkin.

Sanatoriy-profilaktoriylarni, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarini ta'minlash, jihozlash, ta'mirlash, ularda qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish, sog'lomlashtirilayotganlarning O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan belgilangan normalardan ortiqroq ovqatlanishini moliyalashtirish xarajatlari mazkur sanatoriy-profilaktoriy, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari balansida bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, o'quv muassasalari hisobidan, ular tomonidan tasdiqlangan smetalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Hududiy birlashmalar tegishli hududiy soliq organlaridan yagona ijtimoiy to'lovning hisoblanishi va to'lanishi haqidagi ma'lumotlarni elektron tarzda olgandan so'ng, tegishli davr uchun ijtimoiy sug'urta budjetining ijrosi haqidagi yig'ma moliyaviy hisobotni O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga taqdim etadilar.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi respublika bo'yicha ijtimoiy sug'urta budjeti ijrosi haqidagi yig'ma moliyaviy hisobotni har chorakda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'laridan yo'llanmalar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashi Rayosatining 2013 yil 26 yanvardagi "Sanatoriy va dam olish uylariga beriladigan imtiyozli yo'llanmalardan foydalanishga oid Yo'riqnomalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 9-24-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy sug'urta budjeti mablag'lari hisobidan sanatoriylarga yo'llanmalarni rejalashtirish, chiqarish, taqsimlash, sotish, berish, hisobga olish va hisobotini yuritish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga asosan beriladi.

Yo'llanmalarni chiqarish reja-loyihasi sanatoriylar tomonidan taqdim etilgan qabul jadvallari asosida, davolash ixtisoslashuvi, yil mavsumlari, sanatoriylardagi mavjud va foydalanishga topshiriladigan binolarning qabul qilish quvvatini hamda kapital ta'mirlashga (qayta qurish) to'xtatilish muddatlari rejasini hisobga olgan holda tuziladi.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan sotib olinadigan yo'llanmalar bo'yicha davolanish muddati – 14 kun etib belgilangan.

Birlashmalar tuman, shahar kasaba uyushmalari kengashlari va kasaba uyushma qo'mitalaridan kelgusi yil uchun sanatoriylar bo'yicha choraklarga (mavsumiy ehtiyojni nazarda tutgan holda) taqsimlangan talabnomalarni yig'ib, tarmoqlar kesimida jamlaydi va birlashma bo'yicha jamlangan talabnomani har yilning 15 sentyabriga qadar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga taqdim etadilar.

Birlashmalar tarmoqlarning moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda yo'llanmalarni taqsimlash rejasini tuzib, rayosat qarori bilan tasdiqlaydilar va 15 noyabrgacha tuman, shahar kasaba uyushma kengashlari va kasaba uyushma qo'mitalariga etkazadilar.

Tuman, shahar kasaba uyushmalari kengashlari tasdiqlangan yo'llanmalarni taqsimlash rejasini asosida yirik kasaba uyushma qo'mitalari bo'yicha (300 va undan ziyod xodimlar xizmat qiladigan) yo'llanmalarni taqsimlash rejasini tuzadilar va tasdiqlaydilar. Qolgan yo'llanmalar

esa, yo‘llanmalarni taqsimlash rejasining alohida «Boshqa kasaba uyushma qo‘mitalari» satrida aks ettiriladi.

Yo‘llanmalarni yil mavsumlari bo‘yicha taqsimlashda ta‘lim, fan va madaniyat, agrosanoat majmui tarmoqlari hamda boshqa tarmoqlarga qarashli ish faoliyati mavsumiy tusga ega bo‘lgan tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olinadi.

Birlashmalar tuman va shahar kasaba uyushmalari kengashlari hamda kasaba uyushma qo‘mitalariga yo‘llanmalarni ular amal qilish muddatidan 30 kun avval beradi. Yo‘llanmalar berilishida schet-faktura 2 nusxada yoziladi. Ularda sihatgohning nomi, yo‘llanmalar raqami, yo‘llanmalarning soni va muddati, har bir yo‘llanmaning narxi va barcha yo‘llanmalarning umumiy qiymati ko‘rsatiladi.

Xodimga davolanish uchun yo‘llanma uning ish joyidagi kasaba uyushma qo‘mitasi yoki kasaba uyushma qo‘mitasi tuzilmagan joylarda esa ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiya, tuman, shahar tarmoq kasaba uyushma kengashlari tomonidan o‘rnatilgan navbat bo‘yicha beriladi. Xodim ijtimoiy sug‘urta yoki kasaba uyushma budjeti mablag‘lari hisobidan yo‘llanma olishidan qat‘iy nazar, unga ikki yilda bir marotaba yo‘llanma beriladi.

Kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan sotib olinadigan yo‘llanmalar:

10 foizgacha – bepul;

90 foizgacha – qiymati qisman undirilgan holda beriladi.

Yo‘llanmaning qisman yoki to‘liq qiymati to‘langanligi to‘g‘risidagi to‘lov qog‘ozi (kvitantsiya) taqdim etilmaguncha yo‘llanma berilmaydi.

Sanatoriyda davolanish uchun bepul yo‘llanmalar birinchi navbatda ishlovchi:

- ikkinchi jahon urushining qatnashchilariga va ularga tengashtirilganlar;

- baynalmilalchi jangchilarga;

- yadro poligonlarida va yadro-radiatsiyasi mavjud obyektlarda harbiy xizmatini o‘tagan shaxslarga (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 maydagi 188-sonli qaroriga asosan);

- o‘z harbiy burchini bajarish paytida sog‘lig‘iga shikast etganlarga;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlarga;

- O‘zbekiston Respublikasi oldida xizmat ko‘rsatganlarga;

- mehnat faxriylari va nogironlariga;

- ko‘p bolali (to‘rt va undan ortiq bola), kam ta‘minlangan oilalarning mehnat qiladigan a‘zolariga beriladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan toifadagi xodimlardan talabnomalar bo‘lmagan hollarda, bepul yo‘llanmalar boshqa ishlovchi kasaba uyushma a‘zolariga beriladi.

*Yo‘llanmalardan maqsadli foydalanilishi bo‘yicha shaxsiy javobgarlik:*

- kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalari raislari;

- tuman, shahar tarmoq kasaba uyushmalari kengashlari raislari;

- korxonalar, muassasa, tashkilot kasaba uyushma qo‘mitalari raislari;

- O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Sanatoriy-kurortlar

boshqarmasi boshlig‘i;

- kasaba uyushmalari sanatoriylari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Yo‘llanmalardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni birlashmalar, tuman, shahar kasaba uyushmalari kengashlari, kasaba uyushma qo‘mitalari shuningdek ularning taftish komissiyalari amalga oshiradi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiya Kengashi Rayosatining 2012 yil 30 dekabrda 9-52 “o” sonli qaroriga asosan 2013 yil 1 yanvardan boshlab ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan xodimlarga beriladigan imtiyozli yo‘llanmalar narxining 45 foizi sanatoriylarga yo‘llanma oluvchilar tomonidan, qolgan 55 foizi ijtimoiy sug‘urta budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilandi.

## 5-MAVZU: TADBIRKORLARNING DAVLAT IJTIMOYIY SUG'URTASIGA BADALLAR AJRATISHI

### REJA:

1. Tadbirkorlik faoliyatida sug'urtaning tutgan o'rni.
2. Tadbirkorlik faoliyatida uchraydigan risklar va ularning tasniflanishi.
3. Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalashning xorij tajribasi

**Tayanch so'z va iboralar:** *Tadbirkorlar, kichik biznes, sug'urta, risklar, tijorat kreditlari, sug'urta faoliyati.*

### 1. Tadbirkorlik faoliyatida sug'urtaning tutgan o'rni

Tadbirkorlik aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, inonovatsiyalarni qidirish, samarali ishlab chiqarishni tashkil etish va natijada foyda olishdan iboratdir. Tadbirkorlik shaxsning tashkilotchiligi, ishbilarmonligi, yangilik yaratishdagi g'oyalariga bog'liq bo'lib, uning vazifasi ishlab chiqarish sohasida samara beradigan faoliyat bilan shug'ullanishdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishbilarmonlar samarali faoliyat olib borishlari uchun yuqori darajada intellektual salohiyatga ega bo'lishi, innovatsiyalarni qo'llab, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga tayyor bo'lishi lozim.

Umuman olganda, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda yangilik yaratish, bozor sektorlarida samarali faoliyat yuritish, yangi tovar va xizmatlarni taklif etish, iste'molchi talablarini qondirish tadbirkorlik faoliyatining asosini tashkil etadi.

Mamlakat iqtisodiyotida tobora muhim o'rin tutib borayotgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining bir maromda va barqaror rivojlanishini ta'minlashda sug'urta xizmatlarining roli muhim hisoblanadi. Tadbirkor yuqorida keltirilgan sohalardan biri bo'yicha o'z faoliyatini yo'lga qo'yar ekan, u albatta ma'lum darajadagi tavakkalchiliklarga yo'l qo'yadi. Bunday tavakkalchiliklar sug'urta yo'li bilan o'z vaqtida himoyalab qo'yilsa bu albatta tadbirkor faoliyatining bir maromda davom etishi va barqaror rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatida sug'urtaning roli birinchi o'rinda mikroiqtisodiy darajada hosil bo'ladi, bunda o'z mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar sug'urta kompaniyalari bilan sug'urta shartnomalarini tuzadilar. Yirik miqdordagi tabiiy yoki texnogen katastrofalarning yuz berishi va katta hududlar, ko'p miqdordagi korxonalar hamda minglab insonlar mulki va hayotiga zarar etkazilganda sug'urta tizimi orqali makroiqtisodiy darajada zararlar qoplanadi. Makroiqtisodiy darajadagi zararlarni qoplash imkoniyatiga rivojlangan mamlakatlarning sug'urta kompaniyalarigina ega G'arbiy evropa, AQSH va YAponiya mamlakatlarining sug'urta kompaniyalarida yalpi ichki mahsulotning 8-12 foizi miqdoridagi mablag'lar mavjud. Bizning mamlakatimizda bu ko'rsatkich 0,4 foizni tashkil etmoqda.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari bilan bog'liq risklar sug'urtasi turli ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy va boshqa kutilmagan hodisalardan ko'riladigan zararlarni qoplashni ko'zda tutuvchi sug'urta faoliyatidir. Turli sabablar (xom-ashyoning etishmay qolishi, elektr energiya va yoqilg'i-moylash materiallarining etishmay qolishi, ish joyida yong'in chiqishi va hokazolar) oqibatida yuz beradigan ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida ko'riladigan zararlar, bankrotlik holatlari, tayyor mahsulotning sotilmay qolishi yoki sotilgan mahsulot uchun to'lovning amalga oshmay qolishi va boshqalar sug'urta hodisasi sifatida qabul qilinishi mumkin.

Tadbirkorlik tavakkalchiligi sug'urtasi birinchi marta Angliya iqtisodiyotida 8-asrda paydo bo'lgan. Keyinchalik ushbu sug'urta turlari evropaning boshqa mamlakatlarida, AQSHda va boshqa mamlakatlarda qo'llanila boshlagan.

Shuningdek, O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasi mustaqillik yillarida paydo bo‘la boshladi. Mazkur sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta klassifikatorida alohida klasslar nazarda tutilgan bo‘lib, bunday klasslar sifatida 14-klass – kreditlarni sug‘urta qilish, 15-klass - kafillikni sug‘urta qilish va 16-klass – boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug‘urta qilish klasslarini sanab o‘tish mumkin. SHunday bo‘lsada, hozirga qadar tadbirkorlik faoliyatidagi tavakkalchiliklarni sug‘urtalash amaliyoti keng rivojlanish pallasiga kirganicha yo‘q.

Tadbirkor faoliyatidagi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga sabab bo‘luvchi bir qancha xatarlar, masalan, xom-ashyoni etkazib berishning to‘xtab qolishi, ishchi kuchining etishmay qolishi, elektr energiyasi va boshqa energiya vositalarini erkazib berishning to‘xtab qolishi va boshqa holatlar ishlab chiqarishdagi uzilishlarga sabab bo‘lishi va natijada ko‘zlangan foydaga erisha olmaslik holatlari yuz berishi mumkin.

Tijorat faoliyatida tovar uchun to‘lovlar bilan bog‘liq xatarlar yuz berishi mumkin, ya‘ni etkazib berilgan tovar uchun xaridorning to‘lovga qobiliyatsizligi yuz berishi va natijada to‘lovni amalga oshira olmasligi mumkin. Ma‘lum mamlakat miqyosidagi siyosiy holatlar natijasida sotuvchi yoki xaridorga mahsulotni sota olmaslik yoki sotib ololmaslik holatlari yuz berishi mumkin.

Hozirgi kunda tijorat faoliyatini ko‘rsatayotgan sub‘ektlar soni oshib ketishi natijasida ular faoliyatidagi risklarni sug‘urtalashga bo‘lgan ehtiyoj sezirarli darajada oshdi. Buning natijasida sug‘urta kompaniyalari ixtiyorida bo‘sh mablag‘lar to‘planib ular tomonidan investitsiyaga yo‘naltiriladigan mablag‘lar xajmi xam oshdi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik xatarlari ko‘p hollarda tabiiy hodisalar natijasida yuz berishi extmol tutilgan, ya‘ni turli tabiiy hodisalar tufayli hosildorlikning kamayishi yoki umuman bo‘lmay qolishi, sifatsiz mahsulot etishishi va hokazolar natijasida kutilgan natijaga erishilmay qolishi mumkin. Bundan tashqari ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bilan bog‘liq boshqa xatarlar ham yuz berishi mumkin.

Tashqi faoliyat bilan bog‘liq xatarlar ko‘p hollarda siyosiy xatarlar, mahsulotni tashish bilan bog‘liq xatarlar, to‘lovga qobiliyatsizlik va boshqa xatarlar bo‘lishi mumkin.

Kredit risklari sug‘urtasining ob‘ekti bo‘lib, xaridorga beriladigan tijorat kreditlari, sotuvchi yoki xaridorga beriladigan bank ssudasi, kredit bo‘yicha majburiyat yoki kafillik, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqalar hisoblanadi. Ushbu sug‘urta turi sotuvchi yoki bank-kreditor manfaatlarini qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik holatidan himoya qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida kredit risklarini sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalari bo‘lib, ular eksport kreditlari sug‘urtasini amalga oshiruvchi tizimga va chet el investitsiyalarini sug‘urtalash sxemalariga ega. Kreditni qaytara olmaslikdan sug‘urtalash turi bozor iqtisodiyoti sharoitida keng rivojlangan sug‘urta turlaridan biri hisoblanadi. Bu sug‘urta turi banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida hamkorlikning kuchayishi bilan yanada keng rivojlandi. Bizning mamlakatimizda ham bu sug‘urta turi birmuncha rivojlanmoqda, banklar tomonidan xo‘jalik sub‘ektlariga berilayotgan kreditlarni to‘liq bo‘lmasada ma‘lum qismini qaytara olmaslikdan sug‘urtalash amalga oshirilib kelinmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Shuning uchun ushbu foydani ololmaslikdan sug‘urtalash muhim hisoblanadi. Foydani ololmaslikning sabablarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) stixiyali hodisalar tufayli ishlab chiqarish jarayonining buzilishi;
- 2) bozor kon’yunkturasining o‘zgarishi.

Tadbirkorlik sohasida faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub‘ektlari quyidagi uchta soha bo‘yicha faoliyat yuritadilar:

- ishlab chiqarish sohasi
- xizmat ko‘rsatish sohasi
- ishlarni bajarish sohasi

Tadbirkorlik sohasi:

- inson yashashi uchun moddiy va nomoddiy ne‘matlar yaratadi;
- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyati uchun xom ashyo etkazib beradi;



- Insoniyat hayot kechirishini ta'minlovchi faoliyatni amalga oshirish uchun yangi ish joylarini yaratadi;

- Davlat faoliyatini yuritishini ta'minlovchi byudjet mablag'larini shakllantiriga o'z xissasini qo'shadi;

- Jamiyatda yangi qurilishlarga sabab bo'lib, shaharlar va qishloqlar chiroyini oshiradi;

- Mamlakat eksport salohiyati oshib, import kamayadi;

- Insonlar farovon hayoti uchun qulayliklar yaratiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdan maqsad:

- Mamlakatni iqtisodiy siyosiy-ijtimoiy jihatdan taraqqiy ettirish;

- Mamlakatda ishsizlikni kamaytirish va aholini ish bilan taminlash;

- Aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mahaliy mahsulot va xizmatlarni yaratish, shuningdek ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish;

- Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat valyuta zahiralarini kengaytirish;

- Importni kamaytirish;

- Davlat byudjeti mablag'larini oshirish.

Tadbirkorlik sohasi rivojlanish bilan birga ular faoliyatida risklar ko'lamini va turlari ortib bormoqda. Ammo ushbu risklarni sug'urtaviy himoyalash holatini etarli darajada deb bo'lmaydi. Bu birinchi o'rinda tadbirkorlarning sug'urta xizmatlari to'g'risidagi tushunchalari etarli emasligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan sug'urta kompaniyalari bozor mexanizmlaridan etarlicha foydalanmayotganliklari, sug'urta xizmatlarini etarlicha reklama qilinmayotganligi va qolaversa tadbirkorlik faoliyatidagi risklar bilan bog'liq sug'urta xizmatlari zamonaviy turlarining kamligidir.

"Sug'urta xizmatlari bozorini bundan-buyongi isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 10 apreldagi Prezident qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan O'zbekiston respublikasi sug'urta bozorini 2007-2010 yillarda isloh qilish va rivojlantirish dasturida tadbirkorlik sohasi bilan bog'liq sug'urta turlari sifatida ko'zlangan foydani ololmaslik sug'urtasi, loyihalashtirishdagi xatoliklarni sug'urtalash, bankrotlikdan sug'urtalash, eksport bilan bog'liq sug'urta turlari, ko'zda tutilmagan xarajatlar sug'urtasi, sud xarajatlari sug'urtasi, professional javobgarlik sug'urtasi kabi sug'urta turlarini rivojlantirish va shu maqsadda tadbirkorlik risklarini sug'urtalashning namunaviy qoidalarini ishlab chiqish, biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini taqdim qilishning yagona talab va standartlarini belgilash masalalari ko'zda tutilgan edi. Mamlakatimiz sug'urta tizimida mazkur vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilayotgan bo'lsada, o'zining etarli natijasini bergani yo'q.

Ishlab chiqarishdagi uzilishlar sug'urtasi moliyaviy risklar sug'urtasi turlaridan biri bo'lib, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi tarmog'iga kiradi. Ushbu sug'urta turi ishlab chiqarishdagi yong'in va boshqa hodisalar tufayli ishlab chiqarishning to'liq yoki qisman to'xtab qolishidan ko'riladigan moliyaviy zararlardan sug'urtalaydi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi davomida tadbirkorlar sug'urtaning mohiyatini ko'proq tushunib bormoqdalar va o'z faoliyatlarida mumkin qadar ko'proq risklarga yo'l qo'yarmoqdalar va o'z o'rnida ushbu risklarni sug'urtalab qo'yarmoqdalar.

Sug'urta agrar tarmoqda va xususan unda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liq risklarning yuz berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar, shu jumladan bank muassasalaridan kredit olishda garovga qo'yiladigan mol-mulkini, bo'lg'usi paxta va g'alla ekinlaridan kam hosil olish natijasida ko'radigan moliyaviy zararini ixtiyoriy sug'urtalash ularni moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat yuritishining muhim sharti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik xatarlari ko'p hollarda tabiiy hodisalar natijasida yuz berishi mumkin, ya'ni turli tabiiy hodisalar tufayli hosildorlikning kamayishi yoki umuman bo'lmay qolishi, sifatsiz mahsulot etishishi va hokozolar natijasida kutilgan natijaga erishilmay

qolinishi mumkin. Bundan tashqari ishlab chiqarish va mahsulotni sotish bilan bog‘liq boshqa xatarlar ham yuz berishi mumkin.

Tashqi faoliyat bilan bog‘liq xatarlar ko‘p holatlarda siyosiy xatarlar, mahsulotni tashish bilan bog‘liq xatarlar, to‘lovga qobiliyatsizlik va boshqa xatarlar bo‘lishi mumkin.

Kredit risklari sug‘urtasining ob‘ekti bo‘lib, xaridorga beriladigan tijorat kreditlari, sotuvchi yoki xaridorga beriladigan bank ssudasi, kredit bo‘yicha majburiyat yoki kafillik, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqalar hisoblanadi. Ushbu sug‘urta turi sotuvchi yoki bank-kreditor manfaatlarini qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizlik holatidan himoya qiladi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarning barchasida kredit risklarini sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalari bo‘lib, ular eksport kreditlari sug‘urtasini amalga oshiruvchi tizimga va chet el investitsiyalarini sug‘urtalash sxemalariga ega. Kreditni qaytara olmaslikdan sug‘urtalash turi bozor iqtisodiyoti sharoitida keng rivojlangan sug‘urta turlaridan biri hisoblanadi. Bu sug‘urta turi banklar va sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida hamkorlikning kuchayishi bilan yanada keng rivojlandi. Bizning mamlakatimizda ham bu sug‘urta turi birmuncha rivojlanmoqda, banklar tomonidan xo‘jalik sub‘ektlariga berilayotgan kreditlarni to‘liq bo‘lmasda ma‘lum qismini qaytara olmaslikdan sug‘urtalash amalga oshirilib kelinmoqda.

### Tadbirkorlik risklari klassifikatsiyasi

5.1-jadval.

Klassifikatsiyalash xususiyatlari	Tadbirkorlik risklarining turlari
Kelib chiqish doirasi	Tashqi, tadbirkor faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan risklar (qonunchilikning va siyosatning o‘zgarishi, ijtimoiy holat)
	Ichki, buning manbai tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi (mahsulot yaratish, ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, investitsiyalar, rahbarlar va xodimlarning xatolari, suiste‘mollikka yo‘l qo‘yish, shartnoma shartlariga rioya qilmaslik va hokazolar)
Ta‘sir davrining davomiyligi	Doimiy, muayyan geografik hududda va iqtisodiyot tarmog‘ida tadbirkorga tahdid soluvchi (masalan, depressiv iqtisodiyotdagi hududlarda to‘lov qobiliyatining yo‘qolish riski)
	Qisqa muddatli, ishlab chiqarish jarayonidagi davrdan kichik oraliqda amal qiluvchi, masalan, mahsulot yoki xom ashyoni tashishdagi risklar
Yuz berish ehtimolligi va oqibatlarining darajasi	Mumkin bo‘lgan darajada, foydaning bir qismi yoki barchasining yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan risklar
	Me‘yordan ortiq, foydaning hammasi va daromadning bir qismining yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan risklar

	Katastrofik, biznesning yo‘qotilishi va tadbirkorning bankrot bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan risklar
Yuz berish sabablari	Spekulyativ (dinamik), valyuta kurslarining va baholarning o‘zgarishi natijasida yutuqqa yoki yo‘qotilishga olib keluvchi
	Statistik (oddiy), ob‘ektiv noxush holatlarning yuz berishi natijasida (tabiiy ofatlar, texnogen va antropogen katastrofalar, avariylar, baxtsiz hodisalar va hokazo) yo‘qotilishga olib keluvchi

## 2. Tadbirkorlik faoliyatida uchraydigan risklar va ularning tasniflanishi.

Tadbirkorlik faoliyati – daromad olishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Odatda, tadbirkorlik riski deganda har qanday tadbirkorlik sharoitida vujudga keladigan, maxsulotni, tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish, xizmat ko‘rsatish bilan, tovar-pul va moliyaviy munosabatlar bilan, tijorat bilan, shuningdek ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan risklar tushuniladi.

Tadbirkorlik riski muayyan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan tashqi muhitning qanday muomalada bo‘lishiligi aniq belgilanmaganligi sababli ob‘ektiv asosga ega. Tashqi muhit tadbirkor faoliyat yuritishi va unda yuz beradigan o‘zgarishlarga moslashishi zarur bo‘lgan ob‘ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlardan tashkil topadi.

Tadbirkorlik faoliyatidagi noaniqlik va risk nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatning rejalashtirilgan natijalari bilan amalda erishilgan natijalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan iborat bo‘lib, mazkur faoliyatni rivojlantirish omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Tadbirkorlik riski – iqtisodiy erkinlikning astar tomoniga o‘xshaydi va ana shu erkinlik uchun o‘ziga xos to‘lovdur. Biron bir tadbirkor erkinligi bilan boshqa tadbirkorlarning erkinligi ham bir vaqtning o‘zida yondosh bo‘ladi, binobarin, ular o‘rtasidagi raqobatni yuzaga keltiradi. Tavakkal qilmagan yutib chiqmaydi, degan naqlda haqiqat bor. Iqtisodiy foydaga erishish uchun tadbirkor ongli ravishda tavakkal asosida qaror qabul qilishga majbur.

Tadbirkorlik risklarining turlari nihoyatda rang-barang – yong‘inlar va tabiiy ofatlardan tortib, millatlararo mojarolar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va inflyatsiya tebranishlarigacha qamrab oladi. Ammo ularning bitta umumiy xususiyati ham mavjud bo‘lib, u umumiy risk tushunchasidan ajralib turadi. Bu tadbirkorning shaxsiy insoniy xususiyatlarining risk darajasiga ko‘rsatadigan ta‘sirini aks ettiruvchi sub‘ektivlik xossasidir. Yong‘in har qanday korxonada sodir bo‘lishi mumkin, ammo u tadbirkor kattaroq daromad olishning payiga tushib, yong‘in xavfsizligi qoidalariga e‘tiborsizlik ko‘rsatgan joylarda sodir bo‘lish ehtimoli ko‘roq. SHu sababli tadbirkorlik risklarini sug‘urtalashda riskning ob‘ektiv omillarini sub‘ektiv, beistisno tarzda tadbirkorning shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lgan aldamchi omillardan ajrata bilish muhim. Bu kabi sub‘ektiv risklar sug‘urtalash uchun odatda qabul qilinmaydi.

Tadbirkorlik risklari ko‘p jihatdan tadbirkorlik faoliyatining turiga, ya‘ni ishlab chiqarishmi, savdomi yoki xizmat ko‘rsatish sohasimi ekaniga bog‘liq. Ana shunga bog‘liq ravishda mulkiy sug‘urtaning yoki javobgarlik sug‘urtasining u, yoki bu turi qo‘llaniladi, xodimlarning yoki tadbirkorning o‘zining shaxsiy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida ketayotgan bo‘lsa, shaxsiy sug‘urta turlari qo‘llaniladi. Tadbirkorlik risklarini sug‘urtalashning o‘ziga xos turlari moliyaviy va bank risklarini, shuningdek tashqi iqtisodiy risklarni sug‘urtalash hisoblanadi.

Moliyaviy risk deganda odatda moliyaviy bitimlarni amalga oishirish (bankka mablag'larni qo'yish, aktsiyalar muomalasi va birja faoliyati va h.k.) chog'ida vujudga keladigan risklar tushuniladi Bunday risk daromadlarni ololmay qolish yoki pullarni boy berish bilan bog'liq bo'lib, mohiyatan aldamchidir. SHu sababli sug'urtlashga moliyaviy risklarning faqat ob'ektiv xususiyatga ega bo'lgan qismi, masalan sug'urta qildiruvchi tadbirkorning sherik-hamkorining bankrot bo'lib qolish riskiga oid qismi olinadi. Moliyaviy riskning yana bir turi - investitsiya riskidir. U turli xil loyihalarga pul mablag'larini tikish (investitsiya qilish) xususiyati bilan bog'liq. Moliya risklarini sug'urtalashning muhim yana bir turi ishlab chiqarishdagi uzilishlar sababli, masalan, sexda sodir bo'lgan yong'in tufayli ko'riladigan zaradan sug'urtalash hisoblanadi.

Bank ishi ham, har qanday tadbirkorlik kabi, risklar bilan bog'liq. Xorijiy sug'urtalash tajribasida, keyingi vaqtlarda mamlakat tajribasida ham, bank risklarini sug'urtalashni banklar sug'urta ta'minotining umumiy portfeli tarkibiga kiritilmoqda. Ana'anaviy bank paketida haddan ziyod ishonch bildirish sababidan vujudga keladigan zararlardan, qarz oluvchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik sababli vujudga keladigan zararlardan sug'urtalash, bank binosida saqlanayotgan qimmatliklarning yo'qolishi yoki shikastlanishidan sug'urtalash, shuningdek bank mol-mulkiga tabiiy ofatlar, talofatlar va uchinchi shaxslarning noqonuniy hatti-harakatlari sababli etkazilgan zararlarni sug'urtalash kabi sug'urta turlari mavjud bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy amaliyotlar bilan bog'liq tijorat va siyosiy risklarining sug'urtasi rivojlangan mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanib qolgan. Siyosiy risklar, odatda, sarmoyadorlarining mablag'lari kiritilgan mamlakatda davlat siyosatining, qonunchilikning o'zgarishi bilan, qurolli mojarolarning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Tijorat risklari, birinchi navbatda, xorijiy sheriklarning bankrot bo'lishi, to'lovlarning kechiktrilishi, tovarlarning yo'lda yo'qotilishi va h.k. bilan bog'liqdir. Tadbirkorlik risklari sug'urtasi umumian kompleks xususiyatga ega bo'lib, sug'urtalashning barcha tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Tadbirkorlik muammolariga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotga hozircha tadbirkorlik risklarining tizimli tasnifi yaratilmagan. Bu risklarni tasniflash uchun, fikrimizcha, birinchi navbatda risklarni muayyan guruhlarga ajratish imkonini beradigan asosiy belgilarini aniqlab olish zarur.

Binobarin, risklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- vujudga kelish sohasiga ko'ra;
- vaqtga nisbatan davomiyligiga ko'ra;
- risklilik darajasiga ko'ra;
- oqibatlarining xususiyatlariga ko'ra.

Vujudga kelish sohasiga ko'ra tadbirkorlik risklarini ichki va tashqi turlarga ajratish mumkin. Tashqi risklarning vujudga kelish manbalari bo'lib tadbirkorga nisbatan tashqaridagi muhit hisoblanadi. Tadbirkor ularga ta'sir ko'rsata olmaydi, tadbirkor ularni faqat oldindan tahmin qilishi va o'z faolyatida hisobga olishi mumkin.

SHunday ekan, tashqi risklar toifasiga tadbirkorning faoliyati bilan bevosita bo'lmagan risklar kiradi. Gap tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda ko'zda tutilmagan o'zgarishlarning sodir bo'lishi; faoliyat ko'rsatilayotgan mamlakatdagi siyosiy muhitning nobarqarorligi va boshqa vaziyatlarga bog'liq bo'lib, tegishli ravishda tadbirkorlarning yuzaga kelgan urush, milliylashtirish, ish tashlash, iqtisodiy ta'qiqlarning joriy etilishi kabi siyosiy hodislar tufali yo'qotishlariga olib keladi.

Ichki risklarning manbai tadbirkorlik faoliyatining o'zi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunday risklar samarasiz menedjment, xatorok marketing siyosati, shuningdek ichki suiiste'mollar sababli kelib chiqadi. Ichki risklar ichida eng asosiysi kadrlarga oid risk bo'lib, u korxonada xodimlarining kasb darajasi i va xarakter xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Vaqtga nisbatan davomiyligiga ko'ra tadbirkorlik risklarini qisqa muddatli risklarga va doimiy risklarga ajratish mumkin. Qisqa muddatli risklar qatoriga tadbirgaor uchun muayyan va cheklangan davr ichida tug'iladigan xavf-g'atarlarni kiritiladi. Masalan, yukni tashish vaqtida

yuzaga kelishi ehtimol tutiladigan transport riski yoki muayyan bitim bo'yicha to'lovni amalga oshirilmalik riski shular jumlasidan.

Doimiy risklarga tadbirkorlik faoliyatiga mazkur jug'rofiy mintaqada, yoki iqtisodiyotning muayyan tarmog'ida betinim ravishda risk solib turadigan xavf-risklar kiritiladi. Masalan huquqiy tizimi mukammal bo'lmagan mamlakatda to'lovni amalga oshirilmay qolish riski yoki yuqori darajadagi seysmik riskli hududda binolarning vayron bo'lish ehtimoli riski shular jumlasidan.

Risklilik darajasini yo'qotishlarning sodir bo'lishi ehtimoli va etkazilishi ehtimol tutilgan zararining matematik bashorati deb izohlash mumkin. Risklilik darajasi kutilgan yo'qotishlar miqyosining tadbirkor mol-mulkinging hajmiga nisbatiga, shuningdek ana shu yo'qotishlarning vujudga kelish ehtimollik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

Darajasiga ko'ra risklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- yo'l qo'yiladigan risk, bunda rejalashtirilgan loyihani amalga oshirish chog'ida foydani to'liq yo'qotish riski yuzaga keladi;

- tang ahvolga tushirib qo'yuvchi risk, bunda olinishi kutilayotgan foydagina emas, balki daromadning ham yo'qotilishi va zararining vujudga kelishi mumkin bo'lib qoladi;

- halokatli risk, bunda kapitalning, mol-mulkning yo'qotilishi va tadbirkorning bankrot bo'lishi muqarrar bo'lib qoladi.

Oqibatlarining xususiyatlariga ko'ra risklar ikkita katta guruhga ajratiladi: statistik risklar (oddiy, yoki sof risk) va dinamik (aldamchi risk). Statistik risklarning o'ziga xosligi shundaki, bu risklar hamisha tabirkorlik faoliyati uchun yo'qotishlarni keltirib chiqaradi. Bu holda korxonaning ko'rgan zararlari, odatda, butun jamiyat uchun yo'qotish sifatida ham yuz ko'rsatadi.

Statistik risklarni vujudga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari, zizilalar, to'fonlar va h.k.) chog'idagi hatti-harakatlar oqibatidagi yo'qotishlar;

- uchinchi shaxslar va xodimlarning jinoyatkorona hatti-harakatleri oqibatidagi yo'qotishlar;

- korxonaga uchun nomaqbul qonunchilikning qabul qilinishi oqibatidagi yo'qotishlar, masalan, mulkning to'g'ridan to'g'ri olib qo'yilishi, yoki qonunchilikning nomukamalligi sababli, aybdor shaxsdan zararni undirib olish imkoniyati mavjud emasligi;

- uchinchi shaxslarning mulkka tajovuz qilishi natijasidagi yo'qotish, chunki bu asosiy ta'minotchining yoki iste'molchining faoliyati majburan to'xtalishiga olib keladi;

- firmani yurituvchi xodimlarning yoki asosiy mulkdorning o'limi yoki muomalaga layoqatsizligi, bu esa malakali mutaxassislarni topish qiyinchiligi va mulkni boshqaga o'tkazish muammolari bilan bog'liqligi. Statistik risklardan farqli o'laroq, dinamik risklar o'zi bilan birga yo'qotishlarning vujudga kelishi yoki foyda olinishi imkoniyatlarini etaklab keladi, shu sababli uni aldamchi risk deb ham atashadi. Bundan tashqari, dinamik risklar biron firmani zararga yo'liqtirsa, bir vaqtning o'zida butun jamiyat uchun manfaatli bo'lishi mumkin. Dinamik risklar boshqarish qiyin bo'lgan risklar hisoblanadi.

Sug'urtalash manfaatlari bahonasida tadbirkor (menejer) o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan ayrim risk turlarini bir muncha batafsilroq ko'rib chiqishga harakat qilaylik.

Siyosiy risk – davlat siyosatining oqibati sifatida zararlarning vujudga kelishi yoki ko'zda tutilgan foyda miqdorining qisqarishi ehtimolidir. SHunday ekan, siyosiy risk hukumatning siyosiy yo'li o'zgarishga uchrashi yoki uning faoliyati ustuvor yo'nalishlarining boshqacha tus olishi bilan bog'liqdir. Bu turdagi riskni mukammal qonunchilikka ega bo'lmagan, tadbirkorlik ana'analari va madaniyati shakllanmagan mamlakatlarda hisobga olish ayniqsa zarur.

Siyosiy risk tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi va undan qochib qutulishning imkoni yo'q, faqat to'g'ri baholash va hisobga olish shart.

Siyosiy risklarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin:

- 1) mos ravishda tovon to'lamasdan milliylashtirish va ekspropriatsiya qilish riski;

2) mahalliy valyutani almashtirishning cheklanib qo'yilishi ehtimoli bilan bog'liq transfert riski;

3) kontragent hisoblanmish kompaniya joylashgan mamlakatdagi hukumatning hattiharkatlari tufayli shartnomaning uzilib qolishi riski;

4) harbiy harkatlar va fuqarolar g'alayonlari bilan bog'liq risk. Milliy lashtirish riski amalda tadbirkorlar tomonidan juda keng sharhlanadi – ekspropriatsiyadan tortib kompaniya mol-mulkinging hukumat tomonidan majburiy sotib olinishigacha yoki sarmoyadorlarning aktivlarni boshqarishlari uchun yo'l qo'yib berilishigacha qamrab olinadi. Millatlashtirish riskini ta'riflash qiyinchiligi shundaki, har qanady mamlakatda ham hukumat ekspropriatsiya qilish yoki milliy lashtirish ehtimolini reklama qilmaydi. SHuning oqibati bo'lsa kerakki, hech bir hujjatda, masalan, milliy lashtirish musodara qilishdan nimasi bilan farq qilishi yuridik jihatdan aniq izohlab berilmagan.

Transfert riski mahalliy valyutani xorijiy valyutaga o'tkazish bilan bog'liq riskdir. Bunga misol qilib, korxonaga milliy valyutada foyda olib, rentabel ishlab turgan bir vaqtda, uni kredit uchun to'lov hisob-kitoblarini amalga oshirish maqsadida sarmoyadorning valyutasiga o'tkazib olishning imkoni bo'lmaydi. Buning sabablari ko'p, masalan, pul mablag'larini konvertatsiya qilish yo'lidagi majburiy uzundan-uzun navbat vujudga keltirilganligi bo'lishi mumkin.

Shartnomaning uzilib qolishi riskida shartnomada ko'zda tutilgan jarima sanksiyalari ham, arbitraj ham yordam bera olmaydigan vaziyatlar nazarda tutiladi: shartnoma hamkorsherkka bog'liq bo'lmagan sabablar bilan, masalan, milliy qonunchilikning o'zgartirilishi munosabati bilan bekor bo'ladi.

Siyosiy risklar guruhidagi oxiri risk – harbiy harkatlar va fuqaro g'alayonlari riskidir. Bularning natijasida tadbirkorlik firmalari nafaqat foyda ololmay qolishlari, balki yirik zararlarni boshdan kechirishlari, hatto bankrot bo'lib qolishlari mumkin.

Siyosiy riskni shartli ravishda milliy, mahalliy va xalqaro siyosiy risklarga jaratish mumkin. Milliy siyosiy risk deganda mamlakat ichiki siyosiy vaziyatning nobarqarorligi tadbirkorlik firmalarining faoliyati natijalariga salyuyi ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Buning natijasida esa firmalarning moliyaviy ahvoli hattoki bankrot bo'lishga qadar yomonlashishi mumkin. Bu narsa ayniqsa turli shakldagi kichik biznes korxonalarida yuz ko'rsatadi, chunki mamlakat siyosiy haytidagi vaziyatning keskinlashuvi xo'jalik aloqlarining buzilishiga olib keladi. Bu esa unchalik katta bo'lmagan korxonalarining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ularni xomashyo, materiallar, uskunalar bilan ta'minlanmaganligi sababli bankrot ahvoliga tushirib qo'yadi.

Mahalliy siyosiy risk deganda siyosiy vaziyatning muayyan bir mintaqada nobarqor bo'lib qolishi tushuniladi. Bu holat tarbirkorlik firmalarining faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, xususan bu o'sha mintaqada o'tkazilgan harbiy harkatlar natijasida, yoki mahalliy boshqaruv idoralarining tadbirkorlik faoliyatiga o'ya aralashuvi sababli yo'qotishlar vujudga kelishi ehtimoli bo'lishi mumkin.

Xalqaro siyosiy riskni hisobga o'la borish xalqaro bozor bilan ishlovchi firmalar uchun ham, shuningdek xorijiy sheriklar bilan ishlovchi firmalar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkor o'zining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holatda vujudga keladigan siyosiy risklarga bevosita ta'sir ko'rsata olmasligi sababli, siyosiy riskni tashqi risklar guruhiga kiritish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi odatda yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, zahira va imkoniyatlarni izlab topish va ishlab chiqarish intensivligini yuksaltirish bilan bog'liq. Biroq yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish texnogen halokatlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa tabiatga, odamlarga, ishlab chiqarishga sezilarli ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Demak, texnikaviy riskni ham hisobga olish darkor.

Texnikaviy risk ishlab chiqarishning tashkil etilganligi darajasi, ehtiyotkorlik tadbirlarining (uskunalarni muntazam profilaktikadan o'tkazish, xavfsizlik choralarini ko'rish) o'tkazilishi, uskunalar ta'mirlash ishlarini tadbirkorlik firmasining o'z kuchi bilan o'tkazilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi.

Texnikaviy riskga quyidagilar kiradi:

- ilmiy-tadqiqot ishlarining salbiy oqibati natijasida kelib chiqadigan yo‘qotishlar ehtimoli;
- konstruktorlik va texnologik ishlanmalar mo‘ljaldagi texnik ko‘rsatkichlarga erishmaganligi natijasida kelib chiqadigan yo‘qotishlar ehtimoli;
- ishlab chiqarish texnologik imkoniyatlarining yangi ishlanmalar natijalarini o‘zlashtira olmaydigan darajada past bo‘lishi sababli kelib chiqadigan yo‘qotishlar ehtimoli;
- yangi texnologiyalardan va mahsulotlardan foydalanishdagi nosozliklar yoki belgilangan muddatlardan kechikish natijasida kelib chiqadigan yo‘qotishlar ehtimoli;
- uskunalarning to‘xtab qolishi, buzilishi yoki shunga o‘xshash sabablar natijasida kelib chiqadigan yo‘qotishlar ehtimoli.

Ta’kidlash joizki, texnikaviy risk ichki risklar guruhiga daxldor hisoblanadi, chunki tadbirkor bu risklarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin, va ular odatda tadbirkor faoliyatining o‘zidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish riski mahsulot, tovar ishlab chiqarish, xizmatlarni ko‘rsatish, g‘ar qanady turdagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish bilan bog‘liq risk bo‘lib, bu jarayonda tadbirkorlar yo‘qotishlarga duchor bo‘lish, asosiy vositalar va xom ashyodan nojoiz foydalanish, tannarxning o‘sib ketishi, ish vaqti yo‘qotishlarining ortishi, ishlab chiqarishning yangi uslublardan foydalanish muammolariga yo‘liqadilar. Ishlab chiqarish risklarining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- tabiiy ofatlar yoki o‘g‘irlik natijasida asosiy vositalar, xomashyo, butlovchilarning yo‘qotilishi;
- ishlab chiqarish unumdorligi pasayishi, uskunalarning to‘xtab qolishi, ish vaqtining yo‘qotilishi, zarur materiallarning zarur miqdorda bo‘lmasligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ichida nuqsonli mahsulotlar ko‘p foizni tashkil etishi sababli mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish bo‘yicha mo‘ljallangan hajmlarning tushib ketishi;
- etarli darajada sifatga ega bo‘lmaganligi sababli, bozor kon’yukturasining nomaqbul o‘zgarishi, talabning tushib ketishi sababli mahsulotlarning rejalashtirilganidan ko‘ra past baholarda sotilishi;
- materiallardan, xom ashyodan, yoqilg‘idan, energiyadan isrofli foydalanilishi, shuningdek transport xarajatlarining, savdo xarajatlarining, ustamalarning o‘sishi va boshqa nomaqbul xarajatlar natijasida moddiy chiqimlarning ortib ketishi;
- belgilanganidan ortiq miqdordagi ishchi xizmatchilarni ishlatish yoki ayrim xodimlarga belgilanganidan ko‘proq miqdorda ish haqi to‘lash natijasida mehnatga haq to‘lash fondining o‘sishi;
- soliqlar va ajratmalar stakasining ish faoliyati jarayonida tadbirkorlik firmasi uchun nomaqbul tomonga oshirilishi;
- ta’minot intizomining pastligi, yoqilg‘i va elektr energiyasini etkazib berishdagi uzilishlar;
- uskunalarning jismoniy va ma’naviy eskirishi.

Tijorat riski – tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish chog‘ida vujudga keladigan risk. Tijorat riskining asosiy sabablari quyidagilar:

- tadbirkorlik firmasi tomonidan realizatsiya qilinayotgan tovarga bo‘lgan ehtiyoj yoki talabning tushib ketishi natijasida sotish hajmining qisqarishi, uning raqobatchi tovarlar tomonidan siqib chiqarilishi, sotuvga cheklov qo‘yilishi;
- tadbirkorlik loyihasi amalga oshirilayotgan pallada sotib olish narxining ko‘tarilib ketishi;
- kutilmaganda sotib olish hajmining ko‘zda tutilgan darajasidan pasayib ketishi va buning natijasida butun amaliyotning miqyosi qisqarib, sotuvga chiqarilgan har dona tovar birligiga xarajatlarning oshishi (shartli doimiy xarajatlarning hisobiga);
- tovarning yo‘qotilishi;
- muomala jarayonida (tashish, saqlash) tovar sifatining yo‘qotilishi orqali uning

narxining pasayishi;

- muomala xarajatlarning jarimlar to'lanishi, kutilmagan boj to'lovlari va ajratmalar natijasida ko'zda tutilganidan ko'ra ortiq bo'lishi va buning oqibatida tadbirkorlik firmasi foydasining pasayib ketishi.

Tijorat riski tovarlarning (xizmatlarning) bozorda sotilishi, tashilishi (transport), tovarlarning (xizmatlarning) xaridor tomonidan qabul qilib olinishi, xaridorning to'lovga lyoqatli ekanligi bilan bog'liq risklarni va fors-major vaziyati vujudga kelishi ehtimoli bilan bog'liq risklarni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlab o'tish joiz, mamlakat iqtisodiy adabiyotida tijorat riskini ko'pincha tadbirkorlik riski bilan bir xil talqin etiladi, ammo tijorat riski – bu tadbirkorlik savdo bilan ham bog'liq bo'lganligi sababli, tadbirkorlik riskining bir turi xolos.

Moliyaviy risk deganda odatda moliyaviy tadbirkorlik yoki moliyaviy bitimlar amalga oshirilayotganda vujudga keladigan risk tushuniladi, bu holda risk moliyaviy tadbirkorlikda tovar sifatida valyuta yoki qimmatli qog'ozlar yoxud pul mablag'lari yuz ko'rsatishidan kelib chiqish lozim. Moliyaviy risklarga: valyuta riski, kredit riski, investitsiya riski kiritiladi.

Keyingi vaqtda mamlakat tadbirkorlari uchun valyuta riskini hisobga olish masalasi tobora muhim kasb eta bormoqda. Mazkur risk turini batafsil o'rganib chiqaylik.

Valyuta riski – valyuta kursining o'zgarishi natijasida moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli bo'lib, u kontrakt imzolangan vaqt bilan kontrakt bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish orlig'idagi davrda yuzaga kelishi mumkin.

O'z navbatida, valyuta riski quyidagilarga ajraladi:

- iqtisodiy risk;
- pul o'tkazmalari riski,
- bitimlar riski.

Iqtisodiy yo'qotishlar riski tadbirkor uchun shundan iboratki, kelgusida valyuta kursining o'zgarishi oqibatida uning aktivlari va passivlari qiymati ko'payish yoki kamayish tomonga (milliy valyutada) o'zgarishi mumkin. Bu holat shuningdek sarmoyadorlarga ham tegishli bo'lib, ularning xorijiy investitsiyalari – aktsiyalari yoki qarz majburiyatlari xorijiy valyutada daromad keltirib turgan bo'lsa, unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Pul o'tkazish riski buxgalteriya ishi xususiyatiga ega bo'lib, firmaning xorijiy valyutadagi aktivlari va passivlarini hisobga olishda, agar firma aktivlari ifodalangan valyuta kursining pasayishi sodir bo'lsa, mazkur aktivlarning qiymati ham kamayadi.

Shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, pul o'tkazmalari riski o'zida buxgalteriyaga oid samarani aks ettiradi, iqtisodiy samarani esa kam aks ettiradi yoki butunlay ifodalamaydi. Iqtisodiy nuqtai nazarda bitim riski bir muncha muhim ahamiyatga ega, chunki u valyuta kursi o'zgarishining kelgusidagi to'lovlar oqimiga ko'rsatadigan ta'siri, binobarin, tadbirkorlik firmasining kelgusidagi foyda olish imkoniyati to'lig'icha o'rganiladi.

Bitim riski – xorijiy valyutadagi muayyan operatsiyalar bo'yicha valyutada ko'riladigan zarar ehtimoli mavjudligi. Bitim riski xorijiy valyutadagi bitimning kelguchida milliy valyutadagi qiymati noaniq bo'lganligi natijasida kelib chiqadi. Xatarning bu turi savdo kontraktlari tuzish chog'ida ham, kredit olish yoki kredit berish chog'ida ham mavjud bo'ladi va tushumlarning yoki to'lovlarning milliy valyutada qayta hisoblanganda vujudga keladigan o'zgarishlar ehtimolini o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, import qiluvchi uchun va eksport qiluvchi uchun valyuta riskini ajrata bilish zarur. Eksport qiluvchi uchun risk – to'lovni qabul qilish buyurtmasining olinishi yoki tasdiqlanishi paytidan va muzokaralar olib borilayotgan davrdan keyin xorijiy valyuta kursining tushib ketishidir. Import qiluvchi uchun risk buyurtmaning tasdiqlanishi bilan to'lov kunigacha oraliqda valyuta kursining ko'tarilib ketishi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyti sharoitlarida tadbirkorlik firmasi risklari ichida eng muhim risklardan biri kredit riski hisoblanadi. Bu risk tashqi qarz hisobidan firma faoliyatini moliyalashtirgan tadbirkorlik firmasi tomonidan investor oldidagi majburiyatlarini bajara olmay qolish riskidir. Binobarin, kredit riski korxonaning kreditorlan bilan, bank bilan va boshqa moliyaviy institutlar



bilan, kotragentlar, ya'ni ta'minotsilar va vositachilar, shuningdek aktsiyadorlar bilan ish yuzasidan olib borgan munosabatlari chog'ida vujudga keladi.

Kredit operatsiyalarining xilma-xilligi kredit riski vujudga kelishi xususiyatlarini va sabablarini avvaldan belgilab beradi:

- kreditdan foydalangan qarz oluvchining insofsizligi;
- tijorat kreditini yoki bank kreditini olgan muayyan tadbirkorning raqobatchilik holatining yomonlashuvi;
- noqulay iqtisodiy kon'yunktura;
- korxonalar rahbariyatining noqobilligi va h.k.

Xorijiy iqtisodiyotchi olimlar mulkiy, ma'naviy va ishga oid kredit risklarini ajratib ko'rsatishadi. Ishga oid risk odatda, tadbirkorning muayyan muddat ichida foyda olib bilish layoqati bilan bog'lanadi. Ma'naviy risk deganda, pul qarz olishning shunday bir qismidirki, bunda qarzning qaytarilishi qarz oluvchining ma'naviy xususiyatlariga borib taqaladi. Mulkiy risk qarz oluvchi aktivlari kreditni to'liq hajmda qoplash uchun etarli ekanligiga bog'liq.

Moliyaviy riskning keyingi turi - investitsiya riski hisoblanadi. Riskning bu turi tadbirkorlik firmasi tomonidan o'z pul mablag'larini turli xil loyihalarga kiritish tamoyillari bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiy adabiyotida ko'pincha investitsiya riski deganda, pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga tikish bilan bog'liq risk nazarda tutiladi. Biroq bu tushuncha ancha keng ma'noga ega bo'lib, pul mablag'larini investitsiya qilish bilan bog'liq risklar ehtimolini o'z ichiga oladi. Investitsiya riski guruhi o'z ichiga oladigan risklar quyida sanab o'tilgan:

- kapital riski – barcha investitsiya quyilmalari uchun umumiy risk bo'lib, sarmoyador tomonidan kiritilgan mablag'larni yo'qotishlarsiz bo'shatib olishining imkoniyati mavjud bo'lmaydi;

- selektiv risk – investitsiya quyilmasi uchun boshqa imkoniyatlarga nisbatan nojoiz ob'ektning tanlab olinishi;

- foiz riski – bozorda foiz stavkalarining o'zgarishi munosabati bilan sarmoyadorlar ko'rishi ehtimol tutilgan zarar riski;

- milliy risk – nobarqaror ijtimoiy va siyosiy vaziyat hukm surayotgan mamlakat yurisdiksiyasiga kiruvchi korxonaga pul mablag'larini kiritish;

- amaliyot riski – mablag'larni investitsiya qilish bilan bog'liq axborotga ishlov beruvchi kompyuter tizimidagi nosozliklar oqibatida kelib chiqishi ehtimol tutilgan zararlar riski;

- davriy risk – mablag'larni nojoiz vaqtda investitsiya qilinishi bilan bog'liq risk, chunki bu muqarrar ravishda yo'qotishlarga olib keladi;

- qonun o'zgarishlari riski – tartibga soluvchi qonunchilikning ko'zda tutilmagan holda nomaqbul tomonga o'zgartirilishi;

- likvidlik riski – qimmatli qog'ozni sotish chog'ida uning sifat bahosi o'zgarishi ehtimoli bilan bog'liq risk;

- inflyatsiya riski – inflyatsiya baland ko'tarilib ketganda investitsiyaga kiritilgan mablag'lardan olinadigan daromadlar o'sib borishga nisbatan tezroq qadrsizlanib ketadi (real xarid qilish layoqatiga ko'ra);

- tarmoq riski – tarmoq iqtisodiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlar sababli zarar ko'rish ehtimoli riski. Bu risk tarmoq ichidagi o'zgarishlarga ham, shuningdek boshqa tarmoqlar bilan solishtirish darajasiga ham bog'liq. Tarmoq riskini tahlil qilishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

- mazkur tarmoqning muayyan (tanlab olingan) muddat oralig'idagi butun faoliyati, shuningdek yondosh sohalar faoliyati;

- mazkur tarmoq faoliyatining butun mamlakat iqtisodiyoti bilan solishtirma barqarorligi;

- bitta tarmoq ichidagi korxonalar faoliyatining samaradorligi va natijalar bo'yicha ular o'rtasidagi tafovut.

Tarmoq korxonalari ishi bilan, demakki tarmoq bo'yicha risk darajasi bilan tarmoqdagi sanoat hayotining davriyligi bosqichi bilan hamda tarmoq ichidagi raqobat muhiti bilan bevosita bog'liqdir. Bu holda tarmoq ichidagi raqobat darajasi mazkur tarmoq korxonalarining boshqa

tarmoqlarning korxonalariga nisbatan barqarorligi to'g'risidagi axborot manbai bo'lib, odatga ko'ra, tarmoq riskini baholovchi omil hisoblanadi. Tarmoq ichidagi raqobat to'g'risida quyidagi axborot asosida hukm chiqarish mumkin:

- narhga aloqador va narhga aloqasi bo'lmagan raqobat darajasi;
- tashkilotning tarmoqqa kirishi engil yoki og'ir kechishiga, nahi bo'yicha yaqin bo'lgan yoki raqabatbardoshli bo'lgan o'rnini bosuvchilarning majudligi yoki etishmasligi;
- xaridorlarning bozordagi imkoniyatlari;
- ta'minotchilarning bozorlagi imkoniyatlari;
- siyosiy va ijtimoiy muhit.

Innovatsiya riski ayniqsa O'zbekistondagi tadbirkorlik faolyaitiga xos xususiyat hisoblanadi, zero uning ayrim tarmoqlari avj olib ravnaq topish, tovarlar va xizmatlarning yangi turlari va bozorlarini o'zlashtirish bosqichida turibdi.

Innovatsiya riski – bu tadbirkor tomonidan bozorda lozim darajada talabga ega bo'lmay qolish ehtimoli mavjud bo'lgan yangi tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mablag'lar kiritishi bilan bog'liq yo'qotishlar ehtimolidir. Innovatsiya riski quyidagi holatlarda vujudga kelishi mumkin:

- tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni joriy etishda raqobatchilarga nisbatan ancha arzon uslubdan foydalanish.

Bu kabi investitsiyalar tadbirkorga vaqtichalik, u ana shu texnologiyadan yagona foydalanuvchi bo'lib turgan chog'ida yuqori darajada foyda keltirishi mumkin. Bu vaziyatda tadbirkor faqat bittagina riskga – ishlab chiqarilayotgan tovarga nisbatan talabni noto'g'ri baholash riskiga duchor bo'lishi mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- yangi tovar yoki xizmatni eski uskunalarda ishlab chiqarish. Bu holda ishlab chiqarilayotgan tovarga nisbatan talabni noto'g'ri baholash riskiga, tovar yoki xizmat sifatining uni eski uskunada ishlab chiqarilishi bilan bog'liq ravishda past bo'lishi riski ham qo'shiladi;

- yangi tovar yoki xizmatni yangi texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarishda innovatsiya riski yangi tovar yoki xizmat turining narhi balandligi sababli o'z xaridorini topolmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

### 3. Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalashning xorij tajribasi

Ko'plab sug'urta qiluvchilar kichik savdo korxonalarini uchun risklarni standart qoplash shaklini ishlab chiqqanlar. Bunday polislar taqdim etadigan sug'urta qoplamlariga misollar quyida keltirilgan<sup>25</sup>:

- yong'in, yashin urishi, portlash, o'g'irlik, talnchilik, qo'zg'olon, yovuz niyatli odamlar, uchish apparatlari, er usti transportiga urilish, zilzila, bo'ron, suv bosishi, truboprovod yorilib ketishi hamda noyabr va dekabr oylarida sug'urta summasining mavsumiy oshirilishi natijasida magazin tovarlariga va savdo uskunalariga ziyon etkazilishi yoki shikastlanishi (o'ziga xos sug'urta qilingan sigaret va tamaki mahsulotlarini istisno qilganda). Xohlovchilar shartnomada ko'ngilsiz hodisa riskini qo'shishi va sug'urta summasi inflyasiya indeksiga muvofiq indeksatsiya qilib borilishi mumkin.

- yuqorida sanab o'tilgan risklar tufayli operatsiyalarning to'xtab qolishi (12 oygacha bo'lgan muddatda) oqibatida savdo foydasining yo'qotilishi, jumladan, savdo foydasini yo'qotish o'rnini to'ldirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar plyus da'volarni sertifikatlashga jalb qilingan professional buxgalterlar xizmatiga haq to'lash (kelishib olingan summa doirasida). Javobgarlik standart chegarasi ba'zida quyidagicha belgilanadi: savdo binolarini tiklash qiymati va stellajlar bo'yicha sug'urta summasi 1,5 koeffitsientga ko'paytiriladi va da'voni tuzishda ishtirok etadigan buxgalterlar ish haqi qo'shiladi.

- pulning yo'qotilishi;
- X f.st.dan ko'p emas: ishdan tashqari vaqtda seyda yoki ish vaqtida binoda bo'lgan pullarni transport vositasida tashishda;

<sup>25</sup> Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institut, Great Britain, 1993

- X f.st.dan ko‘p emas: seydan tashqarida, ish vaqtidan tashqari paytda magazinda, xo‘jayin yoki xizmatchilarning uyida bo‘lgan pullar;

- krosslangan cheklar bo‘yicha qo‘shimcha X f.st.dan ko‘p emas plyus o‘lim, bitta yoki ikkala ko‘zni yoxud qo‘l-oyoqlarning bittasi yoki ikkitasini yo‘qotishja X f.st. miqdorida kompensatsiya yoki inkassatorlarga hujum oqibatida ro‘y bergan to‘liq nogironlik bo‘yicha haftasiga X f.st. (17 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lganlar uchun). Bu holatda "pul" pochta orqali pul o‘tkazmalari, oziq-ovqat talonlari va qiymati e‘lon qilingan kuponlarni qamrab oladi.

- magazin eshiklari va derazalarida oynalarning sinishi, jumladan, oyna solish ishlari qiymati plyus qo‘shimcha ravishda tovarlarning shikastlanishi, X f.st.dan ortiq bo‘lmagan miqdorda.

- xizmatchilar va jamoatchilik vakillari oldida javobgarlik uchinchi shaxslar uchun etkazilgan ziyonning o‘rnini to‘ldirish chegarasi va tovarlar sifatiga da‘volar bo‘yicha chegaralanadi.

- xizmatchilar halolligi, jismoniy shaxslar bilan ko‘ngilsiz hodisalar, litsenziyani yo‘qotish kabi majburiy bo‘lmagan qo‘shimchalar.

Sug‘urta qildiruvchi aralash polis bo‘yicha sug‘urta qildirgan hollarda uning fikriga ko‘ra uning korxonasiga daxldor bo‘lgan barcha risklarni sug‘urta qoplamiga bemalol kiritishi mumkin; agarda paketli polis foydalaniladigan bo‘lsa, uning qoplami tarkibiga sug‘urta qildiruvchining xohishi bo‘yicha to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan standart risklar kiradi.

Savdo korxonalarini sug‘urta qilishda sug‘urta qiluvchilarda javob talab qiladigan bir qator savollar vujudga keladi. Eng avvalo, sug‘urta qiluvchilar riskni tarifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan axborot olishlari va shundan keyingina turli savdo bo‘limlari bo‘yicha sug‘urta summaları hajmini belgilashlari lozim.

Sug‘urta qiluvchiga riskni baholash uchun zarur bo‘lgan axborot korxonasi nomi, manzili, savdo turi va risk darajasi, bino qiymati, zaxiralar (vino, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari zaxiralari qiymati alohida ko‘rsatiladi), asbob-uskunalar va anjomlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator savollarni qamrab oladi. bunday axborot olingach, sug‘urta qildirishni istagan shaxsga sug‘urta o‘rtacha qiymatlarga asoslanishi va shu sababdan yakka tartibda o‘rin to‘ldirishning ayrim turlari ham o‘rtachalashtirilishi lozimligi eslatib o‘tiladi.

Savollardan maqsad – bino konstruksiyasini, uning tunda qo‘riqlanishi yoki qo‘riqlanmasligini, binoda joylashgan qaysi predmetlar yong‘in yoki o‘g‘irlik riski nuqtai nazaridan eng katta xavf tug‘dirishini bilib olish hisoblanadi.

Biroq bu axborot sug‘urta qiluvchiga ushbu riskni qabul qilish haqida qaror qilish va qaror qilingan holatda sug‘urta mukofotini hisob-kitob qilish uchun etarli emas. Sug‘urta qiluvchi, shuningdek, sug‘urta qildiruvchi polis bilan ta‘minlanadigan standart sug‘urta qoplamiga qaysi risklarni qo‘shish istagida ekanligini ham bilishi zarur. Bunday qo‘shimchalar, masalan, ishlab chiqarishda to‘xtalishlardan ko‘riladigan zararni sug‘urta qildirish holatida bo‘lgani kabi, sug‘urta summasini olishda(yoki etkazilgan zarar o‘rnini to‘ldirish davrini) bo‘lishi mumkin.

### REJA:

1. Pensiya sug'urtasining mohiyati, zarurligi va uni aholini himoyalashdagi ahamiyati
2. O'zbekiston Respublikasi pensiya sug'urtasining rivojlanish bosqichlari va amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari

**Tayanch so'z va iboralar:** *Pensiya, pensiya sug'urtasi, pensiya yoshi, davlat pensiya ta'minoti tizimi.*

### **1.Pensiya sug'urtasining mohiyati, zarurligi va uni aholini himoyalashdagi ahamiyati**

Sug'urtaning 2ta turini ya'ni davlat pensiya sug'urtasi va qo'shimcha pensiya sug'urtasini o'zida birlashtiruvchi pensiya sug'urtasi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi hamda fuqarolarning mehnatga qobilyatsiz davrida hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Bu sug'urta turlari shaxsiy sug'urtaning boshqa turlaridan boshqacha maqsadli xarakterga ega ekanligi bilan farqlanadi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasining asosiy maqsadi foyda oluvchi ya'ni sug'urtalovchi vorisning mulkiy manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi. Pensiya sug'urtasi ham sug'urtalanuvchilarning pensiyaga chiqqunga qadar daromadlarini ushlab turishni va pensiya davrida uning manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Sug'urtaga qonunchilikda ko'zda tutilgan erta pensiyaga chiquvchi kasb egalari xavfli mehnat sharoitlarida ishlovchilar, transprot ishchilari va h.klar, shuningdek I va II guruh nogironlari qabul qilinmaydi.

Sug'urta davri belgilangan pensiyaga chiqish yoshi bilan sug'urtalangan shaxsning shartnomasi rasmiylashtirilgan paytdagi yoshi orasidagi farq bilan aniqlanadi va u 1 yildan kam bo'lmasligi kerak.

Qo'shimcha pensiya sug'urtasining sug'urtasi hodisalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urtalanuvchining pensiya yoshigacha qolgan umri;
- sug'urtalanuvchining pensiya yoshiga etmagan vafot etishi;
- sug'urtalanuvchining pensiya yoshigaetgandan keyingi 5 yil ichida vafot etish.

Quyidagi holatlar sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi:

- sug'urtalovchining favqulotdda va urish holatlari paytida, shuningdek shartnomaning amal qilish hududidagi harbiy harakatlar paytida vafot etishi;
- sug'urtalovchining alkogol, narkotik, zaharli maddalar ta'sirida yoki qonunga g'ilof harakatlarni sodir etganda yoki o'z joniga suiqasd qilgandagi o'limi;

Qo'shimcha pensiya sug'urtasida quyidagi shartnoma sharti mavjud:

- muhlati uzaytirilgan annuitet bunda sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini bir yo'la bilan yoki belgilangan fursat ichida bo'lib-bo'lib to'lashi mumkin. Sug'urt annuitet uchun to'lovlar amalga oshirgunga qadar bo'lgan davr fursat kutadigan davr hisoblanadi. Sug'urta shartnomasida belgilangan kundan boshlab, sug'urtalangan shaxs umirbod vaqti-vaqti bilan tshlanadigan va shartnomada ko'rsatilgan miqdorda annuitetni olish huquqiga ega bo'ladi. Sug'urtalanuvchi vafot etgan taqdirda uning vorisi sug'urta summasidan olish huquqiga ega.

Pensiya sug'urta tizimi oldida quyidagi muhim maqsadlar turadi:

- keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolotlangan daromadni ta'minlash;
- bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash.

Pensiya sug'urta tizimini moliyaviy ta'minlash usullari:

- jamg'arma tarkibi,
- xususiy, kasbiy tizimlar va davlatning roli,

- ta'minot badallari va pensiya to'lovlarning o'zaro aloqasi pensiya tizimini amal qilishining samaradorlik darajasini belgilovchi muhim jihatlar hisoblanadi.<sup>26</sup>

Pensiya tizimiga sug'urta badallarini qayta taqsimlashning davlat mexanizmi yordami bilan individuallashtirilgan shetlardan foydalangan holda moliyaviy ta'minlash, pensiya tizimini tashkil etishning o'ziga hosligi, belgilangan yagona badallarni hisobga olgan holda, pensiya miqdorini belgilash kabilar xosdir.

Qarilik bo'yicha pensiya olish uchun muayyan ta'minot stajiga ega bo'lish va qonunda ko'rsatilgan pensiya yoshiga erishish zarur. Ta'minot staji deganda pensiya ta'minoti jamg'armasiga badal to'lovlari to'langan davr tushuniladi.<sup>27</sup> Ta'minot stajiga qonun bo'yicha ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lovlari davri kiritiladi. Evropa Ittifoqining (EI) ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada erkaklar va ayollar uchun 67 yosh, eng kam Frantsiya va Italiyada 60 yosh (Italiyada ayollar uchun pensiya yoshi 55 yosh qilib belgilangan).<sup>28</sup>

Pensiya ta'minoti tizimi qarilik bo'yicha asosiy va qo'shimcha pensiya va nafaqa shaklida quriladi. Qarilik bo'yicha asosiy pensiyalar qator Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyukbritaniya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlarda oldingi ish haqi miqdoridan qat'iy nazar barcha kishilar uchun bir xil pul summalari to'lovlari orqali beriladi. Ening qolgan mamlakatlarida asosiy pensiya belgilangan vaqt mobaynidagi o'rtacha ish haqi bilan belgilanadi va pensiyaning eng kam va eng yuqori miqdori chegaralangan bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha pensiyalar tarmoqlar yoki firmalar bo'yicha to'lanadi. Ular asosiy pensiyaning o'rtacha 10-20% ni tashkil etadi va u nafaqat pensiyaga chiquvchilarning daromadlarini qo'llab quvvatlash, to'ldirish usuli, balki ushbu korxonada (tarmoqda) kadrlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Pensiyani hisoblashda oila tarkibi hisobga olinadi (yolg'iz pensionerlar va bolalarning miqdori). Ening deyarli barcha mamlakatlarida pensiya indeksatsiyasi kiritilgan. Pensiya jamg'armalarini moliyalashtirishda ishlovchilarning ulushi uning umumiy hajmining o'rtacha 30-40% ni tashkil etadi. Badallarning aksariyat qismini ish beruvchilar to'laydilar. Pensiya badallari miqdori ishlovchilar uchun ish haqi miqdorining 67% dan (Belgiya, Buyuk Britaniya, Italiya) 12% gacha (Niderlandiya) tebranib turadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimi ko'pincha moliyalashtirish va qayta taqsimlashning aralash modelidan foydalanadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiyalar miqdori, bir tomondan, jamiyatda eng kam daromadlarni himoyasini ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikka erishish imkonini beradi, ikkinchi tomondan ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash imkonini beruvchi pensiyaga chiqish oldidagi ish haqi darajasi bilan bog'liq. Shunday qilib, davlat pensiya tizimida joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zaruriy badal turlarini yig'ish amalga oshiriladi. Pensiya miqdori esa, pensiya jamg'armasining faoliyat natijasiga, moliya bozoriga, mablag'larni samarali investitsiyalash darajasiga bog'liq bo'lmay, investitsion moyillikning susayishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Davlat pensiya ta'minoti tizimi** – iqtisodiy islohotlar sharoitida fuqarolarni qarilik, kasallik, mehnat qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanishlariga bo'lgan konstitutsion xuquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashi lozim bo'lgan asosiy ijtimoiy himoya institutlaridan biridir.<sup>29</sup> Olinadigan mablag'lar

<sup>26</sup> John Pitzer. *The Definition of a Social Insurance Scheme and its Classification as Defined Benefit or Defined Contribution*. June 30, 2009

<sup>27</sup> www.m-w.com-OnLine Dictionary

<sup>28</sup> US Pension Reform: Lessons from Other Countries. by Martin Neil Bailly and Jacob Funk Kirkegaard February 2009. Notional accounts in other countries. 324-6et.


<sup>29</sup> Pension Security in the 21st Century: Redrawing the Public-Private Debate. By Gordon L. Clark; Noel Whiteside Oxford University Press, 2003

miqdori sug'urta (mehnat) staji davomiyligi, ish haqi miqdori, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga bog'liq bo'ladi va qonun asosida tartibga solinadi.

Pensiya sug'urta tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

- fuqarolarni keksayganda qashshoqlikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqiga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;
- kelajakda pensiya tizimi orqali fuqaroni turmush darajasini yaxshilashdan iborat.(6.1.-rasm)

Pensiya sug'urtatining eng muhim iqtisodiy funktsiyasi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.



### 6.1-rasm. Pensiya sug'urta tizimining maqsadlari

Davlat ijtimoiy himoyasining maqsadga muvofiqligi va yuqori darajasini ta'minlaydigan ijtimoiy ta'minotning asosiy turlari quyidagilardir<sup>30</sup>:

- pensiya ta'minoti (qarilik bo'yicha, umumiy kasallanish va turmushda va transportda baxtsiz hodisalar natijasida nogironlik bo'yicha);


<sup>30</sup>. US Pension Reform: Lessons from Other Countries. by Martin Neil Baily and Jacob Funk Kirkegaard February 2009. Notional accounts in other countries. 324-6er.

- mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik va doimiy yo‘qotganlikdan ta‘minotlashni nazarda tutuvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ta‘minotlash (ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasbga oid kasallik holatlarida);
- ishsizlik holatlari bo‘yicha ta‘minot;
- tibbiy ta‘minot (kasallik tufayli mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik yo‘qotganlik ta‘minoti va tibbiy yordam ko‘rsatish).<sup>31</sup>

## **2.O‘zbekiston Respublikasi pensiya sug‘urtasining rivojlanish bosqichlari va amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Davlat pensiyalari dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda mavjud bo‘lib hozirda ham amal qilib kelmoqda. Respublikamizda amal qilayotgan pensiya ta‘minoti tizimi ma‘lum tarixiy yo‘llarni bosib o‘tgan bo‘lib, ularning tarixiy ildizlari XX asr boshlariga borib taqaladi va uning shakllanishi va rivojlanish tarixi besh bosqichlaridan iborat, bular:

### **6.2.-rasm Pensiya ta‘minoti tizimining rivojlanishi bosqichlari<sup>32</sup>**



O‘zbekistondagi pensiya ta‘minoti tarixidan qariyalarga g‘amho‘rlik O‘rta Osiyo xalqlari hayotida eng asosiy jabha bo‘lganiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu fikrning dalilini VIII – XV asrlar va undan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladigan diniy va tarixiy manbalardan olishimiz mumkin.

Ma‘lumki, omadli harbiy yurishlardan so‘ng Amir Temur o‘jangda ajralgan harbiy qo‘mondonlarga umrini ohirigacha pensiya belgilagan, ularning oilasi va ota-onasini, shuningdek, jangda halok bo‘lgan jangchilarning oila a‘zolarini moliyaviy jihatdan ta‘minlab borgan. Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida mehnat qobiliyatini yo‘qotgan ishchilar va ularning oila a‘zolariga hamda Toshkent, Qo‘qon, Jizzax va Samarqanddagi changalzor ustaxonalarida ishlagan ishchilar yordam ko‘rsatish maqsadida mustaqil ishchilar hamda batrklarning birlashmasi vujudga keldi. Bu kollektiv a‘zolarini kasallik chog‘ida, boquvchisini yo‘qotganda yoki dafn xarajatlarini ajratishga mo‘ljallangan moliyaviy yordamning ibtidoiy ko‘rinishi edi. Ushbu kassa mablag‘lari qat‘iy o‘rnatilgan ishchilarning majburiy to‘lovlaridan iborat bo‘lgan.

Turkiston o‘lkasi XIX asrning 60-yillaridan boshlab, Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgan va tegishli ravishda boshqarilgan. Mahalliy aholining ijtimoiy ta‘minoti masalasi haqida hech qanday farmonlar qabul qilinmagan. Chor hokimiyati davrida 1882-1909 yillarda

<sup>32</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009.

Sirdaryo viloyati bo'yicha 14 kishiga, Fargona viloyati bo'yicha 9 kishiga, Samarqand viloyati bo'yicha 2 kishiga pensiya tayinlangan bo'lib, bular ham xonning qarindoshlari, yuzboshi va imperatorning homiylari edi.

### 6.1-jadval

#### Mustaqillik yillaridan oldingi O'zbekistonda pensiya ta'minotining evolyutsiyasi<sup>33</sup>

1990	“SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi, va 1991 yildan kuchga kirdi.		
1972	“Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom qabul qilindi		
1964	“Kolxoz a'zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi		
1956	Davlat pensiyalari to'g'risida»gi birinchi qonun qabul qilindi		
1944	“Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni, “Qaxramon ona” faxriy unvonlari joriy qilindi va 1947 yildan Ko'p bolali onalarga nafaqalar tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom amal qila boshladi		
1930	Ijtimoiy ta'minot bo'yicha pensiya va nafaqalar to'g'risida”gi Nizomi bilan davlat pensiyalari tartibga solina boshlandi.		
1919	Ijtimoiy ta'minot Xalq komissarligi mustaqil organga aylandi, va 1920 yildan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining miqdorlari belgilandi		
1918	Davlat Xalq komissarligi nomi o'zgartirilib, Xalq ijtimoiy ta'minot bo'limi nomi bilan Mehnat Komissarligiga qo'shildi		
1917	Ijtimoiy himoya masalasi bo'yicha oziq - ovqat bilan ta'minlash Xalq Komissarligi tuzildi		

Pensiya ta'minoti rivojlanishining *birinchi bosqichi* 1917-1956 yillarni qamrab olib, bu davr “pensiya” va nafaqa tushunchalari paydo bo'lishi va hayotga o'rnatilishi bilan ta'riflanadi. 1917 yildan 1919 yilga qadar mazkur masala yuzasidan ellikdan ortiq dekret qabul qilingan bo'lib, ularning asosiy g'oyasi mehnatga qobiliyatsizlarni ijtimoiy jihatdan ta'minlashni jamiyat zimmasiga yuklashdan iborat bo'lgan. Bu davrda yagona pensiya tizimi yo'q edi va pensiyalar bilan ta'minlash tarmoqlar printsipi asosida olib borilar edi. Xususan, 1924 yilda birinchi bo'lib Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilariga pensiyalar tayinlangan, 1928 yilga kelib to'qimachilik sanoati ishchilariga pensiyalar berila boshlangan, 1929 yildan boshlab esa og'ir sanoat va mashinasozlik sanoatida pensiya ta'minoti amalga oshirilgan. 1930 yilda “Pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'g'risida” gi Nizom ishlab chiqilgan bo'lib, 1956 yilda “Davlat pensiyasi to'g'risida”gi qonun qabul qilingunga qadar shu nizom asosida to'lab kelingan. Mazkur nizomga muvofiq, pensiya bilan ta'minlash huquqiga faqatgina mehnatda jarohatlanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lgan shaxslargina ega bo'lgan. Bu bosqichning xususiyati - yagona pensiya tizimining mavjud bo'lmaganligidadir. Pensiya har bir tarmoq uchun belgilangan alohida tartib asosida tayinlangan. Pensiya ta'minotining rivojlanishining ushbu bosqichiga xos muhim jihatlardan biri, Ikkinchi Jahon Urushi davrida pensiya oid qonun hujjatlari harbiy xizmatchilar va ularni oilalarining pensiya ta'minoti haqidagi yangi qaror bilan to'ldirildi va keyinchalik ham takomillashtirilib borildi-ki, ularni tizimning daromad qismida ishtirok etmagan holda, xarajatlar qismida ishtiroki hozirga qadar ham saqlanib kelinmoqda. Bundan tashqari bu bosqichda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun - 60 yosh, ayollar uchun - 55 yosh qilib belgilangan va bu mezon ham hozirga qadar o'zgarmadi. Ushbu

<sup>33</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b



bosqichning alohida jihati shundaki, mamlakatimizning qishloq joylarida pensiya ta'minoti olib borilmagan, qishloq aholisining o'z mablag'lari hisobidan pensiyalar berilgan, ya'ni bu soha davlat tomonidan ijtimoiy qullab quvvatlanmagan.

*Ikkinchi bosqich*- (1956 yildan 1990 yilgacha) - pensiya tizimi 1956 yilda 14 iyulda "Davlat pensiyasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan qonuniy shaklni kasb etadi. Shu qonun asosida davlat tomonidan pensiya ta'minoti amalga oshirila boshlandi.

"Davlat pensiyasi to'g'risida"gi Qonunning 6 moddasida "Pensiya to'lovi davlat tomonidan yillik sobiq SSSR davlat byudjetdan ajratiladigan mablag' hisobidan amalga oshiriladi" deyilgan va shu davrdan boshlab korxonalar va mehnat kollektivi, shu jumladan, kasaba uyushmalari ham ijtimoiy sug'urta fondidan foydalanishga haqqi yo'q edi, biroq umumiy hajmi ish haqi fondining 40 foiziga teng bo'lgan sug'urta to'lovlari ko'rinishidagi pul mablag'larini to'lashga majbur edilar. Agar 1956 yilda mamlakatda qonun bo'yicha pensiya o'rtacha ish haqining 65 foizini tashkil etgan bo'lsa, Ittifoqning parchalanish davriga kelib ushbu ko'rsatkich 43 foiz bo'lgan. 1990 yilgacha (deyarli 60 yil) pensiya ta'minoti tizimida o'zgarish kuzatilmadi.

1956 yilda belgilangan ayollar uchun majburiy staj 20 yil va erkaklar uchun 25 yil hozirda bir qator MDH mamlakatlarida amalda. Shu tariqa pensiya ta'minoti bilan birga ijtimoiy sug'urta mamlakat daromadlarini qayta taqsimlovchi asosiy instrumentga aylandi va shu davrdan boshlab o'zining moliyaviy mustaqilligini yo'qotib, davlat budjetiga qo'shiladi.

1991 yilga qadar amal qilgan "SSSR Davlat pensiyasi to'g'risida" gi qonunning qabul qilinishi va yagona pensiya tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqarish va to'lashni yagona tartibini belgilab berdi. Mazkur qonunga amal qilgan davri davomida 18 marotaba o'zgartirish kiritilib, takomillashtirib borildi.

Mazkur qonunga asosan davlat pensiyasini olish huquqiga ishchi va xizmatchilar, harbiy xizmatchilar, oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarini, bilim yurtlarini va kadrlar tayyorlash maktablari va kurslarini tamomlaganlar, oshqaralar, agar ular davlat va jamiyat oldidagi ma'suliyatlarini bajarayotgan davrda nogiron bo'lib qolgan bo'lsa, yuqoridagilarga mansub bo'lgan fuqaroning vafoti munosabati bilan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolari.

Bu qonun bo'yicha aholini pensiyalar bilan ta'minlash doirasi ancha kengaydi. 1964 yildagina kolxoz ishchilarini inobatga olgan "Kolxoz a'zolari uchun pensiya va to'lovlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi. Masalan, ushbu yildan boshlab qishloq joylarda mehnat qiluvchilar ham pensiya oladigan bo'ldilar. 1965 yildan boshlab aholining hamma tabaqalariga pensiyalar tayinladigan bo'ldi. Bundan tashqari bu bosqichda har hil nafaqa va imtiyozlar to'langa boshlandi. Qonunga asosan pensiyalarning 3 turi mavjud bo'lgan: yoshga doir pensiyalar; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Pensiya tizimi taraqqiyotining birinchi va ikkinchi bosqichlarida aholini ijtimoiy ta'minlash tizimi etralicha rivojlandi va o'z ichiga ko'yidagi yo'nalishlarni qamrab oldi: pensiya ta'minoti; ijtimoiy xizmat imtiyozlari.

Hozirda mamlakatimizda amal qilayotgan uch turdagi davlat pensiya ta'minoti, yoshga doir pensiyaga imtiyozli ravishda chiqish va faqat bitta davlat pensiyasini tanlash kabi ko'plab pensiyaga oid munosabatlarning asoslari "Davlat pensiyasi to'g'risida"gi Qonun qonunga borib taqaladi.

*Uchinchi bosqich* (1991 - 2001y) ijtimoiy ta'minot tizimida islohotlarning boshlanishi va uning asosi bo'lgan "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida" gi qonunning qabul qilinishi (1990 yilda) bilan belgilanadi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, iqtisodiy amaliyotda ilk bor pensiya jamg'armasi ijtimoiy pensiyalar va daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. Bundan tashqari teng taqsimlash tamoyilidan chekinib, pensiya ta'minotini mehnat miqdori va sifatiga bog'landi. Pensiya miqdorini tayinlash uchun oylik ish haqi darajasi me'zon sifatida qabul qilindi.

Qonunga asosan barcha fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar pensiya olish huquqiga ega bo'ldi. Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti fuqarolarning pensiya ta'minoti ajratildi va alohida qonun asosida amalga oshirila boshlandi.

Demak, O‘zbekiston 1991 yilgacha sobiq SSSR tarkibida bo‘lganida, aholini pensiya bilan ta‘minlash milliy qonunchiligining evolyutsiyasi Rossiya xonligi va sobiq SSSR aholini pensiya bilan ta‘minlash qonunchiligiga bog‘liq bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, respublikamizda alohida ijtimoiy ta‘minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi. Mustaqillik munosabati bilan Respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta‘minotning mazmun mohiyati tubdan o‘zgardi. Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga o‘tib borishda aholining kam ta‘minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy qiynchiliklardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zaruriyati vujudga kelgan edi.

Bu borada ijtimoiy adolat koidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari keksalar, nogironlar, etim-esirlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo‘lgan kafolotli huquqlarini ta‘minlash zaruriyati paydo bo‘ldi.

Quyidagi 1.2.-jadvalda Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minoti tizimi evolyutsiyasi keltirilgan.

### Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minoti tizimi evolyutsiyasi<sup>34</sup>


6.2.-jadval

2009	Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining barcha pensiya tayinlovchi va TMEK birliklari Pensiya jamg‘armasi tarkibiga o‘tkazildi		
	<b>2005</b>	<b>Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tashkil etildi</b>	
		2004	Pensiya jamg‘armasi Moliya vazirligining idoraviy mansub tashkiloti etib belgilandi
		2000	<b>Pensiya jamg‘armasiga Davlat maqsadli jamg‘armasi statusi berildi</b>
		1997	Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashdi
		1996	<b>Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi</b>
		1994	1-iyuldan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni amalga kiritildi
	1993	<b>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etildi</b>	
1991	Milliy Pensiya tizimi faoliyat yurita boshladi		

*To‘rtinchi bosqich 1994-2001* yillarni o‘z ichiga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy himoya va pensiya ta‘minotiga qaratilgan davlat mablag‘laridan yanada samarali foydalanish maqsadida 1993 yil 4 avgustda sobiq SSSR Pensiya Fondining O‘zbek bo‘limi bazasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida ijtimoiy sug‘urta fondi tashkil etildi.

Ijtimoiy himoya va pensiya ta‘minotiga jalb qilingan davlat mablag‘larini jamlash, pul mablag‘larini tezkorlik bilan nazorat qilish va samarali ishlatilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 4 avgustdagi Qarori bilan Ijtimoiy sug‘urta Fondi tashkil etildi. Bunga qadar faoliyat yuritib kelgan ittifoq Pensiya fondining O‘zbek bo‘linmasining barcha vakolatlari va mablag‘lari respublika ijtimoiy sug‘urta Fondiga berildi. (-rasm)

<sup>34</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b



**6.3-rasm 1993-1996y. O'zbekiston pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi<sup>35</sup>**

1993 yil 3 sentyabrda esa "Aholining pensiya ta'minoti to'g'risida"gi birinchi Qonun qabul qilindi. Shu tariqa birinchi tashkiliy, qonuniy va moliyaviy asos solindi va bu o'z navbatida o'sha davrda davlatdagi 2,9 million pensioner va 400 ming nogironlarning<sup>36</sup> stabil pensiya va to'lovlarni olish imkonini berdi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatdagi tutgan o'rni, ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi huquqiy va iqtisodiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlashni tashkil etadi. Qonunga asosan pensiya turlari 3 turga ajratilib, ko'p yillik xizmatlari uchun pensiya yoshga doir pensiya tarkibiga qo'shib yuborildi. Ijtimoiy pensiyalar esa *Vazirlar Mahkamasining "Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"* 1994 yil 24 iyundagi 319-son qaroriga asosan nafaqalar deb yuritila boshlandi. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq qonunlaridan asosiy farqi - pensiya hisoblash sxemasidir. Ushbu sxema bo'yicha barcha turdagi pensiyalar uch qismdan iborat<sup>37</sup>:

Pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida *Vazirlar*

<sup>35</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b


<sup>36</sup> Vazirlikning O'zbekiston Respublikasining 1991 - 1992 yy ijtimoiy ta'minoti statistik hisoboti.

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi qonuni. 25-modda. O'zbekistonning yangi qonunlari. 9-son. –T.:Adolat. 2012yil. 36-b. .

*Mahkamasining 1996 yil 27 dekabr 459-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etildi.*

Pensiya jamg'armasining pul mablag'lari 1997 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga kiritildi, bunda bu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolindi.

Pensiya ta'minoti tizimidagi ma'muriy va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish doirasida *Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi 444-sonli *Qarori* bilan "pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida" 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. Ushbu qaror bilan: budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' ajratish va badallar miqdori hamda ularni to'lash muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi; budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilishi; budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritilishi; Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilishi belgilab qo'yildi.



**6.4-rasm. Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari<sup>38</sup>**

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritildi. Davlat soliq qo'mitasi budgetdan tashqari

<sup>38</sup> Nizom asosida tayyorlangan

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, badallar va to'lovlarni yig'ish va ularning to'liq tushishini nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradigan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarning o'z vaqtida tayinlanishi va to'lanishi, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlarning belgilangan tartibda moliyalashtirilishi ustidan nazoratini ta'minlaydigan bo'ldi.

Pensiya jamg'armasining barcha darajalardagi hisobraqamlaridagi 2004 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobraqamiga o'tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ma'muriy va iqtisodiy islohotlar doirasida Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning viloyatlar, shaharlar va tumanlarda bo'linmalari tashkil etildi. Natijada 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funksiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etildi. Natijada Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklatildi:

- fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;
- pensiyalar hamda boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil qilish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;
- pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iyan maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- mehnat mayibli yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarni to'lashga mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;
- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

Shuningdek, Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalarida tegishli bo'limlar tashkil qilindi. Ularning zimmalariga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- yangi tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilishi to'g'riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiyaga oid hujjatlar yig'majildida birlamchi hujjatlarning to'liqligi va ishonarliligini tekshirish yo'li bilan yoppasiga tekshiruvlarni amalga oshirish;

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tomonidan ishlovchi pensionerlarga pensiyalar hamda nafaqalarning hisoblab yozilishi va to'lanishi to'g'riligini reja asosida tekshirib turish;

- fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o'z vaqtida va to'liq to'lanishining tizimli monitoringini olib borish, qoidabuzarliklar aniqlanganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish;

- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan tekshiruv hujjatlari va xulosalarni, zarurat tug'ilganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda takroriy ekspertizalarni o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1252-sonli Qarori bilan pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo'limlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta'minot organlarining huquqiy vorislari (fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlar va majburiyatlar qismida) bo'lib hisoblanishlari belgilandi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg'armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi, Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va bo'limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi va Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjat sifatida amalga kiritildi. Ushbu nizom Jamg'armaning asosiy vazifalari va funksiyalarini, Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibini, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibini, Jamg'arma daromatlari va xarajatlari prognozini shakllantirish tartiblarini, Jamg'armani boshqarish va faoliyatini faoliyatini tashkil etish masalalarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-dekabrda qabul qilingan "Soliq va budjet siyosatining 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni orqali (1,5,26,28,29,30,31,36,37,38,40,59,63-moddalariga) o'zgartirishlar kiritildi. 2015 yil 1 yanvardan boshlab harbiy xizmatchilarni, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarini, sudyalarni va prokuratura organlarining darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarini, shuningdek ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga ushbu Qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiya olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslari, sudyalari va prokuratura organlarining darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlari pul ta'minotining barcha turlari fuqarolarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi. Pensiyalarning tayanch miqdorlari belgilanganda yoshga doir pensiya, I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida, oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosi boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida; ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100

foizi miqdorida belgilanadi. Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining to'rt barabari miqdorida dafn etish nafaqasi to'lanadi.

Respublikamizda 2014-yilning yakunlari natijalariga binoan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga eng muhim ustuvor vazifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini jadal rivojlantirish va modernizatsiyalash kompleks dasturlari tizimli va izchil amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari qayd etildi hamda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi ta'minlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining davlat pensiya ta'minotini tartibga soluvchi 48dan ortiq normativ huquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha qonuniy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar davlat pensiya ta'minotini boshqarish va samarali tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Bundan tashqari, pensiya ta'minotini tashkil etish, barcha turdagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va to'lash, Pensiya jamg'armasi daromadlarini prognozlashtirish va xarajatlarini amalga oshirish, pensiya ta'minoti bo'yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish kabi faoliyatlarni tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosatining olib borilishiga monand ravishda o'zgarib va takomillashib bormoqda.

## 7-MAVZU: Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taaluqli huquqlari. Davlat pensiyalarning turlari

### REJA:

1. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taaluqli huquqlari
2. Davlat ijtimoiy ta'minot tizimida davlat pensiyalarining ahamiyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati
3. Davlat pensiyalarini tayinlash, hisoblash va to'lash amaliyoti

**Tayanch so'z va iboralar:** *Davlat pensiyalari, ijtimoiy ta'minot, davlat pensiyalarining ahamiyati, davlat pensiyalarini tayinlash.*

### 1. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga taaluqli huquqlari

Mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholining ijtimoiy nochor katlamlarini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalarini ro'yobga chiqarilishi uchun yanada qulay moddiy-tashkiliy sharoit yuzaga kelmoqda. Amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari va ularning fuqarolarimiz kundalik hayoti mazmuniga samarali ta'siri biz barpo etayotgan yangi demokratik jamiyatning insonparvarlik maqsadlariga to'la mos keladi.

Mustaqillik yillari davomida amalga oshirilgan barcha ishlarimizning maqsad-mohiyati bo'lib, mamlakatimiz fuqarolari uchun farovon turmush ko'rsatkichlarini qaror toptirishdan iborat ekanligi hammaga ma'lum. Yigirma besh yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 5 barobar, aholi daromadlari jon boshiga o'rtacha 8,7 barobar o'sganini, mamlakatimiz aholisi bu davrda 1,5 marta ko'payib, 2017- yilning 1-yanvarida 32 million kishini tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish sohasida erishilgan marralar - aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat harajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida xapqimizning o'rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 2015 yilda 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga etgani bu sohadagi ulkan yutuqlarimizni so'zsiz isbotlab turibdi.

Ijtimoiy ta'minot barcha davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot sohasini tartibga solishga qaratilgan - dastlabqi normativ mexanizmlar 1991 yildan boshlab shakllantirilgan. Mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarini kafolatlovchi normalarning yaratilishi va o'rnatilishini, umuman olganda ijtimoiy himoya siyosatini olimlarimiz bir nechta bosqichlarga bo'lib o'rganishgan.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi munosabatlar dastavval 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solina boshlangan. Konstitutsiyamiz qabul qilinganidan keyin esa bu sohaga oid normalarning mustahkam asosi yaratildi.

Mamlakat mustaqil deb e'lon qilingan - 1991-yil 31-avgustdan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qiligan - 1992-yil 8-dekabrgacha bo'lgan davrni birinchi bosqich deb atashimiz mumkin.<sup>39</sup>

Ijtimoiy ta'minot siyosatining huquqiy tizimini barpo etilishi ikkinchi bosqichi esa bevosita Konstitutsiyamiz qabul qilinishi bilan bog'liq. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ilk bor fuqarolarning ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqlari bayon etib berildi. Bundan tashqari Mehnat kodeksi qabul qilinib, uning XVI bobi aynan pensiya ta'minoti bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratildi.

<sup>39</sup> Axmedov D.K. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik.-T.TDYUI, 2008y, 17 b



Bundan tashqari mazkur bosqichda birinchi Prezidentimizning Karimov I.A. ning 1992 yilda chop etilgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” risolasida iqtisodiy siyosat dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dasturda qayd etib o‘tilgan yo‘nalishlaridan bir aynan ijtimoiy ta‘minotni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda mehnat qilish, dam olish, har yili haq to‘lanadigan tahtilga chiqish, ishsizlarning ijtimoiy muhofaza huquqini amapga oshirish, insonning hayot ta‘minoti uchun zarur bo‘lgan ish haqi, pensiyalar, nafaqalarning kafolatlangan eng kam miqdorini joriy etish lozimligi qayd etilgan.

Uchinchi bosqich 1994 yildan, ya‘ni pensiya ta‘minotiga oid qonunchilikning shakllantirilganligi, aynan ijtimoiy taminot sohasini tartibga solishga karatilgan asosiy qonunlarning qabul qilina boshlashi bilan izohlanadi. Bu bosqichda ijtimoiy ximoyalash mexanizmlari yaratildi, ularning moddiy texnik bazalari, moliyaviy mablag‘lari tashkil etildi va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun sarflana boshlandi.

To‘rtinchi bosqich, 2000 yillardan boshlanib, buning mexanizmi esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yili qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti tizimlarini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar haqida”gi qarori va 2000-2005 yillarga mo‘ljallangan “2000-2005 yillarda yolg‘iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi tug‘risida”gi qarori, 2002-yil 25 -yanvardagi 33-sonli “Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarin 2002-2003 yillarda aniq yo‘naltirilgan holda qo‘llab-quvvatlash dasturini ro‘yobga chiqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, bundan tashqari mazkur qaror onalik va bolalik muxofazasiga doir “Ishlamaydigan onalar bola ikki yoshga etgunga qadar uni parvarish qilganlik uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, Prezidentimizning 2002-yil 25-yanvardagi “Ijtimoiy zaif aholi qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan holda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi farmoni va boshqa bir qator normativlarning qabul qilinganligida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda PF-4161 sonli “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilinishi bilan ijtimoiy ta‘minot sohasidagi islohotlarimizda tub burilish sodir bo‘ldi va pensiya ta‘minotining huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, bu sohadagi qonunchilik tizimini tejamlilik, oqilonalik, ijtimoiy adolat tamoyillarini yana ham kuchaytirish tomon takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar majmui ro‘yobga chiqarila boshlandi. Shuning natijasida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuniga, boshqa ko‘pgina qonun xujjatlariga jiddiy qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi, ular mazmunan zamon talablariga, islohotlarimiz mohiyatiga moslashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi 22-sonli “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan “Davlat pensiyalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlanganligi bu sohadagi izchillikni ta‘min etilishida, turli sun‘iy qiyinchiliklar yuzaga kelishining oldi olinishida muxim o‘rin tutadi.

Mehnat stajiga ega bo‘lmagan fukarolarni ijtimoiy ta‘minlash maqsadida nafaqalar tayinlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-apreldagi 107-sonli “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti tug‘risida”gi Uzbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash haqida”gi qarorida nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega” deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu Konstitutsiyaviy huquq fuqarolarmizning eng muhim ijtimoiy iqtisodiy huquqlaridan biri sifatida davlatimiz tomonidan kafolatlab qo‘yilgan. Mamlakatimizda bugungi kunda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 837 mingdan ko‘proq kishini tashkil etadi.

Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashayotganligi, ular orasida 3 ming 109 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 front ortida mehnat qilgan insonlar borligi quvonarli holatdir.

Hozirgi kunda keksa avlod vakillariga nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan ham moddiy va ma'naviy ko'mak berilayotgani va bunday yordamning miqyosi kengayib borayotgani e'tiborga sazovor.

Kishilarni ijtimoiy himoyalash va uni kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotiga sobitqadamlik bilan o'tishni ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda ijtimoiy himoya siyosatini mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan turli xil raqamlarda, keng ko'lamli jarayonlarda ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy himoya siyosati bugungi kunda turli sohalarida, jumladan, keksalarni, ayollarni, nogironlarni va umuman davlatning ijtimoiy ko'magiga muxtoj bo'lgan barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularga barcha shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi buning yaqqol isbotidir.

Keksalarimizni har tomonlama qadrlash maqsadida mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2013 yilda "Nuroniy" jag'armasi tomonidan shu maqsadda 610 million so'm 2014 yilning 9 oyida esa 553 million so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani "Mahalla hayriya jamoat fondi tomonidan 2015 yilda 1 milliard 597 million so'mdan ziyod, 2016 yilning o'tgan 9 oyida esa 1 miliard 614 million so'mlik yordam ko'rsatildi.<sup>2</sup> 2016 yilning o'zida pensionerlarga davlat byudjeti xisobidan 11 trillion 618 milliard so'mdan ortiq pensiya, 105 milliard so'mdan ziyod nafaqalar to'langani buning amaliy tasdig'idir. Dunyodagi kamdan-kam davlatlar qatorida bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag'ning miqdori o'rtacha oylikning 41 foizidan ziyodini tashkil etishi ham shundan dalolat beradi.<sup>40</sup>

Bundan tashqari ijtimoiy sohani rivojlantirishga, aholining ijtimoiy himoyalash choralarni ta'minlashga davlat byudjetidan har yili barcha byudjet mablag'larining qariyb yarmi ajratilmoqda. Shu hisobdan onalik va bolalikni muxofaza qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, davlatdan yordam olishga muxtoj bo'lgan oilalarga alohida e'tibor berilmoqda. Kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar to'lanmoqda.

Barcha amalga oshirilgan tadbirlar esa o'zining normativ mexanizmiga ega bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqlarini har tomonlama kafotlaydi.

Xalqaro miqyosda esa Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ijtimoiy ta'minot masalalariga doir 102, 118, 121, 128, 130, 157, 168 va 183 soshsh Konventsiya hamda 67, 69 va 202 sonli Tavsiyalar qabul qilingani ijtimoiy ta'minot sohasi shakllanishi hamda rivojlanishida o'zining ijobiy natijasini keng namoyish etayotganligi hammaga ravshan haqiqatdir,

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ijtimoiy ta'minog sohasini tartibga solishga qaratilgan Konventsiya va Tavsiyalar xalqaro va milliy doirada bir necha tomondan baholash mumkin. Birinchidan, ijtimoiy taminot olish bilan bogliq standartlar barcha davlatlarning milliy qonunchiligiga hamohang ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ikkinchidan, XMT ning Konvensiya va Tavsinlari boshqa davlatlar tomonidan unifikatsiya (internatsionalizatsiya) qilishi xarakteriga ega.

Ijtimoiy ta'minot har bir davlatda o'zining bir necha ko'rinishiga ega bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumki: ijshmoiy nafakalar, pensiya ta'minoti, yosh oilalarga ijtimoiy jixatdan ta'minlash. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan kabul qilingan "Ijtimoiy ta'minotning minimal normalari haqida"gi 102 sonli Konvensiya (1952)<sup>41</sup>da xam ijtimoiy ta'minotning miqdori va uni olish shartlarini, ijtimoiy ta'minot ko'rinishlari, jumladan, tibbiy yordam, kasallik nafaqasi, ishsizlik nafakasi, qarilik ponsnyasi, ishlab chiqarish jarayonida mayjib bo'lish

<sup>40</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yaxshilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan tarakkiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir. T-O'zbekiston.2015. 32 b.

<sup>41</sup> Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102 sonli Ijtimoiy ta'minotning minimal miqdorlari haqidagi Konvensiyasi (Jenovo 1952 -yil 28- iyun)

va kasb kasalligi uchun nafaqa, oila uchun to'lanadigan iafaqa, homiladordik va tug'ish nafaqasi, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik iensnyalarini o'zida aks ettiradi.

Yurtimizda qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadlariga yo'naltirilganligiga qaramasdan, ularni yanada takomillashtirish dolzarb masala xisoblanadi. Shuning uchun ham, pensiya taminotiga oid konunchilik bazasini takomillashtirish bugungi qunning muhim vazifasiga aylanmoqda. Garchand, mehnat qonunchiligida va pensiya qonunchiligida pensiya turlari, ularniig miqdori hamda sugurta qilingan hodimlarning davlat pensiyalari bilan ta'minlanishi, chet elda halqaro shartnomalarda nazarda tutilgan asoslarda, qonuniy yo'l bilan uzoq vaqt davomida ishlab, mazkur davralarda Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnat staji hisoblanib, pensiya tayinlanishi nazarda tutilgan bo'lsada, biroq Ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'lamanligi va o'zining daromad manbaini, ya'ni chet elda ishlagan davrini yashirganli oqibatida ishsiz deb e'tirof etilayotgan shaxslarga pensiya tayinlash tartibi, ularning mehnat qilish huquqlarini tartibga solishga doir huquqiy mexanizmni yaratish va uning joylarda ijrosini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida pensiya qonunchiligi taraqqiyoti mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga hamda huquqiy davlat barpo qilish sohasida qo'lga kiritgan yutuklarimizga mos bo'lishi lozim va fuqarolarimizning ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga har tomonlama ko'maklashish bilan birga bu sohada boqimandalikka yo'l qo'ymaslik, odamlarimizniig iqtisodiy faolliklarini yanada oshirishga xizmat qilmog'i lozim.

Jamiyatimizning ilgari tomon taraqqiy topishi va fuqarolarimiz huquq hamda manfaatlarini yanada to'liqroq ta'min etilishi, huquqlar kafolati va samaradorligini oshirilishi nuqtai nazaridan pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish ishlari davom ettirilishi muhim ekanligini qayd etgan holda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom yanada mukammallashtirilishi, pensiya qonunchiligi huquqiy asoslarining rivojlantirilishiga, umume'tirof etgan xalqaro talab va standartlarga yanada ko'proq mos bo'lishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda. pensiya ta'minoti sohasidagi qonunchilikni takomillashtirilishi va rivojlantirilishi xalqimizning tarixiy, milliy kadriyatlarini, insonparvarlik xislatlari bilan birga jahonning demokratik davlatlari, rivojlangan mamlakatlar qonunchilik amaliyoti, xalqaro hukuqiy ilg'or tajriba va tamoyillar e'tiborga olinib amalga oshirilishi lozim.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...asrlar sinovidan o'tgan mana shunday o'lmas qadriyatlarga tayanib, o'z kuchi va qudratiga ishonib-inonib yashayotgan xalkimizni o'z tanlagan yo'lidan hech kim hech kachon kaytara olmaydi. Biz o'z maqsadlarimizga albatga erishamiz va ko'zlagan marraparimizga albatta etamiz"<sup>42</sup>.

## **2.Davlat ijtimoiy ta'minot tizimida davlat pensiyalarining ahamiyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy sektorni isloh qilish strategiyasi doirasida amalga oshiriladi. Uning rivojlanishini har bir bosqichida ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi 2017-2021 yillarga mo'ljallangan bo'lib, undagi beshta ustuvor yo'nalishning turtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishning belgilangan. Strategiyaning to'rtinchi - "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"da iqtisodiy kompleks ishtirokida amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan, xususan:

---

<sup>42</sup> Karimov I.A.Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni katiyat bilan davom ettirish- bosh maqsadimiz. T.: O'zbekiston,2015-yil, 34 b

- aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta‘minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;
- ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va boshqalar.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan qator me‘yoriy va qonuniy hujjatlar asosida Pensiya jamg‘armasini boshqarish tizimi, tarkibiga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekistonda demografik vaziyat taxlili ko‘rsatishicha, kelajakda ishlayotgan fuqarolar soni bilan pensionerlar soni o‘rtasidagi nisbat kamayib boradi va ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to‘lash uchun ham etmaydi va xarajatlarni qisqartirishni taqozo qiladi.

Pensiya ta‘minotiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish uchun asosan uchta yo‘l mavjud:

- sug‘urta badallarini oshirish;
- pensiya miqdorlarini kamaytirish;
- pensiya yoshini oshirish.

Pensiya ta‘minoti tizimining asosiy ko‘rsatkichlari – pensiya yoshi, sug‘urta badallari miqdori, pensiyalarni indeksatsiya qilish tartibini qayta ko‘rib chiqish. Pensiya yoshi pensionerlar soni va sug‘urta badallarini to‘lovchilar soni o‘rtasidagi nisbatni tartibga soluvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko‘ra XXI asr o‘rtalariga kelib er shari aholisi soni 9 mlrd. kishidan oshib ketadi. Shu bilan bir qatorda tug‘ilish darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichga qadar pasayib 0,215 promilleni tashkil etishi, kutilayotgan umr davomiyligining o‘rtacha ko‘rsatkichi, 76 yoshni, rivojlangan mamlakatlarda esa 80 yoshdan oshib ketishi bashorat qilinmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda aholi sonining har yili o‘rtacha 0,2 foizga qisqarib borishi XXI asr o‘rtalariga kelib Evropa aholisining yarmi pensionerlardan iborat bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa mehnatga layoqatli aholi uchun bog‘liqlik koeffitsientining ortib borishiga olib keladi. Misol uchun, 2040 yilga borib har bir frantsuz ishchisiga bir nafardan pensioner to‘g‘ri kelishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Ushbu nisbat har qirq yilda o‘zgarib borgan, jumladan, 2000 yilda ikki nafar ishchiga bir nafar pensioner to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1960 yilda to‘rt nafar ishchiga bir nafar pensioner to‘g‘ri kelgan<sup>43</sup>. Ushbu holat pensiya to‘lovlari badalida davlat moliya tizimi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Taqsimotga asoslangan pensiya tizimi bir pensionerga 3-4 nafar ishlovchi to‘g‘ri kelgan vaqtdagina samarali hisoblanadi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyatida XX asr boshlarida 65 va undan katta yoshdagi aholiga 4-5 nafardan mehnatga layoqatli aholi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2020-2025 yillarga borib shu nisbat Evropa mamlakatlarida 1/2;5, AQShda esa 1/3;5 ni tashkil etishi kutilmoqda.<sup>44</sup>

Ko‘plab mamlakatlarda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda. Bundan tashqari to‘liq pensiya olish huquqini beruvchi mehnat stajini ham qisqartirish amaliyoti mavjud bo‘lib, u ishchilarni muddatidan oldin mehnat bozorini tark etish imkonini beradi (pensiya muddatidan oldin chiqish, nogironlik pensiyasi va b.). Ayrim mamlakatlarda esa aksincha, muddatidan oldin pensiyaga chiqish shartlari qiyinlashtirilmoqda. Masalan, Finlyandiya muddatidan oldin pensiyaga chiqish huquqi xususiy sektorda, Portugaliyada barcha ishchi, xodimlar uchun bekor qilindi. Ispaniyada esa muddatidan oldin pensiyaga chiqilgan har bir yil uchun pensiya miqdori 7 foizga qisqartiriladi.

AQShda pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich uzaytirish jarayoni 1983 yildan boshlangan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 67 yoshgacha uzaytiriladi. Buyuk Britaniyada pensiyaga

<sup>43</sup> Франция: пенсионная реформа//Электронный ресурс. «Новый пенсионер»: [www.pensioner.ru](http://www.pensioner.ru)

<sup>44</sup> World Population Prospects, Volume I-II/Population Division /UNDESA/UN Secretariat , New York, 2015. ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

chiqish ayollar uchun 65 yosh, keyinchalik 2024-2046 yillarda ayollar va erkaklar uchun pensiya yoshi 68 yoshga qadar uzaytiriladi.

Ayrim mamlakatlar (masalan, Kanada va Frantsiya) sug'urta badallari miqdorini oshirishmoqda. Shuningdek, pensiyalarni inflyatsiyaga bog'liq ravishda indeksatsiya qilish mexanizmalari va tamoyillari ham o'zgarishlarga uchramoqda. Masalan, Yaponiya va Shvetsiyada pensiyani indeksatsiyalash iste'mol narxlari o'sishiga mos ravishda, Germaniya va Avstriyada sof daromadlar indeksi asosida, Frantsiyada esa pensiyalarni indeksatsiyalash yuqorida qayd etilgan ikkala ko'rsatkichni ham hisobga oluvchi murakkab indeks yordamida amalga oshiriladi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlar pensiya yoshini ko'tarish yo'lini tanlashadi. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda jamoatchilikning aksariyat qismi fikri ushbu masalada salbiy hisoblanadi. Buning asosiy sababi respublikamizda o'rtacha umr ko'rish davomiyligining yuqori emasligida deb o'ylashadi. Vaholanki, mustaqillikning 20 yili davomida o'rtacha umr ko'rish 5,9 yilga oshganini, 60 yoshdan oshgan fuqarolarning o'rtacha umr davomiyligini asos qilib olgan holda pensiya yoshini oshirish sug'urta badallarini oshirish va pensiya miqdorini kamaytirishlardan ko'ra oqilona yo'l ekanligini anglash qiyin emas. •

Odatda pensiya yoshi haqida so'z ketganda, beixtiyor hayolga ojizlik, qaramlik, kasallik holati keladi. Yo'q, pensiya yoshiga– kasallik deb emas, aksincha komilik pallasi deb qarash kerak. Chunki pensiya yoshi–umrining eng mazmunli, serhosil fasli. Insonning umri davomida yig'ilgan yashirin imkoniyatlari yosh ulg'ayganda ochilib, aqli to'linib teran fikrlaydi, kashfiyotlar qiladi. Shunday ekan qarilikdan qo'rqish emas, hayot davomida orttirilgan tajribaga tayanib, aqlu shijoyat bilan ishlash lozim.

Yosh jinsdan farqli o'laroq, o'zgaruvchan miqdor bo'lib, u doimo ortib boradi. Aholining yosh tarkibini o'rganish uchun guruhlash, mutlaq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, grafik va boshqa usullar qo'llaniladi. Lekin yosh tasnifi inson hayotidagi ayrim bosqichlarni ifodalaydi.

Aholishunoslik entsiklopedik lug'atida esa keksalikning yosh guruhlari qo'yidagi davrlarga bo'lingan (7.1-jadval):

#### Keksalikning yosh tasnifi<sup>45</sup>

7.1.–jadval

Kalendar yosh	Yosh guruhlari hayot davri
61-74 yosh (erkaklar)	Qarilik
56-74 yosh (ayollar)	
75-90 yosh	Keksalik
90 yoshdan kattalar	Uzoq umr quruvchilar

Hozirgi vaqtda ko'p rivojlangan davlatlarda Butunjahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti mutaxassislari ishshlab chiqqan tasnifiga ko'ra qarish yosh guruhlari qo'yidagicha ta'riflanadi (7.2–jadval):

<sup>45</sup> Народо́насе́ление: Энциклопедический словарь. Москва. 1994г. с 461

## Qarish yoshining guruhlari<sup>46</sup>

7.2–jadval

Kalendar yoshi	Qarish yosh guruhlarning hayot davri
60-74 yoshdagilar	Qariyalar
75-89 yoshdagilar	Keksalar
90 va undan yuqori yoshdagilar	Uzoq umr qo‘ruvchilar

Gerandotlar (“Gerantologiya” insonning qarish jarayonini o‘rganadigan fan bo‘lib, yunoncha “geros” - qari va “logos” –bilim) tasnifiga qo‘ra , 60–74 yoshdagilar – qariyalar, 75–84 va, undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir.<sup>47</sup>

Yuqorida keltirilgan fikrlardan, o‘rganilgan manbalardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, keksalik yosh boshlanishi 60 yosh deb hisoblagan holda, undan keyingi qarish yosh guruhlari mehnat qilish qobiliyatini inobatga olib mehnatdan so‘ngi umr guzarligi deb hisoblash mumkin. Chunki bu yosh guruhidagi keksalarimizning aksariyat qismi mehnat faoliyatlarini to‘xtatib, nafaqaga chiqqan bo‘ladi.

Aynan shu yoshdagi aholi vakillari barcha mamlakatlarda tarkibidagi salmog‘i har hil bo‘lib, uzoq umr ko‘rish davri, ularga davlat yumonidai qaratilayotgani e‘tibor, yashash tarzlari ham bir xil emas.

O‘zbekistonda esa 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingga ko‘proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida respublika aholisining o‘rgacha yoshi ya‘ni, 1990 yilda 67 yosh bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kungacha kelib 73,5 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75,8 yoshga etdi. Ayni paytda mamlakatda 225 ming nafar 80 yovdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar - 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar iqtisodiy kilmoqda.

## O‘zbekiston aholisi tarkibida keksa aholi vakillarning salmog‘i<sup>48</sup>

7.3–jadval

Yillar	Jami aholi	Shundan:			Umumiy aholiga nisbatan, (foiz hisobida)
		60-69 yoshdagilar	70 va undan kattalar	60 yoshdan kattalar jami	
2003	25427.9	936.3	692.0	1628.3	6.4
2004	25707.4	896.6	700.4	1597.0	6.2
2005	26021.3	856.3	709.6	1565.9	6.0
2006	26312.7	823.9	715.9	1539.8	5.9
2007	26663.8	800.4	742.3	1542.7	5.8
2008	27072.2	803.2	762.1	1565.3	5.8
2009	27533.4	801.8	785.1	1586.9	5.8
2010	28001.4	810.7	814.1	1624.8	5.8
2011	29123.4	895.8	842.3	1738.1	6.0
2012	29555.4	948.8	855.5	1804.3	6.1
2013	29993.5	1027.0	862.3	1889.3	6.3

O‘zbekiston aholisi tarkibida 60 yoshdan o‘tganlar 2003 yillarda umumiy aqshshnmng 6,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2004 yildan kamaya bordi. 2011 yilga kelib 60

<sup>46</sup> Калинин И.В. Возрастная структура населения. М: Статистика, 2001г, с. 12

<sup>47</sup> Возраст мудрости – возраст создания. Программа развития ООН. Москва 2005г.

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yoshdan oshgan keksalarimizning umumiy aholi tarkibidagi salmogi 6,0 foiegn tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013 yilda 0,3 foizga ortdi. Olib borilgan kuzatishlar va taqlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholisining yosh tarkibi dunyo aqolisi yosh tarkibiga taqqoslansa, bolalar salmoginiig ancha yuqoriligi kuzatiladi va bu bilai aholisi yosh davlatlar qatoriga kiritilishini asoslaydi.

O'zbekistonda keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bularning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2002 yilni "Qariyalarni qadrlash yili", 2015 yilni "Keksalarni e'zozlash yili" deb z'lon qilinishini ko'rish mumkin. Bundan tashkari Birinchi Prezident Islom Karimovning 2015 yil 18 fevraldagi qarori bilan «Keksalarni e'zozlash yili» davlat dasturini tasdiqlangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagi «Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori O'zbekistonda har oyda yolg'iz keksalardan habar olib turish imkonini kuchaytirdi.

Bu amalga oshirilayotgan ijtimoiy tadbirlarda chetdan parvarishga muxtoj yolg'iz keksalar va nogiron kishilar keng qamrovli ro'yxatdagi ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish huquqiga ega shaxslar inobatga olingan.

Ularga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur tovarlar to'plami etkaziladi, boshka ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko'rsatiladi. Bunday toifadagi kishilarning salomatligi har yili bir marta davlat hisobidan sanatoriylarda mustahkamlanadi, dori vositadari bilan bepul ta'minlanib, boshqa ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lada,

O'zbekiston Global AgeWatch Index - 2015 reytingiga ko'ra umumiy aholisiga nisbatan uzoq umr ko'ruvchilar (100 yosh va undan oshganlar) soni bo'yicha davlatlar o'nligida Britaniya va Yaponiyadan so'ng uchinchi o'riinni kayd etgan bo'lsa, uzoq umr ko'ruvchilarning umumiy miqdori bo'yicha esa Yaponiya, Xitoy, AQSh, Britaniya va Italiya mamlakatlaridan so'ng oltinchi o'rinni egalladi.

### **3. Davlat pensiyalarini tayinlash, hisoblash va to'lash amaliyoti** **Yoshga doir pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to'lash amaliyoti**

1994- yil 1-iyulgacha bo'lgan davrda bu pensiyani qarilik pensiyasi deb yuritilgan. Qonunimizda erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqishini ayrim hollarda 50 yosh, 45 yosh hatto 40 yoshdan ham pensiyaga chiqish mumkinligini ko'zda tutgani uchun bu yoshdagilarni qariya deb atash g'ayrioddiy tuyuladi. Chunki ilmiy tadqiqotlarga ko'ra 61 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan davrni keksayish davri deb aytish mumkin. Yoshga doir pensiya tayinlash fuqaroni qarilik yoshini emas, balki mehnat qobiliyatini pasayishi yoki ayrim bir kasblar uchun mos kelmay qolishini hisobga olingan holda belgilanib, bu pensiyani olish uchun ayrim hollarda muayyan yoshga yetish va ish stajini mavjudligi, alohida hollarda esa faqat ish stajini mavjudligiga asoslanib tayinlanishini ko'zda tutgan.

Yoshga doir pensiya deganda, asosan fuqaroning o'tgan davrdagi ish stajini, jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini hisobga olgan holda umrbod tayinlanadigan davlat ta'minotining turlaridan biridir.

Yoshga doir pensiya tayinlashda pensiyaning miqdori fuqaroning ishlagan ish stajiga va olgan ish haqining miqdoriga bog'liq bo'ladi, ish staji va ish haqi miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, pensiya miqdori ham yuqori bo'ladi, lekin pensiyaning kam miqdori qonunda belgilab qo'yilgan miqdorlardan kam bo'lmasligi shart.

Ayrim hollarda pensiya miqdori fuqaroning imtiyozlarga egaligi va davlat oldidagi xizmatlarini hisobga olinadigan bo'lsa, pensiyaga chiqishdan oldin olgan ish haqi miqdoridan ham oshib ketishi mumkin.

Pensiya tayinlash uchun birinchi bosqichi zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etishdan boshlanadi. Shu bosqichda ham tashkilot ma'muriyati ham pensiya huquqiga ega bo'ladigan xodim ishtiroq etadi. Tashkilot ma'muriyati har yili dekabr oyida shaxsiy varaqchalar va mehnat daftarchalari asosida keyingi yilda ham umumiy, ham imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladigan xodimlar ro'yxatini tuzadi.

Barcha zarur hujjatlar bilan birga ariza qabul qilingan kun pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi. Agar ariza pochta orqali yuborilsa va bunda barcha zarur hujjatlar ham ilova qilingan bo'lsa, ushbu arizani jo'natishning pochta shtempelida ko'rsatilgan sanasi pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar hujjatlar ilova qilinadi:

- ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma; (ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin)).

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxs tomonidan pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Pensiya jamg'armasi bo'limi ushbu hujjatlarni tegishli tashkilotlardan talab qilish yuzasidan yordam ko'rsatadi.

Ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma shaxsiy hisob raqamlari va hisoblangan ish haqi to'g'risidagi boshqa hujjatlar asosida pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan tashkilot tomonidan beriladi. Agar tashkilot tugatilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z faoliyatini to'xtatgan bo'lsa, ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma tashkilotning huquqiy vorisi yoki davlat arxivi tomonidan beriladi. Arxiv saqlanayotgan hujjatlar asosida ish haqi turlari bo'yicha hisoblangan summalarni yoyib ko'rsatgan holda belgilangan shakl bo'yicha ish haqi turlari bo'yicha ma'lumotnoma berish imkoniga ega bo'lmagan hollarda, arxiv fondidagi mavjud hujjatlarga muvofiq ma'lumotnoma yoki ma'lumotlar berishi mumkin.

Ish haqi hisoblangan ish haqi summasidan olinadi. Ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya tayinlashni so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) oylik ish haqi olinadi. Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning xohishiga ko'ra o'qish davrida to'langan stipendiya ish haqiga tenglashtiriladi.

Pensiyani hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oydagi ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdoridan ortiq bo'lmagan summadagi o'rtacha oylik ish haqi qabul qilinadi.

Pensiya miqdori ish staji davriga bog'liq bo'ladi va quyidagi qismlardan shakllanadi (7-rasm):

- pensiyaning bazaviy miqdori;
- ish staji uchun pensiya oshirilishi;
- pensiyaga ustama haqi

Yoki quyidagi formula orqali yozishimiz mumkin:

$PM = TM + ISO + UH$ , bunda:


PM – pensiya miqdori;

TM – pensiyaning tayanch miqdori;

ISO - ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;

UH - pensiyaga qo'shiladigan ustama haq;





**7.1.-rasm. Pensiya miqdorining tarkibiy qismlari<sup>49</sup>**

Yoshga doir pensiyani hisoblash uchun quyidagi bazaviy miqdori belgilanadi qabul qilinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas belgilangan. Ammo 2014-yilning 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimcha qiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-379-son Qonuni qabul qildi. Shu Qonunga asosan pensiya sohasiga oid o‘zgartirishlar 2015-yilning 1-yanvardan kuchga kirdi, jumladan O‘RQ-379-son Qonun bilan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq endilikda pensiyalarning tayanch miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga nisbatan belgilanadi. *Oldin pensiyalarning tayanch miqdori eng kam ish haqiga nisbatan belgilanib kelingan.* Pensiya tayinlashda talab etiladigan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun yoshga doir pensiyaning tayanch miqdorlari - pensiya tayinlash uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida oshiriladi.


Pensiya tayinlashda talab etiladigan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun yoshga doir pensiyaning tayanch miqdorlari - pensiya tayinlash uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida oshiriladi.

Yoshga doir pensiya agar pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan kundan boshlab oltimish kun ichida pensiya so‘rab murojaat etilgan bo‘lsa, pensiya yoshiga to‘lgan kundan e‘tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi

Quyidagi misolda pensiyani hisoblab chiqarish uchun oylik ish haqini aniqlash, ish stajini hisoblab chiqarish, pensiya tayinlash uchun asos bo‘luvchi davrlar, qonunga muvofiq ish haqi hisoblashni yakka tartibdagi koeffitsientini aniqlash, pensiyaning tayanch miqdori, qo‘shimcha ish haqi uchun pensiyaning oshirilishi hamda pensiya yakuniy miqdorini hisoblab chiqarishgacha bo‘lgan ketma-ketlik keltirib o‘tildi.

Pensiyani aniqlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat(8-rasm):

<sup>49</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son Qarori 106 moddasi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan



## 7.2.-rasm. Pensiya aniqlash jarayonining bosqichdari

Fuqaro Ismoilova Nargiza Abdusamatovna 1962-yil 15-mayda tugʻilgan. Bugungi kunda 34 yillik ish stajiga ega. Pensiya tayinlash uchun murojat davr 1 - may 2017-yil. 2017-yil aprelda 55 yoshga toʻlgach, pensiya tayinlash uchun murojaat qildi va uning oxirgi 10 yil mobaynida mehnat faoliyatining 5 yillik davri uchun 2012-yilning may oyidan 2015-yilning aprel oylari tanlandi. Pensiya hisoblash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat

Belgilangan shu davr uchun 2012-yil maydan 2017-yilning 15 aprelgacha fuqaroga quyidagi miqdorlarda ish haqi hisoblangan (7.4-jadval) :

7.4-jadval

### Fuqaro Ismoilova Nargiza Abdusamatovnaning 2012-2017-yillardagi ish haqi to'g'risidagi MA'LUMOT<sup>50</sup>

Oylar	Yillar					
	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Yanvar	-	572000	680000	770000	880000	1100000
Fevral	-	572000	680000	770000	880000	1100000
Mart	-	572000	680000	770000	930000	1100000
Aprel	-	572000	680000	770000	930000	1100000
May	450000	572000	720000	820000	930000	-
Iyun	450000	572000	720000	820000	930000	-
Iyul	450000	620000	720000	820000	930000	-

<sup>50</sup> Fuqaro ish haqi to'g'risidagi ma'lumot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Avgust	450000	620000	720000	820000	930000	-
Sentyabr	520000	620000	770000	820000	980000	-
Oktyabr	520000	620000	770000	820000	980000	-
Noyabr	520000	620000	770000	880000	980000	-
Dekabr	520000	680000	770000	880000	980000	-

1-bosqich. O'rtacha eng kam oylik ish haqi (O'OIH) =  
 $130240 (2016\text{yil may-avgustdagi eng kam oylik ish haqi}) * 4 + 118400 (2016\text{yil sentabr-dekabrda eng kam oylik ish haqi}) * 4 + 149775 (2017-yil yanvar-aprel eng kam oylik ish haqi}) * 4 / 12 = 132805 \text{ so'm}$

2-bosqich

Ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida (ma'lumotnoma bo'yicha) ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini (IKZ) aniqlash

Buning uchun muayyan oyda daromadni shu oyda belgilangan EKIH bo'lamiz

Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini

$(IKZ) = \text{May 2015 daromad} : \text{may 2015 EKIH}$

2015 yil may oyda minimal ish haqi 118400 so'm tashkil qilgan.

$(IKZ) = 820000 : 118400 = 6.92$

3-bosqich. Qayta hisoblangan amaldagi ish haqini hisoblaymiz

Buning uchun IKZ ni O'OIH ga ko'paytiramiz.

$6.92 \times 132805 = 919010 \text{ so'm}$

4-bosqich. Pensiyaning hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqamiz:

Buning uchun, 60 oy uchun IKZ ni hisobga olib, qayta hisoblangan ish haqi summasini 60 ga bo'lamiz: Fuqaro N.Ismoilova pensiyani hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi 2012-2017y davrda 688553,3 so'm

Fuqaro 2017-yilning 15-aprelda pensiya tayinlashni so'rab murajaat qildi. Bu davrda belgilangan eng kam ish haqi 149775 so'mga teng. Pensiya tayinlashda hisobga olinadigan eng katta daromad EKIH ning 8 baravari (hozirgi davr uchun  $8 * 149775 = 1198200$ ) bilan cheklanadi. Fuqaroning o'rtacha oylik ish haqi so'mni 688553,3 tashkil etadi va bu EKIH ning sakkiz baravaridan kam. Demak, pensiya 688553,3 so'mdan hisoblanadi.

5-bosqich. Pensiyaning tayanch miqdorini hisoblab chiqamiz.

Tayinlanayotgan hozirgi yoshga doir pensiya uchun bu miqdor 55% ni tashkil etadi. Demak pensiyaning tayanch miqdori 378693.3 so'mni tashkil qiladi:

$688553,3 * 55\% = 378693,3 \text{ so'm}$

6-bosqich. Talab etilganidan ortiqcha ish stajini hisobga olib pensiyani hisoblab chiqaramiz.

Stajga talab etilganidan ortiqcha ishlangan har bir yil uchun tayanch miqdorga har bir qo'shimcha yil uchun o'rtacha oylik ish haqidan 1% qo'shiladi. Fuqaroning ish staji 39 yilni tashkil etadi. Ayollar uchun talab etilganidan ortiqcha 14 yil ( $34 - 20 = 14$ ) ish staji mavjud. Ushbu 14 yil uchun pensiyaning tayanch miqdoriga 96394.7 so'm  $[(14 * 1\%) * 688553,3 = 96394.7]$  qo'shiladi.

Shu tariqa, pensiyaning miqdori:

$688553,3 (pensiyaning tayanch miqdori) + 96394,7 (talab etilganidan ortiqcha staj uchun ustama haq) = 784948 \text{ so'mni tashkil etadi.}$

2015 yil 1 yanvardan buyon ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun pensiyalarning eng kam miqdori oldingidek eng kam ish haqiga nisbatan emas, balki Prezident farmoni bilan belgilanadigan yoshga doir eng kam pensiya miqdoriga mutanosib ravishda hisoblanadi.

### **Nogironlik pensiyalarni rasmiylashtirish va to'lash amaliyoti**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda 61/106-rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya" hamda "Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi Konventsiyaga Fakultativ protokoll" ana shu xalqaro hujjatlarning asoslari hisoblanadi. Ularda nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatlarini rag'batlantirish va himoya qilish, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini va bu huquqlardan boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlash tamoyillari belgilab qo'yilgan. Ushbu Konventsiyada nogironlarning huquqlari va asosiy erkinliklari, xususan ularning yashash, fuqarolik, huquqiy himoyalash, ta'lim olish, salomatliklarini saqlash, boshqalar bilan teng ravishda mehnat qilish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotda, bo'sh vaqtni o'tkazish, dam olish va sport bilan shug'ullanishda ishtirok etish, o'zlari va oilasi uchun yetarlicha turmush sharoitiga ega bo'lish va ijtimoiy yordam huquqlari e'tirof etilgan va ularni amalga oshirishning huquqiy kafolatlari belgilangan. Bunda ayniqsa, nogiron ayollar, bolalar va keksalar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi hukumati Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya" sini imzolagan.

Mamlakatda nogironlarning barcha huquq va erkinliklarini ta'minlashning mustahkam huquqiy asoslari ham yaratilgan. 2008-yilda mamlakat parlamenti yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi Qonunni qabul qilganligi, 2011-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011–2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi va ular ijrosi sobitqadamlik bilan ta'minlanayotganligi buning yaqqol dalolatidir. Mazkur amaldagi qonunchilikka muvofiq, davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida, ularning ijtimoiy yordam hamda himoyaga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilish dasturlari amalga oshirilishini, ularning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilishini kafolatlaydi.

Nogironlik pensiyasi haqida gap yuritar ekanmiz avvalombor nogiron fuqaroga ta'rif berishimiz zarur.

Nogiron shaxs bu - jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxsdir. Nogiron bolalar — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslardir<sup>51</sup>.


Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yoqotganligiga qarab, nogironlikning uch guruhi mavjud bo'lib, bu turdagi pensiya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlariga tayinlanadi.<sup>52</sup>

Nogironlikning guruhlari, sabablari, hamda nogironlik boshlangan vaqt va uning qancha muddatga belgilanishini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 11-iyul, O'RQ-162-son "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" gi Qonuni, 3-modda

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 49-son, 579-modda) (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

avgustdagi 175-son qarori bilan tasdiqlangan “Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari to‘g‘risida”gi Nizom asosida aniqlanadi.



**7.3.-rasm. Nogironlik pensiyalarning turlari<sup>53</sup>**

Nogironlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

- ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;
- ariza beruvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin);
- baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa boshqa rasmiy hujjat.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi

(7-jadval):

20 yoshga to‘lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to‘xtatilganidan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchranganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o‘tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan (umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

**7.5.-jadval**

**Nogironlik pensiyasini olish huquqini beruvchi ish staji<sup>54</sup>**

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20


<sup>53</sup>O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarni pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” gi Qonuning 17 moddasi

<sup>54</sup>O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarni pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” gi Qonuning 17 moddasi

Pensiyani hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan oʻrtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oydagi ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qoʻllagan holda qayta hisoblab chiqilgan umumiy miqdorini oltmishga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi. Agar nogironlik pensiyasini tayinlashda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish staji besh yildan kam boʻlsa pensiyani hisoblash uchun oʻrtacha oylik ish haqi kalendar ish oylari uchun qayta hisoblangan ish haqi umumiy summasini ushbu oylar soniga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi. Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qoʻllagan holda pensiyalarni hisoblab chiqish uchun ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Pensiyani hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdoridan ortiq boʻlmagan summadagi oʻrtacha oylik ish haqi qabul qilinadi. Pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan oʻrtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam boʻlgan yoki ish haqi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar toʻliq mavjud boʻlmagan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni soʻrab murojaat qilingan kunda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib mintaqaviy koeffitsient hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi.

Pensiya miqdori ish staji davriga bogʻliq boʻladi va quyidagi elementlardan shakllanadi (11-rasm):



**7.4-rasm. Pensiya miqdori tarkibi<sup>55</sup>**

Pensiyani hisoblash uchun bazaviy miqdorlari belgilanadi: I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas (yoshga doir pensiyalar — oyiga 231 575 soʻm, bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa — oyiga 231 575 soʻm, zarur ish stajiga ega boʻlmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 142 100 soʻm miqdorida<sup>56</sup>).

miqdori nogironlik boʻyicha pensiya tayinlangan kunda nazarda tutilgan ish staji mavjud boʻlganda oshiriladi.

*Pensiyaga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:*

- I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- koʻrish boʻyicha I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolgʻiz nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

<sup>55</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarni pensiya taʼminoti toʻgʻrisida” gi Qonunga asosan muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>56</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-son “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish toʻgʻrisida”gi Farmoni asosida

– 1941 — 1945 yillardagi urush davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi.

Nogironlik pensiyasi - agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya soʻrab murojaat etilgan boʻlsa, pensiya TMEK nogironlikni belgilangan kundan eʼtiboran tayinlanadi.

Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy koʻrikdan oʻtkazish faqat ularning arizalariga binoan amalga oshiriladi.<sup>57</sup>

Qayta koʻrikdan oʻtkazilgan shaxs mehnatga qobiliyatli deb tan olingan taqdirda pensiya uni mehnatga qobiliyatli deb topilgan oynning oxirigacha, lekin nogironlik belgilab qoʻyilgan kungacha boʻlgan muddatga toʻlanadi.

Agar nogiron uzrsiz sabablarga koʻra belgilab qoʻyilgan qayta koʻrikdan oʻtish muddatida TMEKga bormagan boʻlsa, unga pensiya toʻlash toʻxtatib qoʻyiladi. Lekin agar uni yana nogiron deb tal olinsa, pensiya toʻxtatib qoʻyilgan kundan, lekin koʻpi bilan oʻtgan bir oydan boshlab pensiya toʻlash davom ettiriladi.

Agar qayta koʻrikdan oʻtish muddati uzrli sabablarga koʻra oʻtkazib yuborilgan taqdirda, hamda agar TMEK uni ana shu davrda nogiron boʻlgan deb topsa, pensiya toʻlash toʻlov toʻxtatib qoʻyilgan kundan boshlab to qayta koʻrikdan oʻtish kunigacha, lekin koʻpi bilan oʻtgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta koʻrikdan oʻtgan boʻlsa, pensiya koʻrsatib oʻtilgan vaqt uchun avvalgi guruh boʻyicha toʻlanadi.

Umumiy kasallik oqibatida mehnat qobiliyatini yoʻqotgan nogironga mehnat qobiliyati tiklanganligi sababli pensiya toʻlash toʻxtatilganda yoki uzrsiz sabablarga koʻra qayta koʻrikdan oʻtishga kelmaganligi oqibatida toʻxtatib qoʻyilgan boʻlsa, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda, agar pensiyani toʻlash toʻxtatilganidan keyin besh yildan koʻp vaqt oʻtmagan boʻlsa, ilgari tayinlangan pensiyani toʻlash nogironlik belgilangan kundan boshlab davom ettiriladi. Agar besh yildan ortiq vaqt oʻtgan boʻlsa, pensiya yana umumiy asoslarda tayinlanadi.<sup>58</sup>

Qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolgʻiz pensionerlarga pensiya(barcha turdagi) bilan ular taʼminoti uchun sarf-xarajat oʻrtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi toʻlanadi.

Ruhiy bemorlar internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya toʻlanmaydi.<sup>59</sup>

Pensionerning statsionar davolanishda boʻlgan davri uchun pensiya toʻliq toʻlanadi.<sup>60</sup>2015-yil 1-yanvardan boshlab, ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi pensiyalar yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan kelib chiqqan holda 1-guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun – 100% miqdorda belgilangan.

### **Boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalarini tayinlash va toʻlash amaliyoti**

Boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasini tayinlashni soʻrab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

– pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tugʻilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;

– oila aʼzosining vafot etgan boquvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh toʻgʻrisidagi guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma, u boʻlmagan taqdirda - fuqarolik holati dalolatnomalaridagi yozuvdan koʻchirma, vakolatli tashkilotlarning yoki xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining maʼlumotnomasi);

<sup>57</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi 195-son Qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida tibbiy koʻrikdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning VI boʻlimi

<sup>58</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli “Davlat pensiyalarini tayinlash va toʻlash toʻgʻrisida”gi Nizomning 173-bandi

<sup>59</sup> “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonun, 60-modda

<sup>60</sup> “Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonun, 61-modda

- boquvchining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki uning bedarak yo‘qolganligi to‘g‘risida sudning qarori;
- vafot etgan boquvchining ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- vafot etgan boquvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin);
- vafot etgan boquvchining ish haqi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma.
- Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:
  - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining qaramog‘idagi oila a‘zolari tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomasi;
  - ta‘lim muassasasining vafot etgan boquvchining oila a‘zolari 16 - 18 yoshdagi o‘quvchilar hisoblanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomasi;
  - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining ota-onalari, turmush o‘rtog‘i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralariga, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta‘tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma‘lumotnomasi;
  - baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar boquvchining vafoti mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa boshqa rasmiy hujjat;

Boquvchi pensioner vafot etgan taqdirda ushbu badda ko‘rsatilgan zarur hujjatlar taqdim etilishi kerak, vafot etganning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida mavjud bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno.

Pensiya jamg‘armasi bo‘limi arizaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqi nogironlik oqibatida beriladigan oilaning katta yoshdagi a‘zosiga TMEKdan olingan nogironlik to‘g‘risidagi ma‘lumotnomaning tegishli qismini ilova qiladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi boshqa turdagi pensiya turlaridan farqli o‘laroq pensiyaning tayanch miqdori - oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a‘zosiga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida, ota-onasidan judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida belgilangan.<sup>61</sup>

Pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari tayanch miqdorlari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a‘zosi uchun - boquvchining o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining sakkiz barobari miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi - pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan kundan boshlab, lekin pensiya tayinlanishi uchun murojaat etishdan oldingi 6 oydan oshmagan muddatdan e‘tiboran tayinlanadi. Pensiya “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasiga muvofiq marhumning oila a‘zosi mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblangan butun davr uchun, oilaning: erkaklar - 60 yoshga, ayollar - 55 yoshga to‘lgan a‘zolari uchun esa - umrbod tayinlanadi.

Bir pensiyadan boshqasiga o‘tkazish pensioner tegishli ariza va barcha zarur hujjatlar bilan murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e‘tiboran amalga oshiriladi. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi to‘lashni to‘xtatishga sabab bo‘luvchi holatlar paydo bo‘lganida

<sup>61</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash to‘g‘risida”gi Nizomning 107-bandi



pensiyani to'lash ana shunday holat paydo bo'lgandan keyingi oyning birinchi kundan boshlab to'xtatiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi.

Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga pensiya ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, murojaat qilganning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi pensiya hujjatlar yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi.

Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining pensiya olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi. Ushbu holatda pensiya boquvchisini yo'qotganlik pensiyasidan ulush ajratib berish to'g'risida murojaat qilingan oydan keyingi oyning birinchi kundan boshlab tayinlanadi

Pensiya ishini rasmiylashtirishning barcha hollarida oila har bir a'zosining pensiyaga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan barcha hujjatlar tikib qo'yiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqini aniqlashda vafot etgan boquvchi oilasining nogironlikning III guruhiga ega bo'lgan a'zolari vafot etgan boquvchi oilasining mehnatga layoqatsiz a'zolari jumlasiga kiritilmaydi.

Agar vafot etganning bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nevaralari parvarishi bilan ular ikki yoshga to'lgungacha band bo'lgan oila a'zolaridan biri pensiya turlaridan bittasini oluvchi bo'lsa, u holda uning xohishi bo'yicha Qonunning 4-moddasiga muvofiq faqat pensiyaning bitta turi tayinlanadi.

Boquvchisining vafotidan keyin tug'ilgan bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi ushbu pensiyaga huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, pensiya tayinlash uchun birinchi marta murojaat qilinganda, boquvchi vafot etgan kundan boshlab 6 oydan kechikmay tayinlanadi. Qolgan holatlarda pensiya murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

Agar oilaning alohida yashaydigan a'zosining pensiyaga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar oilaning boshqa a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida qaror chiqarilganidan keyin tushsa, u holda alohida yashaydigan oila a'zosiga pensiya ulushi ajratilgan holda oilaning barcha a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risida yangidan qaror qabul qilinadi.

Oilaning ko'rsatib o'tilgan a'zosining tushgan hujjatlari amaldagi pensiya ishiga qo'shib qo'yiladi, pensiya ulushini ajratish to'g'risidagi qaror nusxasi esa, uning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi. Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratish uchun asos bo'lgan barcha zarur hujjatlarning nusxalari bilan birga pensiya ulushini oluvchiga mustaqil pensiyaga oid hujjatlar yig'majildini rasmiylashtirishi kerak.

Ulushli pensiyani to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya ulushini ajratgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga pensiya miqdorini qayta ko'rib chiqish yoki uni to'lashni to'xtatish zarurligiga olib kelgan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha ulushli pensiya oluvchi oilaning tarkibida yuz bergan barcha o'zgarishlar to'g'risida xabar qilishi shart.

## 8-MAVZU: IJTIMOYIY SUG'URTA SOXASIDAGI CHET EL DAVLATLARI TAJRIBASI

### REJA:

1. Ijtimoiy sug'urta tizimlari turlari
2. Rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining amaliyoti tahlili
3. Rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimlarining amaliyoti tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** *Ijtimoiy sug'urta, pensiya ta'minoti, pensiya tizimlari, davlat pensiyalari, mehnatga loyaqatsiz, xususiy pensiya ta'minoti, Fuqarolarning shaxsiy (jamg'arib boriladigan) pensiya tizimi.*

### 1. Ijtimoiy sug'urta tizimlari turlari

Pensiya ta'minoti bevosita mehnatga layoqatsiz aholi qatlamini himoylash mehanizmi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi jamiyatning barqaror rivojlanishining eng muhim ijtimoiy kafolati va negizi hisoblanadi.

Sivilizatsiyalashgan jamiyatda insonlarning qariganda va mehnatga layoqatini yo'qotganda ta'minlash uchun mablag'larni yig'ish ehtiyoji individual muammodan umummilliy muammoga aylanmoqda.

Har qanday mamlakatning pensiya ta'minoti tizimi o'ziga xos tashkiliy, moliyaviy va boshqa qator xususiyatlarga ega. Deyarli barcha mamlakatlar pensiya ta'minotini "uch pog'onali" tizim orqali amalga oshirishadi.

Bunga quyidagi pensiya ta'minoti tizimlari kiradi:

Davlat pensiya ta'minoti tizimi

Xususiy (nodavlat) pensiya ta'minoti tizimi

Fuqarolarning shaxsiy (jamg'arib boriladigan) pensiya tizimi


Davlat pensiya ta'minoti mamlakatning har bir fuqarosini yoki alohida guruhlari (masalan, davlat xizmatchilari)ni qamrab oladi. Davlat pensiya ta'minoti fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat huquqlarini ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi.

Davlat pensiyalari 3 guruhdan iborat (8.1-rasm):

Mehnat pensiyasi

Ijtimoiy pensiya va nafaqalar

Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar



### 8.1 - rasm. Dunyo mamlakatlarida davlat pensiyalari turlari

Mehnat pensiyasi - pensionerning ish stajidan va o'rtacha oylik ish haqidan, shuningdek to'lagan sug'urta badallari miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi va tayinlanadi. Mehnat pensiyasini olish huquqi fuqaro ma'lum bir yoshga to'lganida paydo bo'ladi. Bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha bo'lib, ko'pchilik xorijiy davlatlarda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra u ayollar va erkaklar uchun 65 yosh qilib belgilangan. Bizda bu ko'rsatkich ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshni tashkil qiladi.

Ijtimoiy pensiya va nafaqalar esa ish stajiga bog'liq bo'lmay, aholining ijtimoiy muhtoj qatlami uchun tayinlanadi va to'lanadi. Ijtimoiy pensiyalar turli davlatlarda turli shartlarda tayinlanadi. Masalan, AQShda ijtimoiy pensiya kam ta'minlangan fuqarolar uchun minimal pensiya miqdorida to'lanadi, agarda u fuqaro boshqa daromad manbaiga ega bo'lsa, ijtimoiy pensiya miqdori kamaytiriladi.

Davlat xizmatchilari uchun pensiyalar esa harbiy xizmatchilar, mansabdor shaxslar uchun tayinlanadi. Bu pensiya to'lovlari bevosita davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Masalan yaqin yillargacha Xitoy Xalq Respublikasida davlat pensiyasi faqatgina davlat xizmatchilari, amaldorlar uchun berilar edi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimi ijtimoiy soliqlar va to'lovlar hisobiga moliyalashtirilib, unda ishtirok etish barcha ishlovchilar va ish beruvchilar uchun majburiy hisoblanadi. Demak, davlat pensiya tizimining asosiy moliyaviy manbai ijtimoiy sug'urta tizimiga kiritiladigan to'lovlar hisoblanadi. U umumiy oylik ish haqining hajmiga bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha ko'rsatkichga (Kanadada 5 foiz, Italiyada 30 foizgacha) ega. Ayrim mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya)da to'lovlar ish beruvchi va ishchilar tomonidan teng miqdorda to'lanadi, boshqa mamlakatlar (Ispaniya, Italiya)da esa ish beruvchi zimmasiga yuk ko'proq tushadi. Ijtimoiy to'lovlar yoki soliqlar stavkalari har bir davlatning qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladi (8.1-jadval).

Davlat pensiya ta'minoti odatda solidar (taqsimlovchi) tizimga asoslanadi. Solidar tizimda pensioner o'z pullarini emas, balki ayni paytda soliq va badallar to'lovchilari bo'lmish ishlovchilarning pullarini oladilar. Shu tariqa, taqsimlovchi tizim o'zida avlodlar birdamligini ifodalaydi.

"Avlodlar birdamligi" ijtimoiy tamoyil bo'lib, u majburiy tartibda amalga oshirilganda va davlat darajasida hamda demografik holat ijobiy bo'lgandagina to'laqonli ishlashi mumkin.

### 8.1 – jadval

#### Xorijiy davlatlar pensiya tizimini moliyalashtirish manbalari

Davlat	Ishlovchilarda n ushlanmalar (oylik ish haqidan, %)	Ish beruvchilardan ushlanmalar (oylik ish haqi fondidan, %)
Shvetsiya	1	19,03
Belgiya	7,5	8,86
Fransiya	6,6	8,2
Gretsiya	6,67	13,33
Norvegiya	7,8	14,2
Italiya	8,7	21,3
Buyuk Britaniya	5-9	5-10,45
Yaponiya	8,25	8,25
Irlandiya	7,75	12,25
Turkiya	9	11
Ispaniya	4,7	23,6
Rossiya	1	29
O'zbekiston	7	24,8

Bu tizimning mohiyati shundaki, pensiya fondiga kelib tushuvchi pensiya sug'urtasi badallari ko'rinishidagi mablag'lar, pensiya fondlari hisob raqamida deyarli ushlanib qolmay, oylik pensiya to'lovlari ko'rinishida pensionerlar ixtiyoriga o'tadi. Shu tariqa pensiya to'lovlari o'rnatilgan miqdorlarda ta'minlanishi kafolatlanadi.

Xorijiy davlatlar davlat pensiya ta'minotini fuqarolarning pensiyaga chiqqanida ega bo'ladigan daromadiga ko'ra uchga bo'lish mumkin:

Yuqori darajadagi qoplash, qoplanish darajasi 50% dan yuqori;

O'rta darajada qoplash, qoplanish darajasi 50%;

Past darajada qoplash, qoplanish darajasi 50% dan past.

Qoplanish koeffitsienti – o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha oylik ish haqi nisbatiga teng bo'lib, Xalqaro Mehnat Tashkiloti standartlariga ko'ra qoplanish koeffitsienti darajasi fuqaroning mehnatga layoqatli davridagi oylik ish haqi (daromadi)ning 40 foizidan kam bo'lmasligi kerak 62 (1.2-jadval).

Shaxsiy pensiya hisob raqamda jamg'ariluvchi pensiyalarni fuqaro pensiya yoshiga yetgandagi olishi mumkin bo'ladi. Shaxsiy hisob raqamga o'tkazib turiluvchi sug'urta badallari oylik yoki yillik summasi ko'p mamlakatlarda chegaralangandir. Odatda shaxsiy pensiya hisob raqami tijorat va omonat banklarida, sug'urta tashkilotlarida ochiladi.

Jamg'ariluvchi tizim asosida, pul fondlarini tashkil qilish sxemasi yotadi. Unda barcha moliyaviy mablag'lar jamlanadi va uning ma'lum qismigina joriy pensiya to'lovlari xarajatlarini qoplashga sarflanadi. Qolgan, rezerv qismi esa daromad olish manbasi sifatida investitsiyalarga yo'naltiriladi.

Rezerv qism fond faoliyatining birinchi bosqichida, ishlovchi ishtirokchilar badallari umumiy summasi pensiya to'lovlari uchun zarur summadan ko'proq bo'lishi hisobiga shakllanadi. Fondning rivojlanishi va faoliyati darajasiga ko'ra ishlovchilarning sug'urta badallari joriy pensiya xarajatlaridan kamayadi, tafovut esa investitsion foyda hisobiga qoplanib boriladi.

Xorijiy davlatlarda jamg'arib borish usuli asosan nodavlat pensiya fondlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT)ga tegishli fondlar orasida keng tarqalgan. Lekin, ayrim xorijiy mamlakatlaridagi davlat pensiya tizimi yuqoridagi ikki tizimni ham, ya'ni, qayta taqsimlash (solidar) tamoyiliga tayangan davlat pensiya ta'minoti tizimini (u asosiy tizim hisoblanadi) hamda jamg'arma mexanizmiga tayanadigan fuqarolarning shaxsiy pensiya tizimini (qo'shimcha, to'ldiruvchi tizim) o'z ichiga oladi. Masalan, AQSh, Shvetsiya va O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi davlat pensiya tizimida ham qo'llaniladi.

Biroq dunyodagi har xil mamlakatlar tarixiy an'analar, joriy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, iqtisodiy imkoniyatlar va bir qator boshqa omillarga ko'ra ushbu ikki tizimning har xil qorishmasidan foydalanadi. Butkul o'xshash ikki pensiya tizimiga ega davlatni topish qiyin.

Xorijiy davlatlarda davlat pensiyasidan tashqari xususiy pensiya sug'urtasi tizimi ham joriy qilingan bo'lib, u korporativ (professional) yoki individual jamg'arma asosida qurilishi mumkin. Xususiy (nodavlat) pensiya ta'minoti tizimi biror bir sohaga oid kishilar majmuini qamrab oladi. Odatda bu rolda kasaba uyushmalari birlashgan yirik korxonalar, kompaniyalar va korporatsiyalarning mehnat jamoalari ishtirok etadi.

Ko'plab davlatlarning pensiya ta'minoti tizimida, xususiy pensiya tizimi salmoqli o'rinni egallaydi.

Korporativ pensiya tizimlari davlat va individual sxemalaridan farqli o'laroq ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirilib, firmaning ixtiyoriy ajratmalari yoki jamoa shartnomalaridagi mavjud shartlarga tayanadi. Korporativ pensiya tizimlari davlatning minimal aralashuvi ostida va nisbatan kam ma'muriy xarajatlarga ega bo'ladi. Biroq ayrim davlatlarda fuqarolarning huquqlarini himoyalash maqsadida xususiy pensiya tizimlarini nazorat qilish va tartibga solishga oid qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, fuqarolarning pensiya

---

<sup>62</sup> "Ijtimoiy ta'minotning minimal normalari to'g'risida"gi №102 Konvensiya. XMT 1952-yil.

ta'minotida korporativ pensiya tizimlari salmog'i juda yuqori bo'lgan AQShda, bu tizim uchun "o'yin qoidalari" davlat tomonidan o'rnatilgan va nazorat qilinadi. Shu sababli ham korporativ pensiya tizimi AQShda ikkinchi milliy pensiya tizimi darajasigacha ko'tarilgan. Buyuk Britaniyada esa xususiy pensiya tizimlarini rolini oshirish maqsadida uning ishtirokchilari uchun bir qator imtiyozlar yaratilgan. Masalan, korporativ pensiya to'lovlaridan soliqlar ushlanmaydi.

Korporativ pensiya tizimda ishchiga kelajakda to'laniladigan pensiya uning staji va oylik ish haqisining hajmiga bog'liq bo'ladi. Ishchi stajining davomiyligini korxonaga belgilaydi. Masalan, Germaniyaning AirBus, Mercedes, Siemens kabi yirik korxonalari hodimlari, ushbu korxonalarda minimum 10-yil stajga ega bo'lgan taqdirda korporativ pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Ish beruvchilar uchun korporativ pensiya tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad – raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun, eng yaxshi, malakali kadrlarni jalb qilish, kadrlar siyosati va intizomini mustahkamlashdan iborat hisoblanadi.

Demak, davlat yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi tizimlarda, ularning tashkil qilinish shartlari, pensiya ta'minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi tizimda davlat to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o'taydi.

## 2. Rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining amaliyoti tahlili

Barcha davlatlarning siyosiy-iqtisodiy sohadagi eng muhim masalalaridan biri pensiya ta'minoti masalalari hisoblanadi. Pensiya tizimlari bundan yuz yillar ilgari paydo bo'lib, bir qancha islohotlar bosqichidan o'tganiga qaramay, pensiya ta'minoti muammolari bugungi kunda rivojlanayotgan va xatto rivojlangan davlatlarda ham muhim tus ola boshladi. Bu muaommlarning jiddiylashuvi, u yoki bu mamlakatda avvallari pensiya islohotlari siyosatida unchalik e'tiborga olinmagan ijtimoiy-demografik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kelgusida bu omillar pensiya tizimlaridagi islohotlarda e'tiborga olinishi zarurdir.

Ana shu muammolar ta'sirida XX asr oxirlarida pensiya islohotlari deyarli barcha mamlakatlarni qamrab oldi. Bu islohotlarning maqsadi, har bir alohida davlatda o'zgargan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-demografik holatni hisobga olgan holda va o'rnatilgan umumjahon talablari va tendensiyalariga mos keluvchi yangilangan pensiya ta'minoti tizimini qurish va shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Demak pensiya ta'minotiga oid muammolar birinchi navbatda o'zgarib borayotgan demografik omillarga bog'liq. Ko'plab rivojlangan davlatlar (Yevropa, AQSh, Avstraliya)dagi demografik holat, hozirgi kunda o'ziga xos xususiyatga ega: ya'ni mehnatga layoqatli aholi sonining o'sishi sekinlashmoqda yoki qisqarmoqda. Shu bilan birga 60 va 80 yoshdan katta aholi qatlamining ko'payishi tendensiyasi kuzatilmoqda (2.1-jadval).

Bu esa shubhasiz jamiyatning mehnatga layoqatsiz qatlamining ko'payishiga, ya'ni pensionerlar sonining o'sishiga olib keladi.<sup>63</sup> Rivojlangan davlatlarda ushbu muammo yechimining asosiy yo'nalishlarini aniqlash muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

### 8.2 – jadval

#### Dunyo mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagi aholining o'sishi<sup>64</sup>

Mamlakatlar	65 va undan yuqori yoshdagilarni aholi umumiy sonidagi ulushi, %			
	2000	2010	2015	2000-2015 yillardagi farq
AQSh	12	13	14,1	+2,1

<sup>63</sup> Е.И.Иванова. "Мировой опыт развития пенсионных систем: общемировые тенденции и межстрановые различия" 2012.

<sup>64</sup> <http://www.Mvf.ru> Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari 2014

Buyuk Britaniya	16	17	18,1	+2,1
Germaniya	16	21	20,9	+4,9
Italiya	18	20	22,1	+4,1
Ispaniya	17	17	18,3	+1,3
Fransiya	16	17	18,5	+2,5
Yaponiya	17	23	26,2	+9,2
Xitoy	7	8	9,6	+2,6
Hindiston	4	5	5,8	+1,8
Rossiya	12	13	13,1	+1,1
O'zbekiston	4	4	4,4	+0,4

Bashoratlarga ko'ra, yaqin 40 yil ichida 20 yoshgacha va mehnat yoshidagi aholi soni muntazam kamayib boradi (2.2-jadval), pensionerlar soni yana 10 foizga ortadi. Yevropa ittifoqidagi mamlakatlarda esa 2020-yilga kelib, har bir pensionerga o'rtacha 3ta ishlovchi to'g'ri keladi.

Demak bugungi kun ishchilarining pensiyada munosib hayot kechirishlari uchun hozirdan qulay sharoitlar yaratish va pensiya tizimida munosib islohotlar o'tkazish zarurati juda muhim hisoblanadi.

### 8.3 – jadval

#### Dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining kamayishi <sup>65</sup>

Mamlakatlar	Mehnatga layoqatli aholi umumiy sonidagi ulushi (%)		
	2010 yil	2050 yil	Farqi
AQSh	62	56	-6
Yevropa ittifoqi	60	50,3	-9,7
Yaponiya	57	44,6	-12,4
Xitoy	68	53,7	-14,3
Rossiya	67,4	52,1	-15,3

Quyida bir nechta rivojlangan davlatlar pensiya tizimlarining bugungi kundagi holatini va amaliyotini ko'rib chiqamiz.

Germaniya pensiya tizimi Yevropadagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. "HelpAge" – dunyo mamlakatlarida qariyalarning hayot darajasi reytingi bo'yicha esa Germaniya faxrli uchinchi o'rinni egallaydi. Germaniya pensiya tizimining asosiy tamoyili bu "avlodlar birdamligi" (solidar) tamoyilidir. Germaniya o'z fuqarolarining qariganida qo'llab-quvvatlash choralarini XIX asrning oxirida boshlagan. Bugun Germaniya pensiya tizimi, barcha manfaatdor tomonlar ya'ni, davlat, ish beruvchilar, moliyaviy institutlar va fuqarolarning qiziqishlarini inobatga ololgan tizimlardan biridir.

Germaniyada pensiya ta'minoti (yoki sug'urtasi) uch xil ko'rinishda taqdim etiladi: davlat, korporativ va shaxsiy (2.1-rasm).

Davlat pensiya sug'urtasi oylik daromadi soliqlar hisoblangunga qadar €3900 dan oshmaydigan fuqarolar uchun majburiy. Oylik ish haqidan ajratmalar stavkasi esa 19,5% bo'lib, ish beruvchi va ishlovchi o'rtasida teng miqdorda taqsimlangan. Bu pensiya ish staji va

<sup>65</sup> Old-age in Europe. - Luxemburg: Office for official publications of the European Communities, 2011

professional tarif setkasidan kelib chiqib hisoblanadi. Pensiya ta'minotining bu qismi qayta taqsimlash asosida qurilgan.

Korporativ pensiyalar fuqaro ishlagan korxonada va tashkilot tomonidan (agarda ushbu tashkilotda korporativ pensiya tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lsa) taqdim etiladi. Germaniyaning Mercedes, Airbus kabi yirik kompaniyalari o'z ishchilarini qariganda pensiya bilan ta'minlaydi. Bunda pensiya miqdori kompaniyalarning daromadi, ishchining ish staji va mehnat lavozimiga bog'liq. Masalan, yuqori malakali mutaxassis oyiga €600 gacha, oddiy ishchilar esa €100-€200 gacha korporativ pensiya olishi mumkin.

Oylik daromadi €3900 dan oshadigan fuqarolar esa davlat pensiya sug'urtasidan voz kechib, shaxsiy pensiya tizimlarida ishtirok etishlari mumkin. Bu tizimda shuningdek, iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan fuqarolar, masalan, fermerlar, tadbirkorlar va ijod bilan shug'ullanuvchilar ham ishtirok etadilar. Bu pensiya tizimi bugungi kunda Germaniyada katta ommaboplikka erishmoqda. Sababi Germaniyaliklarning banklarga bo'lgan ishonchi yuqori va ular davlat ijtimoiy dasturlariga qaram bo'lib qolishni istashmaydi.

Pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun ham erkaklar uchun 65 yosh etib belgilangan. Pensiya olish huquqini beruvchi minimal ish staji 5 yil. Davlat pensiyalarining uch turi mavjud. Bular: a) qarilik (yoshga doir) pensiyasi, b) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi va c) qisman yoki butunlay mehnat layoqatini yo'qotganlik (nogironlik) pensiyasi.

Germaniya pensionerlarining o'rtacha pensiya miqdori erkaklar uchun €1050 va ayollar uchun €700 ni tashkil etadi. Biroq mamlakatda €300 dan kamroq pensiya oluvchilar ham mavjud (2.2-rasm) bo'lib, ular uchun hukumat tomonidan ijtimoiy to'lovlar ajratiladi.


Germaniya pensiya tizimining o'ziga xosligi va avzalligi shundaki, bo'lajak pensioner mamlakatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, inflyatsiya va hatto valyuta turidan ham himoyalangan. Mamlakat pul birligi o'zgarasa ham, pensionerning mehnat faoliyati koeffitsientlarda baholanganligi uchun bu narsa uning pensiyasiga hech qanday ta'sir qilmaydi.

Yuqorida keltirilgan demografik muammolar Germaniyaga ham ta'sir ko'rsatib, natijada mamlakatda yaqin 30 yilga mo'ljallangan islohotlar boshlab yuborilgan. Ularning negizini davlat pensiya ta'minoti bilan bir qatorda kelajak haqida qayg'urishda fuqarolarning shaxsiy rolini yanada oshirish tamoyili tashkil etadi. Shuningdek, 2030-yilga kelib, pensiya fondiga to'lanuvchi sug'urta badallari 22foizga oshiriladi, o'rtacha pensiya miqdori esa ish haqining 43,7 foizigacha pasaytiriladi. Pensiya yoshini esa 67 yoshga ko'tarish ko'zda tutilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) pensiya ta'minoti tizimi ideal bo'lmasada, dunyodagi eng mukammal tizimlardan biri hisoblanadi. Pensiya miqdorlari esa Yevropa mamlakatlarining o'rtacha pensiya miqdoridan yuqori.

"HelpAge" reytingida AQSh sakkizinchi o'rinni egallaydi.

AQSh pensiya tizimi taqsimlovchi va jamg'ariluvchi tamoyillar asosida ishlovchi davlat va xususiy pensiya tizimlaridan iborat (2.3-rasm). Shuning evaziga amerikaliklar o'zlarini bir emas uchta, ya'ni davlat, xususiy korporativ va shaxsiy individual pensiyalar bilan ta'minlashi mumkin.



1 - rasm. AQSh pensiya tizimi tuzilishi <sup>66</sup>

Davlat pensiya tizimida pensionerlar hozirda ishlayotgan va muayyan pensiya fondlariga badallar to'layotgan ishchilar hisobiga ta'minlanadi (2.3-jadval). AQShning "Umumiy federal dastur" (Social Security) deb nomlangan va iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lganlarning deyarli barchasini qamrab olgan yirik davlat pensiya tizimi qayta taqsimlash tamoyili asosida qurilgan. Dastur 1935-yilgi "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunga ko'ra amal qiladi va mamlakatda minimal pensiya ta'minotini kafolatlaydi.

8.4 – jadval

AQSh "Umumiy federal dastur"ini moliyalashtirish <sup>67</sup>

Yillar	Soliq olinuvchi maksimal ish haqi (ming.dollar yiliga)	Sug'urta badali normasi (%), ish beruvchi va ishchidan alohida
1937	3,0	1,0
1970	7,8	4,2
2000	76,2	6,2
2014	117,0	6,2

Jamg'arish tamoyili asosida ishlovchi davlat pensiya ta'minoti mamlakat hukumatining amaldorlari va harbiy xizmatchilarni qamrab oladi.

Korporativ pensiya olish huquqi hodimning kompaniyadagi ish staji 5-10 yil bo'lganida paydo bo'ladi.

Jamg'arishga asoslangan pensiya dasturlarining ikki turi mavjud:

1. Belgilangan to'lovlar bo'yicha ("defined benefit plan");
2. Belgilangan badallar bo'yicha ("defined contribution plan").

<sup>66</sup> Геннадий Залко. Американский опыт пенсионного обеспечения. Рынок ценных бумаг №17 (272), 2007.

<sup>67</sup> OASDI Trustees Reports 1978-2015



Belgilangan to'lovlar dasturi bo'yicha jamg'armalar - ish beruvchilarning ajratmalari orqali moliyalashtiriladi, ishlovchilar bu fondlarga badallar to'lamaydi.

Belgilangan badallar dasturi bo'yicha jamg'armalar esa ish beruvchilar va ishchilar tomonidan teng miqdordagi ajratmalar o'tkazish orqali shakllantiriladi.

Har bir amerikalik tijorat va omonat banklarida o'zining shaxsiy pensiya hisob raqami (IRA-individual retirement account)ni ochish huquqiga ega. Shaxsiy pensiya hisob raqamlariga o'tkaziladigan yillik badallarning yuqori chegarasi 2000\$ miqdorida belgilangan. Hisob raqamdagi mablag'larni 59,5 yoshga etgunga qadar yechish mumkin emas, 79,5 yoshdan keyin esa hisob majburiy tartibda yopiladi.

Davlat pensiya fondiga to'lovlar quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

- Ishchining yillik daromadi 65400\$ gacha bo'lsa – 7,65 foiz. Bu soliq ikki qismdan iborat: 6,20 foiz - qariyalar, bevalar, yetimlar va nogironlarni pensiya bilan ta'minlash uchun majburiy sug'urta - “Retirement, survivors and disability insurance”; 1,45 foiz - qariyalarni tibbiy ta'minlash uchun soliq - “Hospital Insurance”.

- 65400\$ dan ortiq miqdordagi yillik daromaddan faqat “Hospital insurance” solig'i (1,45%) undiriladi. Albatta bunday katta daromadli shaxslar soni uncha ko'p emas.

- Ish beruvchilar ham davlatga ishchilar bilan teng miqdorda ya'ni 7,65% soliq to'laydi; shunday qilib, to'langan ish haqining har 100\$ iga Umumiy federal dasturga 15 \$ ga yaqin soliq kelib tushadi.

- Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan, ya'ni ish beruvchiga ega bo'lmagan shaxslar pensiya solig'ining ikkala qismini, ya'ni jami 15,3 foizni to'laydi.

Pensiya olish huquqi 65,5 yoshda paydo bo'lib, talab qilinuvchi minimal ish staji 10 yilni tashkil etadi. AQShda o'rtacha davlat pensiyasi miqdori oyiga 1100\$-1200\$ ni tashkil etadi.

Bugunga kelib, o'rtacha umr ko'rish yoshining uzayishi natijasida, AQSh hukumati pensiya yoshini bosqichma bosqich 67 yoshga ko'tarish ishlarini boshladi.

Shvetsiya. 2013-yilda eng yuqori pensiya miqdori Shvesiyada qayd etilgan. Pensiya miqdori pensionerning oldingi ish haqidan 70% ni tashkil etadi. “HelpAge” reytingida bu mamlakatga faxrli birinchi o'rin berilgan.

XX asrning 90-yillarigacha mamlakat pensiya tizimi butunlay solidar tamoyilga asoslanar edi. Demografik holatning yomonlashuvi tufayli, 1998-yilda parlament tomonidan pensiya tizimi islohoti olib borildi. Yangi pensiya tizimi 2003-yildan amalga kiritildi va 1938-yildan keyin tug'ilganlarni qamrab oldi. 1938-yilgacha tug'ilganlar eski tizim bo'yicha pensiya oladi.

Davlat pensiya tizimi uch pog'onali hisoblanadi (2.4-rasm):

1. Taqsimlovchi yoki shartli jamg'ariluvchi tizim

2. Jamg'ariluvchi tizim

3. Ixtiyoriy tizim

2Taqsimlovchi tizimda pensiya ishchining ish haqiga bog'liq bo'lib, ish haqidan 16 foiz miqdoridagi badal hisobiga shakllanadi. Bu tizimda pul birligi ko'rinishida ifodalangan, shartli pensiya majburiyatlari jamg'ariladi. Shartli jamg'armalar mamlakatdagi demografik holat va ish haqi darajasini hisobga olib indeksatsiya qilinadi. Pensiya miqdori shartli jamg'armalar va kutilayotgan umr davomiyligi asosida aniqlanadi. Bu pensiya olish huquqi 61 yoshda paydo bo'ladi.

Jamg'ariluvchi pensiya tizimida pensiyalar individual pensiya hisob raqamlarida, ish haqidan 2,5 foizlik ajratma hisobiga shakllanadi. Jamg'armalar ishchining ixtiyoriga ko'ra bir yoki bir nechta pensiya fondlarida joylashtiriladi, bu fondlar bozor mexanizmlari yordamida pullarni investitsiyaga yo'naltiradi. Bu pensiyani ham 61 yoshdan olish mumkin.

Ixtiyoriy pensiya tizimida professional korporativ pensiya ta'minoti mamlakatda keng miqyosda tarqalgan bo'lib, u deyarli 90% ishchilarni qamrab oladi. Bunda ishchilar pensiyaga chiqishdan oldigi oxirgi ish haqisining o'rtacha 10% miqdorida pensiya bilan ta'minlanadi. Shuningdek ixtiyoriy shaxsiy jamg'ariluvchi pensiya tizimlari ham mamlakatda ancha tez ommalashmoqda.

Bundan tashqari mamlakatda davlat budjetidan moliylashtiriluvchi kafolatlangan pensiya ham mavjud bo'lib, u haddan tashqari kam taqsimlovchi va jamg'ariluvchi pensiya oladiganlar yoki umuman olmaydiganlar uchun to'lanadi. Pensiya miqdori yashash minimumining 2.13 barobariga teng. Bu pensiya fuqaro 65 yoshga to'lganda va mamlakatda 40 yil yashagan taqdirda to'liq miqdorda beriladi. Har bir yetishmagan yil uchun pensiya 1/40 miqdorida kamaytiriladi.

Shvetsiyada pensiya yoshi ayollar va erkaklar uchun 65 yosh etib belgilangan. 65 yoshdan keyin ishlangan har bir yil uchun pensiya 10% ga ortadi. Pensiya tayinlanayotganda maxsus hisob raqamda jamg'arilgan 30 yillik summa hisobga olinadi. Shvetsiyada minimal pensiya miqdori 5500 kron (600\$), o'rtachasi 9200 kron (1000\$) va maksimal pensiya miqdori 36800 kron (4000\$).

### **3. Rivojlanayotgan davlatlar pensiya tizimlarining amaliyoti tahlili**

Rivojlanayotgan davlatlarda olib borilayotgan pensiya islohotlari industrial rivojlangan mamlakatlardagi islohotlar kabi keng e'lon qilinmasada, biroq ular anchagina keskin chora-tadbirlardan iborat. Rivojlanayotgan davlatlarda ham bunday tub islohotlarni olib borish uchun asosiy sabab, bu demografik holat sanaladi. Rivojlanayotgan davlatlarda bu holat hatto AQSh va ayrim G'arbiy Yevropa mamlakatlarinikidan ham ancha yomonroq ahvolda. Eng jiddiy muammo – aholining qarishidir. Quyida bir nechta rivojlanayotgan davlatlarning pensiya tizimlari va ularning bugungi kundagi holatini ko'rib chiqamiz.

Ukraina qarimoqda. Hozirda mamlakatda 13,7 mln.ga yaqin pensionerlar istiqomat qiladi. Davlatga keksa yoshdagi fuqarolari oldidagi majburiyatini bajarish tobora qiyinlashmoqda. Demografik o'sish mamlakatda juda og'ir ahvolda. Tug'ilish koeffitsienti 1,2 ga teng. Bu nominal koeffitsientdan (2,15) sal kam ikki barobar kamroq.

1956-yilda Ukrainada Bismark modeli namunasi bo'yicha pensiya tizimi amalga kiritildi. U paytda mamlakatda demografik holat tug'ilishning yuqoriligi va mehnatga layoqatli aholining pensionerlardan ancha ko'pligi bilan ifodalanar edi. 1956-yilda 100 ta ishlovchiga 22,7 ta pensioner to'g'ri kelar edi. Keyingi o'n yilliklar davomidagi demografik o'tish oqibatida ishlovchilar va pensionerlar orasidagi nisbat ikki barobar - 22,7 foizdan 41,1 foizga oshdi.<sup>68</sup> Milliy fanlar akademiyasi Demografik va ijtimoiy tadqiqotlar instituti bashoratiga ko'ra bu ko'rsatkich 2010-2025 yillarda 50 foiga, 2050-yillarga borib esa 76 foiz o'sishi kutilmoqda. Bu esa hozirgi ishchilar qariganida munosib pensiya olish imkoniyatidan mahrum bo'lishini anglatadi. Bu o'z navbatida mamlakatda pensiya islohotlarini amalga oshirishni taqazo etdi.

Islohot vaqtida 2004 - 2010-yillarda taqsimlovchi tizimdagi holat faqatgina yomonlashdi. Ukraina pensiya fondi o'z majburiyatlarini bajarish uchun davlat budjetidan transfert xarajatlarini amalga oshiradi. Ish beruvchilar pensiya fondiga 32 foiz, ishchilar esa 2foiz miqdorida ish haqidan pensiya badallarini to'laydilar. Pensiya solig'i stavkasi dunyo bo'yicha eng baland bo'lishiga qaramay, pensiya miqdorlari pastligicha qolmoqda.

Umummajburiy jamg'ariluvchi pensiya sug'urtasi tizimida jamg'arma fondlarda fuqarolarning individual pensiya hisob raqamlari ochilib, ularda jamg'ariluvchi pullar inflatsiya jarayonlaridan himoyalanih maqsadida mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya qilinadi. Tizim 2007-yildan amalga kiritilishi kerak edi. Biroq haligacha amalda emas.

Nodavlat pensiya sug'urtasi tizimi 2005-yildan beri amalda qo'llanilmoqda va aholi ichida ancha ommalashib bormoqda. Ularning faoliyati davri uncha katta bo'lmaganligi bois pensiya to'lovlari ham katta emas, biroq jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatning ayrim moliyaviy tashkilotlaridan farqli ravishda ular o'z majburiyatini to'liq va o'z vaqtida ado eta olishdi.

Mamlakatdagi pensiya ta'minoti muammolarini hal qilish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi shu yilning 5-mayida Oliy Radaga pensiya hisoblashning yagona tamoyillarini va Umummajburiy jamg'ariluvchi pensiya sug'urtasi tizimini amalda joriy qilish yuzasidan №2767

---

<sup>68</sup> Украина: Основные моменты пенсионной реформы в пояснениях и расчетах. 2010г. <http://www.sxc.hu/>

sonli qonun loyihasini taqdim etdi.<sup>69</sup> Unga ko‘ra mamlakatda quyidagicha islohotlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan:

1. Ukrainaliklarning pensiyasi uch qismdan tashkil topadi. Bunda fuqaroning umumiy pensiyasi 55 foiz solidar pensiyadan, 35 foiz jamg‘ariluvchi va 10% nodavlat pensiyadan iborat bo‘ladi.

2. Solidar pensiya avvalgidek sug‘urta badallari to‘lanuvchi ish haqidan kelib chiqib hisoblanadi.

3. Jamg‘ariluvchi pensiya individual pensiya hisob raqamida to‘plangan summadan iborat bo‘lib, unga ish beruvchilar har oyda ishchining oyligidan ma‘lum miqdordagi pul ushlanmalarini o‘tkazadi. Majburiy sug‘urta badallari 2017-yilda 2 foiz miqdoridan, har yili 1 foizdan 2022-yilgacha 7 foizga yetadi.

4. Majburiy sug‘urta badallari oshgani sari, 2018-yildan taqsimlovchi pensiya tizimidagi sug‘urta badallari kamayib boradi.

5. Umummajburiy jamg‘ariluvchi pensiya sug‘urtasi tizimini 35-yoshdan kichik fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi. 35-55 yosh oralig‘idagi fuqarolar esa bu tizimda ixtiyoriy ravishda ishtirok etadilar. Bu tizimdagi pensiyani meros qoldirish mumkin bo‘ladi.

6. 2016-yil 1-yanvardan davlat xizmatchilari, soliq va bojxona hamda hududiy boshqaruv organlari hodimlari, shuningdek prokurorlar va sudyalalar uchun maxsus pensiyalar bekor qilinadi. Ularga pensiyalar umumiy tartibda hisoblanadi.

7. Mamlakatda pensiya yoshi 30 yillik stajga ega ayollar uchun 55 yosh va erkaklar uchun 60 yosh. Pensiyaga kechroq chiqqan ayollar uchun pensiya miqdori imtiyozli ravishda har yarim yil uchun 2,5 foizga oshiriladi.

Chili pensiya tizimi dunyoda novator pensiya tizimi hisoblanadi. Uning tajribasi turli davlatlarda, jumladan Rossiya, Qozog‘iston, Argentina, Peru Kolumbiya kabi davlatlarda qo‘llanilgan.

Chilida pensiya islohoti 1981-yilda A.Pinochet boshqaruvi davrida amalga oshirilgan. Chili tajribasini qo‘llash masalalarini muhokama qilish jarayonida, islohotlar mamlakatdagi iqtisodiyot ancha jonlangan paytda amalga oshirilganini hisobga olish darkor. Bu esa hukumatga islohotlarni yetarlicha moliyalashtirish imkonini bergan.

Islohot natijasida davlat pensiya tizimi revolyutsion usulda, yangi tartib-qoidaga asoslangan pensiya jamg‘arma-omonat schetlari milliy tizimiga almashtirildi.

Islohotning muvaffaqiyatini belgilab bergan jiddiy omillardan yana biri bu qulay demografik holat edi. O‘sha paytlarda Chilida pensionerlar 8 foizni tashkil etib, bitta pensionerga 12,8 ta ishlovchi to‘g‘ri kelar edi.

Chili pensiya omonat schetlari milliy tizimida pensiya miqdori, ishchining yillar davomida jamg‘argan pullari asosida aniqlanadi.

Ishchilar ham, ish beruvchilar ham davlatga ijtimoiy ta‘minot sarflari uchun alohida ajratmalar va soliqlar to‘lamaydilar. O‘z navbatida ishchilar davlatdan ham hech qanday pensiya olmaydi. Ular har oy o‘z pensiya omonot hisob raqamlariga avtomatik tarzda oyliklaridan 10 foizdan o‘tkazib boradilar. Bu norma daromadning faqatgina yillik 22000 AQSh dollaridan oshmagan qismidan to‘lanadi.

Ishchilar pensiya hisob raqamlariga ixtiyoriy ravishda har oyda qo‘shimcha 10 foizdan o‘tkazmalar to‘lashi mumkin. Bu summa ham daromad solig‘iga tortilmaydi.

Ishchilar o‘zlari istagan xususiy “pensiya fondlarini boshqarish kompaniyasi” ya’ni “Administradoras de Fondos de Pensiones” (AFP)ni tanlaydilar. Bu kompaniyalar davlat nazorati obyekti bo‘lib, jamg‘arayotgan pul mablag‘larini aksiya va obligatsiyalarga investitsiyalashi mumkin.

Ishchilar bir AFPdan boshqa AFPga o‘tishlari mumkin. Shu sababli ham kompaniyalar o‘zaro raqobatlashib, mijozlarga investitsiyadan yuqori daromadni, xizmat ko‘rsatish sifatini

<sup>69</sup> <http://www.eizvestia.com> “Экономические известия” 2015.

yuqoriligini va komission to'lovlarni kamligini taklif etadilar. Har bir ishchiga pensiya hisob raqami omonat kitobchasi taqdim etiladi va har chorakda unda qancha pul jamg'arilgani va investitsion foyda qanday bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi. Hozirda mamlakatda 15 ta turlicha AFPlar faoliyat yuritmoqda. Ular banklar, sug'urta tashkilotlari, kasaba uyushmalari yoki yirik assotsiatsiyalarga tegishlidir.

Mustaqil band bo'lgan aholi ham bu tizimda ixtiyoriy ravishda ishtirok etish huquqiga ega.

Majburiy sug'urtalash erkaklar 65 yoshga, ayollar 60 yoshga to'lguniga qadar amalga oshiriladi. Ishchilar pensiya ta'minotiga qo'shimcha ravishda, ish haqidan 3% dan nogironlik va boquvchisini yo'qotish hollaridan ham sug'urtalanadilar. Mustaqil band aholi bu fondlarda ixtiyoriy ravishda sug'urtalanishi mumkin.

Islohot davrida uchta asosiy qoida amal qildi:

1. Mamlakatdagi mavjud pensionerlarga ushbu islohot ta'sir qilmaydi. Ularning pensiya ta'minotini davlat o'z zimmasiga oladi.

2. Eski taqsimlovchi tizimga badallar to'lagan fuqarolar xoxishiga ko'ra shu tizimda qolishadi. Agar yangi tizimga o'tishni istashsa, ularga "pensiya majburiyati e'tirofi" nomli obligatsiya beriladi va u pensiya yoshida sondiriladi.

3. Mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni boshlagan barcha fuqarolar majburiy ravishda yangi tizimga qo'shilgan. Eski tizimga kirish huquqi esa to'xtatilgan.

Yangi tizim yollanib ishlovchi aholining faqat 60 foizga yaqinini qamrab olgan. Noqonuniy mehnat faoliyati doirasidagilar, mustaqil band aholi va to'liq stavkada ishlamaydiganlar, ishsizlar sug'urta badallarini to'lamaydilar. Natijada ular pensiya ta'minotidan o'zlarini mahrum qiladilar.

Rivojlanayotgan davlatlarda aynan noqonuniy mehnat faoliyati doirasining kengayib borayotgani bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Yangi pensiya tizimini joriy qilish natijasida ishlab chiqarish kapitali o'sib bordi va shu sababli mamlakatda iqtisodiy o'sish tezlashdi.

Shuningdek, pensiya omonat schetlari milliy tizimida bugunga kelib 25milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsion fond to'plangan. Bu 14millionlik aholi va YaIM 60 milliard bo'lgan rivojlanayotgan davlat uchun katta ko'rsatkichdir.

Chili tajribasini qo'llashda, albatta mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini va ayniqsa davlat budjeti holatini hisobga olish zarur.

Qozog'iston. Ukrainadan farqli ravishda pensiya islohotlarini samarali tashkil etish sohasida MDH mamlakatlari ichidagi ilg'or davlatlardan biri Qozog'iston hisoblanadi. MDH mamlakatlari ichida bu davlat birinchi bo'lib majburiy jamg'ariluvchi pensiya tizimini joriy qildi. Bunda Qozog'iston Chili tajribasidan foydalandi.

Pensiya tizimida islohotlar o'tkazishga bozor iqtisodiyoti va aholi farovonligini oshirishga bo'lgan intilish sabab bo'ldi. Eng asosiy sabab esa davlatning aholini pensiya bilan ta'minlashdagi ishtiroki va xarajatlarini minimallashtirish bo'ldi. Qozog'iston islohotining o'ziga xos jihati shundaki, jamg'ariluvchi tizim qo'shimcha tizim sifatida emas, yangi davlat pensiya ta'minotining asosiy elementi sifatida joriy qilindi.

Birinchi bosqich taqsimlovchi tizim bo'lib, unda pensiya xarajatlari davlat budjetiga tushuvchi ishlovchilarning majburiy badallari va boshqa tushumlar hisobiga moliyalashtiriladi. Pensiya miqdori ish stajidan kelib chiqib hisoblanadi. Shuningdek ish haqi va stajidan qat'iy nazar bazaviy pensiya ham davlat budjetidan moliyalashtiriladi. 2014-yilda uning miqdori yashash minimumining 50 foizini ya'ni 10 450 tengeni tashkil qilgan.<sup>70</sup>

Ikkinchi bosqich majburiy jamg'ariluvchi tizim. Qozog'iston jamg'ariluvchi modeli 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan. Modelning farqli tarafi shundaki, u ikkinchi bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda Davlat jamg'arma pensiya fondiga ishchilar tomonidan har oy oylik ish haqining 10 foiz miqdorida majburiy badallar o'tkaziladi. Ikkinchi bosqich – 11 ta nodavlat

---

<sup>70</sup> <http://www.kapital.kz>

jamg'arma pensiya fondlari tomonidan amalga oshiriluvchi shaxsiy va korporativ jamg'ariluvchi pensiya dasturlaridan iboratdir. Pensiya jamg'armalarining 2/3 qismi ikkinchi bosqichga to'g'ri keladi.

Uchinchi bosqich ixtiyoriy badallarga asoslangan jamg'ariluvchi pensiya tizimi hisoblanadi.

Biroq bugungi kunda ham pensiyalarning asosiy qismini davlat budjetidan moliyalashtiriluvchi solidar pensiya tashkil etmoqda. 2013-yilning yakunlariga ko'ra bazaviy, mehnat (solidar) va jamg'ariluvchi qismlardan iborat bo'lgan pensiyalarning o'rtacha miqdori 41000 tengedan iborat bo'lib, uning 32 foizini (30045 tenge) mehnat pensiyasi, jamg'ariluvchi pensiya esa 3,1 foizni (2539 tenge) tashkil etmoqda.<sup>71</sup>

Qozog'istonda erkaklar pensiyaga 63 yoshda, ayollar esa 58 yoshda chiqadilar. Biroq ayollar pensiya yoshini bosichma bosqich 10 yil davomida, har yili 0,5 yoshdan ko'tarish hisobiga 63 yoshga ko'tarish ko'zda tutilgan.

2015-yil 1-yanvardan Qozog'istonda pensiya to'lovlari 9 foizga, bazaviy pensiya va ijtimoiy nafaqalar 7 foizga oshirildi. Yashash minimumi esa – 21364 tenge miqdorida belgilandi.

Qozog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlantirish vaziri Tamara Duysenova so'zlariga ko'ra 2017-yil iyul oyidan bazaviy pensiyalarni hisoblash tartibi o'zgartiriladi. Bu borada hozirda qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra pensiya badallarini 10 yildan kam to'laganlar uchun bazaviy pensiya miqdori yashash minimumining 50 foizi miqdorida, 20 va 35 yillik staj egalari 70 va 100 foiz miqdorida tayinlanishi ko'zda tutilgan.

---

<sup>71</sup> <http://www.centrasia.ru/newsA> Показатели экономики, заседании мажлиса Парламента Казахстана 2014.

## 9-MAVZU: CHET MAMLAKATLARGA CHIQUVCHI FUQAROLARNI IJTIMOIIY SUG'URTA QILISH

### REJA:

1. Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning klssifikatsiyasi.
2. Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta tarifi, sug'urta mukofotlari, sug'urta qoplamalari va ularni to'lash tartibi.
3. O'zbekiston sug'urta bozorida xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning rivojlanishi va sug'urta bozorining tahlili.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Baxtsiz hodisa, sug'urta risklari, turistlar, mo-mulk sug'urtasi, moliyaviy risklar, siyosiy risklar.*

### 1. Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning klssifikatsiyasi.

Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash turizm sohasidagi sug'urta fuqarolarning turistik sayohatga chiqqan vaqtdagi mulkiy manfaatlarini sug'urta qilgan holda sug'urta xizmatlarining muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sug'urta risklarining xarakterli jihati shundaki, u qisqa muddatli shartnoma asosida tuziladi ya'ni , 6 oygacha. Uzoq muddatli shartnoma ushbu sug'urta turi bo'yicha risklarning va syg'urta qoplamalarining miqdorini oshishiga olib keladi.

Bugungi kunda turizm sohasidagi sug'urta turlari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Turistlar va ularning mol-mulkini sug'urtalash;
- Turistik firmalarning risklarini sug'urtalash;
- Turistlarning chet mamlakatlarga sayohatga chiqishini sug'urta qilish;
- Chet el turistlarini sug'urtalash;
- Fuqarolik javodgarligini sug'urta qilish;
- Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;
- Tibbiy harajatlarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;
- Sayohatning bekor qilinishi bilan bog'liq sug'urta.

Bundan tashqari sug'urta kompaniyalari tomonidan boshqa sug'urta xizmatlari ham ko'rsatilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan sug'urta turlarining ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Sayohatning bekor qilinishi bilan bog'liq sug'urta to'satdan sayohatning bekor qilinish hollarini o'zida aks ettiradi. Sug'urta shartnomasi sayohatga chiqish belgilangan kundan kamida 15 kun oldin tuzilishi kerak. Bunda shuni inobatga olish kerakki , sayohat vizasi berilmasligi oqibatida sayohatning qoldirilishi sug'urta hodisasi bo'lib hisoblanmaydi. Bunday hollar uchun alohida sug'urta turlari mavjud ya'ni, sayohatga chiqa olmaslikni sug'urtalash.

Javobgarlik sug'urtasida sug'urta hodisasi quyidagi hollarda yuzaga keladi, agar sug'urtalangan shaxs boshqa bir mamlakat hududida (shartnomada ko'rsatilgan) 3- shaxsning mol- mulkiga yoki hayoti va sog'lig'iga zarar etkazgan holda sud muhokamadiga tortilgan vaqtda sud qaroriga asosan fuqarolik javobgarligi yuzaga keladi.

Turistik fitmalarning risklarini sug'urtasi moliyaviy risklarni, turistlar va ularning qarindoshlari hamda uchinchi shaxslarni qilgan da'volari bo'yicha risklarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy risklar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Tijorat risklari (to'lovlarning ushlanib qolishi yoki to'lab berilmasligi, shartnomada keltirilgan fors-major holatlar oqibatida yuzaga kelgan hodisalarni kontragent tomonidan tan olinmasligi oqibatida to'lanadigan jarimalar);
- Firmaning bankrot bo'lishi;
- Bojxona qonunchiligidagi o'zgarishlar, valyuta kurslaridagi o'zgarishlar, pasport rejimining o'zgarishi va boshqlar;

- Fors-major holatidagi xodisalarning yuzaga kelishi;

- Siyosiy risklar va boshqalar.

Sug'urta tarif stavkasi – sug'urta tavakkalchiligining bahosi, u sug'urta summasiga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Shaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasida tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasida sug'urta tarifi sayohat kunining bir kunini hisobga olgan holda sug'urta mukofotining mutloq summasida o'z aksini topadi. Sug'urta tarifining miqdoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilar:

- Sug'urtalangan shaxsning yoshi (odatda sug'urta kompaniyalar 16yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga chegirmalar qo'llasalar, 65-70 yoshdan oshganlarga ko'payib boruvchi koeffitsent qo'llaydilar) ;

- Sayohatga chiqayotgan davlat (O'rta Osiyo davlatlariga minimal sug'urta tariflari qo'llanilsa, Evropa, AQShva mobqa davlatlarga yuqororoq sug'urta tariflari qo'llaniladi);

- Sayohatning muddati(sayohat muddatining uzaytirilishi sug'urta mukofotining bir munch kamayishiga olib keladi) ;

- Sayohatning maqsadi (oddiy turistik sayohatga minimal sug'urta tariflari qo'llanilsa, sport o'yinlari va sport musobaqalarigayuqori tariflar qo'llaniladi);

- Sug'urta kompaniyasining javobgarlik riski (sug'urta kompaniyasining javobgarlik riskining ortishi o'z navbatida sug'urta tarifining ortishiga ta'sir qiladi);

- Chegirma va franshizalarning qo'llanilishi(sug'urta kompaniyalarini javobgarlik risklariga chegirma va franshizalarning qo'llanilishi sug'urta mukofotining miqdorini kamayishiga olib keladi);

- Sug'urta mahsulotini sotish usuli (sug'urta kompaniyalarida turistik sayohatga guruh bo'lib chiqqanlar uchun sug'urtalangan shaxslar soniga qarab chegirmalar qo'llaniladi, turistik agentliklardan olingan sug'urta polisleri esa bir muncha qimmatroq bo'ladi).

Sug'urta mukofoti- sug'urta mukofotining miqdori , sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 942- moddasida sug'urta mukofotiga shunday ta'rif berilgan:"Sug'urta mukofoti deganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi tushuniladi.

Sug'urta mukofoti sug'urta summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi, ya'ni tanlangan sug'urta qoplamasi va sug'urta tarifiga ko'ra. Uning miqdori sug'urta polisida ko'rsatiladi. Har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta mukofoti sug'urtalangan shaxsning yoshi , chet elda qolish muddati, qaysi mamlakatga va chet elga chiqishidan maqsadiga ko'ra turlicha bo'ladi. Sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofotini belgilashdabazaviy sug'urta tarifiga ko'payib boruvchi yoki kamayib boruvchi koeffitsent qo'llashi mumkin. Guruh bo'lib chiquvchilar uchun kamayib boruvchi koeffitsentlar qo'llaniladi.

Sug'urta mukofoti sug'urtalangan shaxs tomonidan to'liq miqdorda usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- Naqd pulsiz shaklda bankdagi xisob raqamiga pul ko'chirish orqali;

- To'lovni O'zbekiston respublikasining maxsus vakolatga ega banklarining bo'limlari yoki kompaniyaning vakolatli vakillariga naqd pul ko'rinishida amalga oshirish.

- Kompaniyaning bankdagi hisob raqamiga sug'urtalangan shaxsning ish loyidan pul ko'chirish orqali, yani oylik ish haqidan.

Sug'urta mukofoti to'lovini quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirish mumkin:

- Milliy valyuta – so'mda, sug'urta mukofoti to'langan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki belgilagan kurs bo'yicha;

- Chet el valyutasida AQSH dollari yoki Evroda.

Sug'urta qoplamasi- mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin.

Sug'urta hodisasi ro'y bereganlik holati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining hulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib hisoblanadi.

Chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasida sug'urta qoplamalari tanlangan sug'urta tarifi shartlariga muvofiq quyidagi harajatlarni qoplagani beriladi:

- 1) Tibbiy xarajatlar;
- 2) Tibbiy- transport xarajatlari;
- 3) Transport va boshqa xarajatlar;
- 4) O'lim holati sodir bo'lganda jasadni o'z yurtiga olib borish bilan bog'liq xarajatlar;
- 5) Baxtsiz hodisa bilan bog'liq xarajatlar

1) Tibbiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Tibbiy markazda ambulator davolanish, u o'z ichiga quyidagi xarajatlarni oladi: shifokor xizmati (konsultatsiya), diagnostik yoki laboratoriya tekshiruvlari, shifokor tomonidan tayinlangan dori- darmonlar;

- Shifohonada davolanish( standart turdagi palatada), operatsiya o'tkazish, diagnostika yoki laboratoriya tahlillari va shifokor tomonidan tayinlangan dori- darmon xarajatlari;

- Tez stomatologik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan baxtsiz hodisa yoki qattiq tish og'rig'ini davolashga sarflangan xarajatlar;

2) Tibbiy- transport xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Kerak bo'lgan hollarda sug'urtalangan shaxsni yaqin oradagi shifohonaga yetkazish xarajatlari;

- Sug'urtalangan shaxsni sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida o'z yurtiga qaytishi kechiktirilgan hollarda keyinchalik uni o'z yurtiga yetkazish xarajatlari;

3) Transport va boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Sug'urtalangan shaxsni sug'urta polisining amal qilish muddati davomida shifohonaga joylashtirish xarajatlari;

- Sug'urtalangan shaxs bilan baxtsiz hodisa sodir bo'lganda uning hamrohlari (turmush o'rtog'i, farzandlari, ota-onasi va tug'ishgan aka-singillari) ushbu hodisa sababli o'z yurtlariga vaqtida qayta olmagan holarida, ularni keyinchalik o'z yurtlariga yetib olish xarajatlari ham o'z ichiga oladi;

4) O'lim holati sodir bo'lganda jasadni o'z yurtiga olib borish xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Sug'urtalangan shaxs bilan o'lim holati sodir bo'lganda jasadni o'z yurtiga yetkazish xarajatlari. Lekin murdani ko'mish xarajatlari qoplanmaydi.

5) Baxtsiz hodisa bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Sug'urtalangan shaxs to'g'ridan- to'g'ri baxtsiz hodisa oqibatida vafot etgan hollarda naf oluvchiga oldindan nazarda tutilgan sug'urtasummasi doirasida sug'urta qoplamasi to'lanadi;

- Baxtsiz hodisa oqibatida tana a'zolarining shikastlanishi, bitta yoki ikkala ko'zining ko'rish qobiliyatini to'liq yoki qayta tiklanmas holda yo'qolishi hollarida kompaniya quyidagi to'lovlarni amalga oshiradi:

Dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlarining sug'urta bozarida chet mamlakatga chiquvchi fuqarolarning sug'urtasi katta ahamiyatga egadir. Ushbu sug'urta turining mashhurligi yillar o'tgan sari ortib bormoqda. Chunki fuqrolarning o'z yurtidan tashqari boshqa davlatlarga ish yuzasidan yoki sayohat uchun chiqishlari anchayin ommalashgan. Har qnday shaxs o'z uyidan, yurtidan tashqarida bo'lgan vaqtda u yerdagi iqlim sharoiti, yashash sharoiti, oziq – ovqatlarning turlichaligi va boshqa omillar tasirida turli darajadagi risklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu kabi risklarning oldini olish maqsadida ushbu sug'urta turi ishlab chiqilgan.



## **2. Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta tarifi, sug'urta mukofotlari, sug'urta qoplamalari va ularni to'lash tartibi.**

Chet mamlakatlarda xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning amalga oshirilishi turlichadir. Rossiyani misol qilib oladigan bo'lsak u yerda Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning amalga oshirilishi O'zbekistondan unchayin farq qilmaydi, ammo uning o'ziga hos xususiyatlari ham mavjud.

Rossiyada xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning quyidagi turlari mavjud:

- Tibbiy sug'urta;
- Hayot va sog'liqni sug'urta qilish;
- Mol-mulk sug'urtasi;
- Transport vositasining ushlanib qolishi sug'urtasi;
- Turistlarning dam olish vaqtidagi ob- havoning yomonlashuvidan sug'urtalash;
- Assistans sug'urtasi;
- Turizm xizmatlarini yetarli darajada ta'minlanmaganligi yoki umuman ta'minlab bermasligi hollaridan sug'urtalash;
- Sayohatni amalga oshiraolmaslik bilan bog'liq xarajatlar sug'urtasi;
- Transport vositalari egalari javobgarlik sug'urtasi.

Ushbu sug'urta turlarining ba'zilarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Tibbiy sug'urta. Turistlarning tibbiy sug'urtasi odatda quyidagi harajatlarni qoplaydi:

- tibbiy xizmat xarajatlarini;
- statsionar xizmat xarajatlarini;
- tez tibbiy yordam mashinasida olib borish xarajatlarini;
- dori-darmolar bilan ta'minlash xarajatlarini;
- baxtsiz hodisa oqibatida yoki to'satdan kasallangan bemorlarga g'amho'rlik qilish xarajatlarini;
- chet elda o'lim holati yuz berganda jasadni o'z yurtiga olib botish xarajatlarini.

Agar sug'urtalanayotgan shaxsning yoshi 65 yoshdan oshgan bo'lsa ikki barobarlik tarif qo'llaniladi. 70 yoshdan oshgan shaxslar sug'urta qilinmaydi. Sug'urta tibbiy tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

Rossiyaning Ingosstrax sug'urta kompaniyasi tibbiy sreviz xizmatlarini ko'rsatuvchi Germaniyaning MERCUR ASSISTANCE kompaniyasi, PECO- Garantisug'urta kompaniyasi va frantsiyaning CORIS xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.

Ba'zi bir sug'urta kompaniyalari o'zlarining mijozlariga tibbiy sug'urtaga qo'shimcha holda sug'urtaning boshqa turlarini ham tavsiya qiladilar. Misol uchun:

- Baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;
- Fuqarolik javobgarligi sug'urtasi;
- Sayohatning bekor qilinishi bilan bog'liq moliyaviy risklar sug'urtasi va x.k

Bundan tashqari ushbu sug'urta polisi bir qator tibbiy xizmatlarni ko'rsatish xarajatlarini qoplaydi:

- Ambulator va statsionar xizmat ko'rsatish xarajatlarini;
- Tez stomatologik xizmat ko'rsatish xarajatlarini;
- Shifokor tomonidan tayinlangan dori- darmon xarajatlarini;
- Bemorni kerakli joyga yetkazib borish, u o'z ichiga bemorni o'z yurtiga olib borish xarajatlarini ham oladi.

Turistlarni ob-havo sharoitining yomonlashuvi holatidan sug'urta qilish. Turistlarni ob-havo sharoitining yomonlashuvi holatidan sug'urta qilishda sug'urta kompaniyasi sug'urtalangan shaxslarning shartnomada ko'rsatilgan dam olish joyidagi ob-havo sharoitining yomonlashuvi (ya'ni ko'p miqdordagi yog'ingarchilik, kuchli dengiz to'lqinlari, havoning past darajada bo'lishi va x.k) bo'yicha javobgarlikka ega.

Sug'urtaning ushbu turi tijorat risklariga mo'ljallangan bo'lib va u ob-havo sharoiti yomonlashuvi sug'urtasining bir qismi hisoblanadi.

Assistans sug'urtasi- ( lotincha assistance – yordamga keluvchi) chet elga chiquvchi turistlar va mutaxassislariga kerak bo'lgan vaqtda texnik, moliyaviy va boshqa turdagi yordam ko'rsatishni o'z ichiga oluvchi mahsus sug'urta turi hisoblanadi. Assistans sug'urtasi ijtimoiy sug'urta turiga mansub bo'lib, sayohatga chiqqan shaxslar va ularning oilalarini havfsizligini ta'minlaydi. Chet ellarda quyidagi yirik assistans kompaniyalari mavjud bular: VAP Assistance, Europe Assistance, Elvia ,Gesa va boshqalar. Ushbu sug'urta turining asosiy maqsadi-kutilmagan vaziyatlarda yordam ko'rsatish. Masalan : avariya holatlarida, boshqa maxsus holatlar natijasida moliyaviy, tibbiy va texnik yordam ko'rsatish.

Shu bilan birga rossiyada assistans xizmatlarini Ingosstrax sug'urta kompaniyasining sho'ba korxonasi TIM Assistans ham amalga oshiradi. Ushbu kompaniyaning asosiy vazifasi- Rossiya Federatsiyasi (RF) va Milliy Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari hududida milliy va chet el kompaniyalarida sug'urtalangan shaxslarga yordam ko'rsatishdir.

Chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasini amalga oshirishda ko'pgina davlatlarning sug'urta kompaniyalari butun dunyo bo'yicha o'zining operativ markazlari va ta'minot xizmatlarini amalga oshirish va ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega emas. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlar, sug'urta va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni cheklangan. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi va jahon sug'urta bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan nufuzli , katta kompaniyalardan biri bo'lgan Europ Assistance sug'urta kompaniyasi birinchi o'rinda turadi. Bu kompaniya tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha sug'urtasi bo'yicha jahon sug'urta bozorining 30 % ini nazorat qiladi. Ushbu kompaniya 210 ta davlatda o'z tarmoqlariga ega, 2411 ta operativ markazlari mavjud va 78 000 ta ta'minot xizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlariga ega. Yana bir nufuzli kompaniyalardan biri Gesa Assistance kompaniyasi tez tibbiy yordam ko'rsatish sug'urtasi bo'yicha jahon sug'urta bozorining 12 % ini nazorat qiladi. Bundan tashqari Mondial Assistance, Elvia, Mercur Assistance kabi kompaniyalar ham ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi nufuzli kompaniyalardan hisoblanadi.

Mondial Assistance Group – assistans va chet elga chiquvchi fuqarolarni sug'urtalash sohasida jahon etakchisi. Guruh korporativ mijozlar bilan ularning ehtiyojlariga optimal echimlar taklif etish maqsadida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantiradi. Butun jahonga ma'lum assistans brendlari – Mondial Assistance (Elvia) va World Access ushbu guruhning tarkibiy qismidir. butun dunyo bo'yicha har uch daqiqada kimgadir Mondial assistance Group tomonidan assistans xizmati ko'rsatiladi. Guruhning 250 dan ortiq sug'urta, bank va boshqa moliya muassasalari, 1000 ta turoperatorlar, 40 000 ta agentliklar bilan hamkorligi butun dunyo bo'yicha sug'urtalangan 220 mln. shaxslar amon bo'lishlari uchun zamin yaratadi.

Ushbu maxsus tashkilotlar o'z mahsulotlarini to'g'ridan - to'g'ri iste'molchilarga sotish bilan bir qatorda boqqa chet el sug'urta kompaniyalari bilan ham "chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasi" ni amalga oshirishda o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

3. O'zbekistonda mavjud bo'lgan sug'urta turlarining orasida chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasi, shu jumladan sayyohlar hayotini sug'urtalash holati o'sib bormoqda. Quyida keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda Xorijga chiquvchi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning rivojlanganligi haqida o'z isbotini topadi. Mustaqillikning ilk yillarida, 1992- yildan boshlab turistik xizmatlarning eksporti hajmi o'n barobar oshgan. Masalan: 1993- yilda turistik xizmatlarning eksport hajmi 5 mln AQSh dollar bolgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hozirgi kunga kelib 50 mln dan oshdi. 1993-yilda O'zbekistonga kirib kelayotgan turistlar soni 215, 78 ming kishi bo'lgan , 2008- yil 343, 6 ming kishini tashkil qilgan. 1993-yilga nisbatan 37,2 % ga oshgan. Asosan mamlakatimizning tarixiy shaxarlari – Buhoro, Samarqand va Xivani ko'rishga Yaponiya, Italiya, Rossiya, Koreya davlatlaridan ko'plab sayyohlar tashrif buyurishmoqda. Respublikaning Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi turistik markazlarida bir qator mehmonhona komplekslari qurilgan va qayta ta'mirlangan. Agar 1993- yilda Respublikamizda 98 ta mehmonhona mavjud bo'lgan bo'lsa, 2015 –yilda ularning

soni 240 taga ko'paydi. Bugungi kunga kelib turistik tashkilotlar soni 730 tadan oshiq, 1993 – yilda Respublikada faqatgina 4 ta turistik tashkilot faoliyat ko'rsatgan.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki turizm sohasi bevosita sug'urta bilan bog'liq va birgalikda faoliyat ko'rsatadi. Agar turizm sug'urtaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, o'z navbatida sug'urta turizm sohasi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. 2015 – yilda Buxoroda o'tkazilgan Uchinchi Toshkent Xalqaro Sug'urta Forumida “Turizm va sug'urta” mavzusidagi anjumanda ushbu sohadagi dolzarb muammolar atroflicha muhokama qilindi.

**1-jadval**

2015 – yil yakunlari bo'yicha <sup>72</sup>			
O'zbekistonga chet mamlakatlardan kirib kelgan turistlar		O'zbekistondan chet mamlakatlarga chiqqan turistlar	
Davlatlar nomi	Turistlar soni (ming nafar)	Davlatlar nomi	Turistlar soni (ming nafar)
Germaniya	19,4	Turtsiya	15
Frantsiya	17	Xitoy	9
Yaponiya	14	Birlashgan Arab Amirligi	8
Janubiy Koreya	10	Malayziya	4,5
Italiya	9,3	Rossiya	4
Turtsiya	7	Qozog'iston	1,5
AQSh	6,1	Tailand	1,4
Angliya	6	Janubiy Koreya	1,3
Xitoy	3	Eron	1,3
		Chexiya	1,2

Butun jahon ekspertlarining ststistik ma'lumotlariga ko'ra chet elga chiquvchi fuqarolar bilan sodir bo'ladigan holatlar dinamikasi quyidagicha ko'rsatkichlarga ega: o'lim holati - 1%, yuridik xizmat ko'rsatish – 3%, tana a'zolarining sinishi -5%, allergiya -5%, haroratning tasiri - 5%, stomatologik yordam -8%, otit -9%, surinkali kasalliklarning qo'zg'alishi – 11%, zaharlanish -16%, bahtsiz hodisalar oqibatida jarohatlanish -17% va shamollash -20% ni tashkil etadi.

“Chet elga chiquvchi fuqarolar sug'urtasi” (Trevel) da sug'urta to'lovlarini amalga oshirish shartlari:

1) Sug'urtalangan shaxsga tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun sug'urtalangan shaxs Assistans xizmatining dispecherlik markaziga telefon orqali habar berishi va markazga quyidagi ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak:

- Sug'urtalangan shaxsning familiyasi, ismi va sharifi;
- Sug'urta polisining raqami;
- Sug'urtalangan shaxsning turgan joyi;
- Hol- ahvoli haqida qisqacha malumot.

2) Assistans hizmatining dispecherlik markazi bilan bog'lana olmagan hollarda yoki boshqa shartnomada ko'zda tutilmagan hollarda sug'urtalangan shaxs xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi. Bunday hollarda sug'urtalangan shaxs o'z yurtiga qaytgandan so'ng 15 kun ichida sug'urta kompaniyasiga yozma ravishda sodir bo'lgan hodisa haqida ishonchli dalillar asosida ma'lumot berishi kerak. Shundan so'ng kompaniya tomonidan ma'lumotlar tekshirilib sug'urta to'lovlari amalga oshiriladi.

Sug'urta qoplamalarini olish uchun qonunchilikda belgilangan va shartnomada ko'rsatilgan tartibda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Sug'urta polisi yoki uning nusxasi;

<sup>72</sup> Jadval uzbekturizm ma'lumotlari asosida tayyorlandi

- Sodir bo'lgan hodisaning barcha tafsilotlari va mavjud bo'lsa guvohlarning ismlari;
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan sodir bolgan baxtsiz hodisa yuzasidan tuzilgan bayonnoma ( adar ushbu hodisa qonunchilikning buzulishi bilan bog'liq bo'lsa);
- Kasallik tarixidan ko'chirma;
- O'lim holatini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urtalangan shaxsning yo'qolishi bilan bog'liq hollarda – sudni shaxsning o'limini yoki yo'qolganligini tasdiqlovchi hujjat;
- Naf oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
- Sug'urta hodisasining yuz berganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Sug'urta mukofotlari, sug'urta summasi va sug'urta qoplamalri sug'urtalangan shax hohishiga ko'ra, sayohatga chiqayotgan mamlakatiga ko'ra, yoshiga ko'ra, sayohat muddatiga ko'ra va tanlagan dasturiga ko'ra hisoblab chiqiladi.

Sug'urta qoplamalari amal qiladigan hududlar uchta zonaga ajratilgan:

Zona 0: Evropa davlatlari, Isroil, Afrika davlatlari, Shimoliy va Janubiy Amerika, Yaponiya, Rossiya, Turtsiya, Avstraliya, Yangi Zerlandiya va O'zbekiston, sug'urtalangan shaxsning doimiy yashash joyi yoki fuqaroligiga ega bo'lgan davlatlaridan tashqari dunyoning barcha davlatlarlga. ( Markaziy Osiyo).

Zona 1: Shimoliy va Janubiy Amerika, Yaponiya , Rossiya, Turtsiya, Avstraliya, Yangi Zerlandiya va O'zbekiston, sug'urtalangan shaxsning doimiy yashash joyi yoki fuqaroligiga ega bo'lgan davlatlaridan tashqari dunyoning barcha davlatlarlga.

Zona 2: O'zbekiston va sug'urtalangan shaxsning doimiy yashash joyi yoki fuqaroligiga ega bo'lgan davlatlaridan tashqari dunyoning barcha davlatlarlga.

Sug'urta mukofotlari 65 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan. 65 yoshdan 69 yoshgacha bo'lgan shaxslarga - 2,00 koefitsent qo'llaniladi, 70 yoshdan oshgan shaxslarga – 4,00 koefitsent qo'llaniladi. 24 yoshdan kichiklarga – 0,80 koefitsent qo'llaniladi. Oilaviy sayohatga chiqqanlaga 3 -kishidan 5 -kishigacha - 2,50 koefitsent qo'llanadi. Guruh bo'lib chiqqanlar uchun koefitsentlar quyidagicha qo'llaniladi:

- 11- kishidan 20-kishigacha – 0,90;
- 21-kishidan 50-kishigacha – 0,85;
- 51-kishidan 75-kishigacha – 0,80;
- 76-kishi va undanyuqori – 0,75.

- Ko'payib boruvchi yoki kamayib boruvchi koefitsent sug'urtalangan shaxsga sug'urta polisi rasmiylashtirilayotgan payitdagi yoshiga ko'ra qo'llaniladi;

- Agar sug'urtalanayotgan shaxsga bir necha toifalar bo'yicha kamayib boruvchi koefitsent qo'llanilishi to'g'ri kelib qolsa, bunday hollarda faqat ditta tofa qo'llaniladi;

- Agar sug'urtalanayotgan shaxsga ham ko'payib boruvchi ham kamayib boruvchi koefitsent qo'llanilishi to'g'ri kelib qolsa , bunday hollarda faqat ko'payib boruvchi koefitsient qo'llaniladi.

Hozirda davlatlararo ishlar va xizmatlar yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat a'zolarining, chet el fuqarolarining salomatliklarini himoya qilish va ularning mexnat faoliyatini yaxshilashni nazorat qilib borishlik bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib borilayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak bunday vazifani faqat tibbiy sug'urta orqali amalga oshirish mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya)da sug'urtaning kengroq tarqalgan turlari qatorida tibbiy sug'urta ham rivojlangan bo'lib, unda kompaniyalar har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladilar.

Tibbiy sug'urtaning maqsadi fuqarolarning salomatliklariga xavf soladigan hodisa sodir bo'lsa, unga yig'ilgan mablag' hisobidan tibbiy yordam berishni kafolatlaydi. Tibbiy sug'urta tizimida fuqarolar tibbiy sug'urta kompaniyalarini tanlash, tibbiy yordam va ko'rilgan zararni undirib olish huquqiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda «O'zbekinvest» EIMSKsi taqdim etayotgan asosiy xizmatlar tibbiy xarajatlarni sug'urtalash, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, yukni sug'urtalash, sayyohning uchinchi shaxs oldidagi mas'uliyatini sug'urtalashdan iborat.

O'z xizmatlarini sotish uchun kompaniya ikki yirik xalqaro safarlarni sug'urtalash jamiyatlari ELVIA (SHveysariya) va Koris (Fransiya) bilan hamkorlik qilmoqda.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta maxsuloti kompaniya tomonidan respublika sug'urta bozorida joriy etilgan. Ushbu mahsulotni sotib olish uning egasiga respublikaning eng yaxshi shifoxonalarida sifatli va malakali tibbiy yordam olishni kafolatlaydi. Taqdim etilayotgan xizmatlarni takomillashtirish maqsadida har bir mijozning ehtiyoji, imkoniyatlaridan kelib chiqib kompaniya tomonidan ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan va ushbu turdagi sug'urta turi borasida Kompaniya respublikaning qator etakchi tibbiy muassasalari bilan shartnomalar tuzgan.

Tibbiy yordam xizmatlarini ko'rsatish hududlarini kengaytirish maqsadlarida xalqaro assistans guruhi (Interneshnl Assistens Group)ga kiruvchi Global Voejder Assistans, «Belvneshstrax» unitar sug'urta korxonasi «Asism Ukraina» sug'urta kompaniyasi, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Devonining davolash birlashmasi bilan Markaziy Osiyo hududi bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolaniy amalga oshirilmoqda.

«Uzbekturizm» Milliy kompaniyasi bilan hamkorlik to'g'risidagi bosh kelishuv va shartnomaning tuzilganligi esa O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan turistlarga kompaniyaning kompleks sifatli sug'urta va assistans xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyalari har bir sug'urtalanuvchi fuqaroning tibbiy xarajatlarini sug'urtalashda huquqiy ham moddiy javobgar hisoblanadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, tibbiy sug'urta kompaniyalarning moliyaviy mablag'lari, davlat byudjeti mablag'lari, jamoat tashkilotlari, korxonalar va boshqa xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisobidan tashkil topadi.

Tibbiy sug'urta tizimida sug'urta kompaniyalari mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ekti bo'lib, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha kompaniyalar, ishlab chiqarish konserni va korporatsiyalar bilan mustaqil sug'urta shartnomasini tuzish huquqiga egadirlar.

Tibbiy sug'urta kompaniyalari o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishda tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini erkin tanlash, ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta badali, tibbiy xizmat bo'yicha tarif miqdorlarini belgilash hamda tibbiyot muassasalari va tibbiyot hodimlari tomonidan sug'urtalanuvchilarga keltirgan zarar yuzasidan sud jarayonini qo'zg'ash huquqlariga ega.

Tibbiy sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda o'zlarining zahira jamg'armalaridan foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko'rsatadigan barcha tibbiy sug'urta kompaniyalari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar o'z litsenziya va akkreditatsiyalariga ega bo'lishlari kerak. Litsenziyalash davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilib, tibbiy sug'urta kompaniyalarining yordam ko'rsatish faoliyatlari qat'iy belgilanadi. Masalan, chet elga chiqayotgan sayyohlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta joriy qilingan bo'lib, bunda tibbiy yordam ko'rsatishning tezkor amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta polney bo'lgan sayyohlarga chetga chiqish uchun ruxsat beriladi.

Bunday polisga ega bo'lgan sayyohlarga quyidagi tibbiy yordam ko'rsatish uchun qilinadigan xarajatlar qoplanilishi ko'zda tutiladi: tibbiy shifoxonaga yotqizish; tez yordam xizmatida etkazish; dori-darmon sotib olish; baxtsiz xodisa sodir bo'lganda yoki to'satdan salomatligini yo'qotgan hollarda qilingan xarajatlar va jasadni chetdan o'zi yashab turgan davlatga yoki hududga olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Tibbiy sug'urta jarayoni guvohsiz ham amalga oshiriladi. Tibbiy sug'urta xarajatlari to'satdan sodir bo'ladigan tibbiy hodisalarni qoplash uchungina amalga oshiriladi.

Sayyohlarning uzluksiz kasalliklarini davolash uchun tibbiy sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar qoplanmaydi (bu holat sug'urta guvohtnomasini olgunga qadar aniqlangan bo'lsa). Aksariyat sug'urta kompaniyalari o'z mijozlariga tibbiy sug'urtadan tashqari, boshqa sug'urta turlarini ham taklif qiladilar. Shu jumladan, safarning qoldirilishi bilan bog'liq moliyaviy risk bo'yicha ham.

Sug'urta polisi bir qancha tibbiy xizmat turlari bilan ta'minlanishi mumkin. Masalan, ambulatoriya va statsionar, stomatologik yordam, shifokor tomonidan tavsiya etilgan dori-darmonlar hamda bemorning ko'chib o'tishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi hisob-kitob munosabatlarida sug'urtaga bog'liq boshqa risklar ham mavjud. Bunday risklardan biri valyuta riski. Valyuta riski bozor iqtisodi sharoitida moliyaviy riskning muhim elementi hisoblanadi. Xorij mamlakatlari valyutasining boshqa valyutaga nisbatan o'zgarib turishidan, kredit va valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar valyuta riskini qoplash summasi hisobidan to'lanadi. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchilar xizmati uchun belgilangan narxlar bilan bog'liq turli risklarga duch kelinadi: xizmatga haq to'lashdagi kamchiliklar, sotuvchi yoki xaridorning to'lovga noqobilligi, valyuta kurslarining o'zgarishi, barqarorligi va inflyasiya kabilar.